

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI**

**«O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi»
kafedrası**



«SOTSILOGIYA» FANIDAN

***MA`RUZALAR
MATNI***

Bakalavriat yo'nalishlari: barcha ta'lim yo'nalishlari uchun

Tuzuvchi: Xadjiev Umrbek Shonazarovich

URGANCH-2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-MAVZU: Sotsiologiya fan sifatida.....	4-16
2-MAVZU: Sotsiologiya strukturasi.....	17-23
3-MAVZU: Jamiyat yaxlit tizim sifatida.....	24-35
4-MAVZU: Sotsial guruhlar va sotsial institutlar	35-57
5-MAVZU: Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor	57-74
6-MAVZU: Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikatsion jarayonlar.....	74-85
7-MAVZU: Sotsial munosabatlar.....	85-93
8-MAVZU: Ijtimoiy taraqqiyot sotsiologiyasi.....	93-98
9-MAVZU: Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari.....	98-114
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	115-118
Muallif haqida ma'lumot.....	119

KIRISH

“Sotsiologiya” fani mustaqil O‘zbekistonimiz taraqqiyotida mustaqillik sharofati munosabati bilan vujudga kelgan yangi fan hisoblanadi. Aslida “Sotsiologiya” fani fan sifatida tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida XIX asrning boshlarida G‘arbiy Yevropada mustaqil fan bo‘lib shakllanadi. Sotsial qarashlar esa g‘oyaviy ta’limotlar tarzida bir necha ming yillik tarixiga ega bo‘lib, dastlab Antik dunyoda Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq, Misr va Markaziy Osiyoda ilgari surilib ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanib vujudga kelgan, rivojlanib taraqqiy etgan, Antik dunyo, G‘arb va Sharqning buyuk allomalari – Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotel, Konfutsiy (Kun-Fu-Szi), S.Guatama, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Xaldun, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab buyuk sotsial ta’limot namoyondalarining bu sohada xizmatlari cheksiz bo‘lgan. Ayniqsa Xitoyda “O‘n uch kitob”, Hindistonda “Veda” va “Upanishod”lar, Markaziy Osiyoda “Avesto” va ko‘plab qadimiy tarixiy manbalarda sotsial-g‘oyaviy ta’limotlarning shakllanib rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli manbalar hisoblanadi. Mustaqil fan sifatida shakllanishida esa frantsuz olimi Ogyust Kontning xizmati kattadir. Uning 6 tomlik “Pozitiv falsafa kursi” va 4 tomlik “Pozitiv siyosat tizimi” asarlarida “Sotsiologiya” termini birinchi bor ishlatilib, asarlari esa fan sifatida o‘qitilib boshlanadi va hozirgi vaqtda jahondagi ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda Oliy o‘quv yurtlari, litsey va kollejlarda talabalar o‘qitilmoqda. Mustaqil O‘zbekistonda Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan dastlab O‘zFA Falsafa va huquq instituti qoshida 1993-yilda O‘zbekiston sotsiologlarining uyushmasi tuzildi. 1994-yil 18-iyul 87-01-242 sonli O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining buyrug‘i bilan 1995-1996-o‘quv yilidan boshlab mamlakatimizning barcha oliy o‘quv yurtlarida “Sotsiologiya” fan sifatida o‘qitila boshlanib, hozirgi kunda Respublikamiz sotsiolog olimlari tomonidan yangi namunaviy dastur va ishchi dasturlari asosida o‘quv, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari yaratilib, talabalar foydalanishi uchun tavsiya etilmoqda, yoshlarimiz, talaba yoshlarimiz, magistrantlarimiz sotsial bilimlarga ega bo‘lmoqdalar.

Sotsiologiya kursi shaxsning fuqarolik va professional jihatlarini, uning intellekti va ijodiy qobiliyatlarini, yalpi umumgumanitar madaniyatini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ayniqsa, sotsiologiyani o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchi kadrlar uchun juda muhimdir. Chunki har bir psixologiya-pedagogikaga oid masala sotsial rivojlanishning o‘ziga xosligi bilan chambarchas bog‘liq. Sotsiologiyani pedagogik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilishining aktualligi yana shu narsa bilan bog‘liqki, xalq ta’limi rivojlanishi, ravnaqi sotsial taraqqiyotning muhim dalilidir.

1-MAVZU: Sotsiologiya fan sifatida.

Reja:

- 1.Sotsiologiya fanining vujudga kelishi, predmeti va obykti.
- 2.Antik davr va Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari.
- 3.Sotsiologiyaning fanlar tizimida tutgan o'ziga xos o'rni.

Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida Yevropadagi sotsiologik dunyoqarash xarakteri va mazmuni mazkur jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yangi shaklli tuzilmalar paydo bo'ldi. Eski bilimlar o'rnini yangi nazariyalar egallab, falsafiy bilimlarda yangicha yondoshuvlar kuchaya boshladi. Xarakterli tomoni shundaki, sotsiologiya yangi pozitiv falsafa tamoyillarini asoslab beruvchi fan sifatida maydonga chiqdi. Jamiyat tuzilishi to'g'risidagi mavjud falsafiy-sxolastik g'oyalar tanqidga uchrab, uning o'rniga tabiiy fanlar metodlariga mos keluvchi ijtimoiy tadqiqotlar taklif etila boshlandi. Sotsiologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Bu jarayon ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi tufayli yuzaga kelib, sotsiologiyaning falsafadan ajralib mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkon berdi. Natijada sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy tahlil qilishni ijtimoiy faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo'shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi. **Sotsiologiya lotincha "societas" – jamiyat va yunoncha "logos" – tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatib, jamiyatning tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ularning o'zaro aloqadorligini o'rganuvchi fandır.** Demak, sotsiologiya umumiy ma'noda jamiyat to'g'risidagi fandır.

O.Kont - pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejalari. Sotsiologiya fan sifatida XIX asrning 30-yillarida shakllanib, bu tushuncha fanga frantsuz faylasufi **Ogyust Kont** tomonidan kiritilgan. Sotsiologiya ijtimoiy falsafaning masalalarini yanada konkretlashtirish, empirik sotsial tadqiqotning rivojlanishi oqibatida shakllandi. Frantsuz faylasufi O. Kont (1798 - 1857) tomonidan 1839 yilda "Pozitiv falsafa kursi" asarining uchinchi tomi chop etilgandan boshlab "sotsiologiya" faniga asos solindi. U o'z asarida birinchi bor jamiyat hayotini o'rganish vazifasini bajaradigan "sotsiologiya" tushunchasini qo'llagan. Shuning uchun O. Kontni sotsiologiyaning asoschisi – «otasi» deb ham atadilar. O. Kont o'z ta'limotini pozitiv, ya'ni ilmiy asoslangan falsafa deb baholaydi.

Dastlab pozitiv bilim tabiiy fanlar sohasida qo'llanilgan bo'lib, keyinchalik sotsiologiyada qo'llanildi. "**Pozitiv usul**" bu ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usullari yordamida to'plangan empirik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishdan iboratdir. Jamiyat hayotini o'rganishga qaratilgan bunday usul yangi ijtimoiy munosabatlar inikosi bo'lgan kapitalizmni o'rganishga qaratilgan edi. Natijada esa jamiyat hayotini tobora sistemali, mukammal o'rganishga qaratilgan sotsiologiya fan sifatida shakllandi va yanada rivojlana boshladi.

O. Kont sotsiologiyani ikki qismga ajratadi: sotsial statika va sotsial dinamika. Sotsial statikada ijtimoiy institutlar oila, davlat, din kabilar tadqiq etildi. Sotsial dinamikada O. Kont ijtimoiy progress rivojlanishini nazarda tutib, u jamiyatning ma'naviy va aqliy rivoji insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, deb qaraydi. Bu tamoyil hozirgi zamon sotsiologiyasi tarkibida ham o'z mazmunini, ilmiy qimmatini saqlab qolgan.

Ma'lumki, O.Kont falsafasi "pozitivizm" nomi bilan mashhur. U falsafani fan va metodologiya sifatida rad etadi. Uningcha, "pozitiv" falsafaning asosiy maqsadi xususiy fanlar umumiy xulosalarini umumlashtirish vazifasidan iborat bo'lgan. Bu printsipni sotsiologiyaga ham tadbiiq qilgan. Uning sotsiologiyasi empirik ma'lumotlarni to'plash va kuzatishdan iborat bo'lgan. Empirik ma'lumotlarni falsafiy jihatdan umumlashtirish esa rad etilgan. Ilmiy nazariyasiz va ilmiy metodologiyasiz jamiyat hayoti to'g'risidagi empirik ma'lumotlarni ilmiy jihatdan umumlashtirib bo'lmaydi. Ular nari borganda, subyektiv xulosalardan iborat bo'lib qolaveradi.

Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Farobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida. Jahon sotsiologiya fanining namoyandalaridan biri Robert King Merton (1910 yilda tug'ilgan) shunday degan edi: «Sotsiologiya – bu o'ta qadimiy predmetni o'rganish to'g'risidagi juda yosh fan». Bundanda aniq ta'rifni topolmaysiz. Biz hozir jamiyat deb ataydigan ta'rifga insonlar qadim zamonlardayoq qiziqishgan. Jamiyat tuzilishi haqidagi dastlabki va ancha to'liq tasavvurni antik davr faylasuflari berishgan.

Ijtimoiy hayot rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasuflari Aflotun (eramizdan avvalgi 427-347 yil) ning "Qonunlar", "Davlat to'g'risida", Arastu (eramizdan avvalgi 384-322 yil) ning "Siyosat to'g'risida", "Metafizika", "Etika", Protagorning (eramizdan avvalgi 490-420 yil) "Haqiqat" kabi asarlarida yoritilgan.

Antik davrdagi birinchi sotsiologlarni ijtimoiy faylasuflar deyishadi. Ularning orasida ikkita buyuk mutafakkirni ko'rsatib o'tish mumkin – Aflotun (eramizgacha 427–347 y.) va Arastu (eramizgacha 384–322 y.). Ular hozirgi sotsiologlar kabi an'analarni, urf-odatlarini, insonlarning fe'l-atvorlari va o'zaro munosabatlarini o'rganishgan, faktlarni umumlashtirishgan, jamiyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan tugaydigan konseptsiyalarni tuzishgan. Aflotunning "Davlat" asari "Umumiy sotsiologiya" bo'yicha tarixdagi birinchi risola hisoblanadi. Buyuk mutafakkir ijtimoiy stratifikatsiyaning dunyodagi birinchi nazariyasi asoslarini ishlab chiqadi, unga ko'ra har qanday jamiyat uchta sinfga ajratilgan: davlatni boshqaruvchi donishmandlardan iborat oliy sinf; uni g'alayon va tartibsizliklardan saqlovchi jangchilardan iborat o'rta sinf; hunarmandlar va dehqonlarni o'z ichiga oluvchi past sinf. Antik davrning yana bir qomusiy donishmandi Arastu esa stratifikatsiya nazariyasining o'z variantini taklif qildi. Unga ko'ra o'rta sinf tartibning tayanchi sifatida ko'riladi. Undan tashqari yana ikkita sinf mavjud bo'lgan – boy plutokratiya va mulkdan mahrum proletariat. Arastu o'z davridagi mavjud stratifikatsion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini

qo'llab-quvvatlaydi. Arastu komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o'z davlatiga bo'lgan yuksak vatanparvarligini, o'z ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatni shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiyasi esa har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi. Demak, komillik tizimidagi «davlat-fuqaro-inson» tartiboti Arastuning davlat va jamiyatni mukammallashtirishdan iborat sotsiologik konsepsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtai nazarida turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy shaxslar yoki alohida guruhlar qo'lga topshirib qo'yilmasligi lozim. Arastu davlat va jamiyatning ideal maqsadlari mushtarak, umumiy bo'lganligi sababli ham mazmuniy asosi bir xil bo'lgan tarbiyaviy tizim ishga tushmog'i zarur, deb hisoblaydi. Xullas, Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo'lmish grek sotsiologiya maktabiga mantiqiy yakun yasagan. Uning sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimning sotsiologiya maktabi namoyondalari (Sitseron, Lukretsiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy) ga hayotbaxsh ilhom bag'ishladi, so'ngra esa o'rta asrlar sharqining buyuk mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faqat ikki ming yildan keyingina Yevropa ilm arboblari jahonga jamiyat to'g'risidagi misli ko'rilmagan asarlarni in'om etdi. Bu avvalo, sotsiologiyaning ilmiy bosqichiga bevosita zamin yaratgan N.Makiavelli, J.Lokk va T.Gobbs sa'y-harakatlari tufayli yuz berdi. Sotsiologiyani fan sifatida tasavvur etish uchun eng avvalo uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda Moturidiya maktabining asoschisi **Abu Mansur al- Moturidiy** asarlari muhim o'rin tutadi. Uning asarlarini nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr hududi hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir. Inson shaxsi va mavqei masalasi uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi al-Moturidiyning murosaviy muvozanat konsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisigina emas, balki Movarounnahrda real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb, baholash maqsadga muvofiqdir.

Al-Moturidiy jabariylarning, insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga yozib qo'yilgan, shu boisdan u o'zi qilayotgan ishlarga mas'ul emas, degan nuqtai nazarini ham qadariylarning, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarini ham asosli tanqid qilib, inson yaxshi va yomon amallarni o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. Shu asoslarda Al- Moturidiy Movarounnahr jamoatchilik fikrining ma'naviy asoslari kuchli insoniy mazmun bilan boyitilishiga katta hissa qo'shdi.

Markaziy Osiyoning mutfakkirlari bo'lmish **Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Haldun, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo** kabi ulug'

allomalar ham o'z davri ijtimoiy hayotning turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o'zlarinig ijtimoiy qarashlarini asarlarida yozib qoldirganlar.

Movaraunnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rganish ulug' mutafakkir Al-Farobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insonlik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va xodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mas'ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab beradi. Farobiy olamni anglashda vorisiylik omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, inson barcha haqiqatlarni o'zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o'zidan oldinga ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-xulosalarni boricha shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi, ilm-ma'rifat bobida etuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Farobiy jamiyatning boobro' shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Farobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urg'u beradi. «Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng yaxshi bilimlardur»¹.

Abu Nasr Farobiy o'zining “Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob”, “Siyosat al – madaniya” kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon qilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan.

Davlat va jamiyat masalalarida davlatni ijtimoiy tizimni boshqaruvchi tashkilot deb, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning xarakteriga, fazilatlariga bog'liq deb bilgan. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb - hunarda ozod, hammaga baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi ozod bo'ladilar” - kabi fikrlari Farobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining “Qadimgi xalqlardan qolgan vodgorliklar”, “Minerologiya”, “Hindiston” asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan.

“Minerologiya” asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

Beruniy o'z davrining etnosotsiologi ham edi. “Qadimgi xalqlardan qolgan vodgorliklar” asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian molikiylar

¹ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, 1993. – b. 167.

va xristian nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Arab donishmandi Ibn Xaldun (1332–1406), kishilik jamiyatining tuzilishini tuzgan holda, odamlarning yirik ijtimoiy guruhlari xatti-harakatini sinchiklab o'rgangan. Ibn Xaldun (Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd (1332-1406)) arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining «Sotsiologiya» (arab.ilm al-ijtimo') faniga oid dadil fikrlarini o'rtaga tashlagan va Sharqda haqli ravishda shu fan asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning «Kitob ul-Ibar» (1370) ning muqaddima qismida uning tarixiy sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. Insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatlari va taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratgan. Sharqning yetuk sotsiologi bo'lgan Ibn Xaldun «Muqaddima» (1381) asarining «Kirish» qismidagi dastlabki bo'limni «Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida» deb nomlangan.

Kishilar mavjud ekan, ularning ehtiyoj va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlari va shaxslar o'rtasida kelishmovchilik, qarama-qarashliklar sodir bo'ladi. Bu esa tartib o'rnatish va tashkil qilish ishlarini o'rtaga qo'yadiki, buni «hokimiyat» amalga oshiradi. Bu g'oya ham Ibn Xaldun qarashlarining muhim xulosalaridandir. Ibn Xaldun mulkni va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi kuch esa davlatdir, deb yozadi. Noroziliklarning bosh sababchisi hukmron sinf vakillarining adolatsizlik va zo'ravonlikka asoslangan siyosati natijasidir. Uning nazarida shoh 2 toifaga: adolatli va adolatsiz shohga bo'linadi. Yaxshi hukmdor shunday hukmdorki, uning siyosati kuchini xalqi zo'r-bazo'r sezadi va u o'z fuqarolari bilan yumshoq, adolatli muomalada bo'ladi. Chunki o'z siyosatini adolat asosiga qurgan shohning fuqarolari kuchli va erkin bo'ladi, buning oqibatida ular qudratli yaratuvchi kuchga aylanadilar. Shu bois mutafakkir shohlarga maslahat berib, xalq erkinligini haddan ortiq bo'g'maslikka va erkinlik berishga chaqiradi: «Agar tarbiya kuch ishlatish, qo'rqitish yo'li bilan bo'lar ekan, u xoh o'quvchi, xoh qul, xoh xizmatkor bo'lsin, ularga qo'rqinch tahdid qilib turadi, natijada fuqaro ruhining o'sishiga xalaqit beradi, harakatchanlikni sindiradi va uning o'rniga yalqovlik, aldash, yolg'onchilikni kuchaytiradi. Bu sifatlar aynan shu zo'ravonlik ta'sirida sodir bo'ladi. Ular qalbi befarqlik bilan to'ladi, yaxshi va fazilatli sifatlar o'rnini ahmoqona, yomon sifatlarini qabul qilib, pastlarning eng pastiga aylanadi».

Alisher Navoiyning «Mahbub ul - qulub» asarida bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi. Alisher Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo'linganligi umuman olganda ijobiy xodisa ekanligi, bu tasniflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e'tiborga sazovor sotsiologik qarashni asoslab beradi. Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o'rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo'l ochadi.

«Shu jihatdan, - deb yozadi Alisher Navoiy, - hamsuhbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ularda har toifani xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay»².

Qadim zamonlardan buyon jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar Sharq va G'arb mutafakkirlari umumfalsafiy g'oyalarining asosiy bo'limi sifatida qaralgan. Jamiyat rivoji, siyosat, ahloq, fan, din va san'at muammolari to'g'risidagi ilmiy qarashlar Qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunon faylasuflari, o'rta Osiyo va Yevropa mutafakkirlari tomonidan aytib o'tilgan.

XVII–XVIII asrlarda sotsiologiya fanining shakllanishida hal qiluvchi rolni o'ynagan «jamiyat», «madaniyat», «sivilizatsiya», «sinflar», «struktura», «funktsiya» va boshqa atamalar ilk bor paydo bo'ladi.

Zahriddin Muhammad Bobur ham “Boburnoma” asarida o'z davri ijtimoiy hayoti voqeligini, inson shaxsi xususiyatlarini, yaxshi va yomon tomonlarini, Andijondan – Hindistonga qadar bo'lgan ulkan hududida yashagan xalqlarning ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy tadqiqotlari asosida o'rgangan va yozib qoldirgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk mutafakkirlar yashagan davrda sotsiologiya hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi. Ularning ijtimoiy hayot jarayonlari to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari natijalari esa ijtimoiy – falsafiy qarashlar tarzida namoyon bo'lgan.

G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning obykti va predmeti muammosi. XVIII–XIX asrlardagi ko'pgina Yevropalik mutafakkirlar, jumladan, Volter, Didro, Kant, Gegel, Gobbs, rasmiy tarzdagi sotsiologiya fani paydo bo'lishidan ancha oldin insonlarning fe'l-atvori, ijtimoiy ahloq va an'analari, xalqlarning xarakteri, ijtimoiy tipajlarning xulq-atvori to'g'risida yozishgan.

«Sotsiologiya» atamasi faqat XIX asr boshida – 1838 va 1840 yillar oralig'ida paydo bo'ldi. Uni frantsuz olimi Ogyust Kont (1798–1857) yaratdi. Birinchidan, uni eng kuchli va samarali falsafiy yo'nalishlardan biri, ya'ni pozitivizmning asoschisi sanashadi. Ikkinchidan, u qudratli empirik fan – sotsiologiyaning otasi hisoblanadi. O.Kont unga nom berdi, uning predmeti va metodlarini belgiladi. XIX asrda jamiyat to'g'risidagi tajribali, empirik fanning vujudga kelishi tasodif emas, balki muayyan gnoseologik va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga ega edi. O.Kont yangi fanni yaratar ekan, taxminan quyidagicha fikr yuritgan: «jamiyatni uning turli-tuman namoyon bo'lish jihatlarida anglash uchun falsafaning o'zi etarli emas. Jamiyatni boshqa masalalar bilan bir qatorda emas, balki maxsus tarzda faqat unga e'tibor bergan holda o'rganadigan maxsus fan kerak. Jamiyat to'g'risidagi yangi fan mustaqil bilim sifatida shakllanishi uchun u bilishning falsafiy metodini rad etishi va o'zining metodini o'ylab topishi kerak. Ammo hozircha uning o'z metodlari yo'q ekan, sotsiologiya tabiatshunoslikdan kuzatish, eksperiment va solishtirma tahlil kabi usullarni o'zlashtirishi lozim». Fanga sotsiologiya nomini

² Alisher Navoiy. Mahbub ul - qulub. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - B.3.

bergan O.Kont o'z ijodida taraqqiyot, siyosiy va iqtisodiy erkinlik ideallariga tayangan holda, u fan va ma'rifat yordamida barcha ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligiga umid qiladi. Nosog'lom jamiyatni qanday davolash mumkin, degan savolga Kont shunday javob beradi: «tabiatshunoslik fani qanday bo'lsa, jamiyat haqida ham xuddi shunday aniq va obyektiv fanni yaratish kerak». Sotsiologik g'oya jadal rivojlanayotgan Yevropa jamiyatidagi inqirozga javob bo'ldi. Yangi tafakkurning maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ochiq-oydin qilishi mumkin bo'lgan intellektual vositalarni rivojlantirishdan iborat edi.

O.Kontning ko'pgina g'oyalari, avvalo tabiat va jamiyat haqidagi fanlarning ijobiy ko'rsatmalaridan sotsiologiyada foydalanish, shuningdek yaxlit sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini qabul qilib uni rivojlantirgan mutafakkirlardan biri *Gerbert Spenserdir*. (1820-1903).

G.Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid maktabning asoschisi hisoblanadi. U o'zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyutsiya tushunchasini "Ilmiy, siyosiy va falsafiy tajribalar" asarida atroflicha bayon etgan.

G.Spenser jamiyatni tabiiy, eng avvalo biologik qonunlar asosida rivojlanuvi organizm sifatida qaragan. U jamiyatni jonli biologik organizmga o'xshatadi. Ushbu fikrni asoslash maqsadida u quyidagi dalillarni keltiradi:

1. Jonli organizm sifatida har qanday jamiyat ham o'sish va rivojlanish jarayonida o'z massasida ortib boradi;
2. U va boshqalari murakkablashadi;
3. Uning qismlarining tobora bir-biriga bog'liqligi kuchayib boradi;
4. Uni tashkil etgan birliklar goho paydo bo'lib va yo'q bo'lib turishiga qaramay, bir butun holda yashashni davom ettiradi.

O.Kontning vatandoshi Emil Dyurkgeymni amaliy sotsiologiyaning kashfiyotchisi deyishadi. U hozirgacha qo'llanib kelinayotgan funksional tahlil metodologiyasini yaratgan, o'z joniga qasd qilish muammosini chuqur tahlil qilgan. Uning bu ishlari bugungi kunda ham sotsiologik tadqiqot qanday bo'lishi kerakligiga mukammal misol bo'lib xizmat qilmoqda. *Emil Dyurkgeym* (1858–1917) O.Kontning pozitivizm metodologiyasini chuqurlashtirdi, ko'p hollarda esa uni qayta yo'naltirdi. Dyurkgeym ijtimoiy faktlarga tayanishni va ularning statistik o'rganishni taklif qiladi: u bir ijtimoiy faktlarni (o'z joniga qasd qilish) boshqa ijtimoiy faktlar (integratsiya) yordamida tushuntiradi. Dyurkgeym zamonaviy sotsiologiyaning yangi metodologiyasini beradi. Uning metodologik pozitsiyasiga ikkita xususiyat xos: **naturalizm** – jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga o'xshashligi asosida tushunish hamda **sotsiologizm** – ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligi va avtonomligini, uning individlardan ustunligini tasdiqlash.

Dyurkgeym ayni paytda ham o'zining dolzarblik qiymatini yo'qotmagan anomiya nazariyasi asosini yaratgan. Uning ijtimoiy mehnat taqsimoti, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati, kollektiv ong va qadriyatlar, din evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti jahon sotsiologiyasining oltin fondiga kirgan.

Nafaqat Fransiya, balki Germaniya ham jahonni buyuk sotsiologlari – Maks Veber, Georg Zimmel, Ferdinand Tennis bilan lol qoldirgan. Masalan, bugungi kunda Veberning 30 dan ziyod jilddan iborat asarlar to'plami nashr etilgan. Karl Marks (1818–1881) ijtimoiy nizo nazariyasi, jamiyat tuzilmasi va rivoji haqidagi

ta'limot, ijtimoiy sinflar konsepsiyasining asoschisi hisoblanadi. U umuman ijtimoiy faylasuflar orasidagi eng yirik shaxsdir. K.Marks bilan bir qatorda nemis mutafakkiri Maks Veberni (1864–1920) ham ko'rsatib o'tish zarur. Uni ikkilanmasdan sotsiologiyani Leonardo da Vinchisi deyish mumkin. Uning asosiy nazariyalari bugun sotsiologiya fanining poydevorini tashkil etadi: ijtimoiy harakat va motivatsiya, mehnatning ijtimoiy taqsimoti, begonalashuv, kasbga moyillik haqidagi nazariyalar. U din sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya va mehnat sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi asoslarini, byurokratiya nazariyasini, ijtimoiy stratifikatsiya va statusli guruhlar konsepsiyasini, siyosatshunoslik va hokimiyat instituti asoslarini, jamiyatning ijtimoiy tarixi va ratsionalizatsiya haqidagi ta'limotni, kapitalizm evolyutsiyasi va mulkchilik instituti to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. M.Veberning yutuqlari shu qadar ulkanki, ularni sanab tugatib bo'lmaydi. Ideal tiplarning kiritilishi uning metodologiya sohasidagi eng asosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda M.Veber sotsiologiyasi haqiqiy uyg'onish davrini boshidan kechirmoqda. Uning falsafiy sotsiologik qarashlarining ko'p tomonlari yangidan qayta anglanmoqda.

M.Veber hamda uning hamkasblari F.Tennis (1855–1936) va G.Zimmelning (1858–1918) sharofati bilan nemis sotsiologiya maktabi Birinchi jahon urushiga qadar jahon sotsiologiyasida ustunlik qildi. Angliyada jahon sotsiologiyasi faniga ijtimoiy evolyutsiya haqidagi nazariyani yaratgan va kishilik jamiyatiga tirik organizm sifatida qaragan Gerbert Spenser (1820–1903) ulkan hissa qo'shgan. F.Tennis o'zining «Jamo'a va jamiyat» (1887) deb nomlanuvchi bosh asarida keyinchalik klassik tipologiyaga aylangan ijtimoiylik tipologiyasini, ya'ni bevosita shaxsiy va qarindoshchilik munosabatlari hukmron bo'lgan jamoa va formal institutlar ustuvor bo'lgan jamiyatni taklif qiladi.

Birinchi bosqichda (XIX asr oxiri – XX asr boshi) uchta mamlakat: Fransiya, Germaniya, Angliya jahon sotsiologiya fanining markazi hisoblangan. Albatta, boshqa mamlakatlarda ham milliy sotsiologiyani rivoji uchun ko'p ish qilgan ajoyib mutafakkirlar bo'lgan. Rossiyada ular qatoriga N.Kareev, N.Mixaylovskiy, M.Kovalevskiy, V.Xvostovlarni qo'shish mumkin. Biroq ular jahon sotsiologiyasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmadilar. Pitirim Sorokin (1889–1968) bundan mustasno. Uni sotsiologik muammoni qamrashida universalligi, jahon sotsiologiyasiga qo'shgan nazariy va metodologik ahamiyati jihatidan M.Veber bilan tenglashtirish mumkin. Rossiyada tug'ilib, AQSHda vafot etgan aynan shu mutafakkir sotsiologiyani dong'ini yoydi.

XX asrning 20-yillaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan keyingi bosqichda jahon sotsiologiyasi markazi AQSHga ko'chadi va bu erda sotsiologiya faniga davlatdan ancha ko'mak va ko'pchilik universitetlarning tezda yordami tegadi. Doktorlik darajasini beruvchi dunyodagi birinchi sotsiologiya fakulteti 1892 yili Chikago universitetida paydo bo'ladi. 1910 yilga kelib, Amerika universitetlari va kollejlarning aksariyati talabgorlarga sotsiologiya kurslarini taklif qila boshlaydi.

Sotsiologiya tabiatiga aynan yangicha nazari tufayli Amerika tez orada ilmiy sotsiologiyani yaratish borasida Yevropadan o'zib ketadi. Ammo sotsiologlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, Amerika dunyoga faqat bitta haqiqiy milliy oqimni –

simvolik interaksionizm oqimini va faqat bitta buyuk sotsiologi - Tolkott Parsonsni (1902–1979) bera oldi. Albert Eynshteyn fizikada amalga oshirishga intilgan nazariyasini Parsons sotsiologiyada ham xuddi shunday amalga oshirishga, ya'ni jamiyatning barcha darajalarini va ijtimoiy materiya harakatining barcha shakllarini tushuntirib bera oladigan keng qamrovli sotsiologik nazariyani yaratishga urindi. U kishilik voqeligining xilma-xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi mavhum tushunchalarning ulkan deduktiv tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. AQSH mana shu xususiy sotsiologik nazariyalar borasida ancha muvaffaqiyat qozondi. Amerika dunyoga buyuk olimlarning eng ko'p sonli guruhini taqdim etdi: E.Shilz, P.Lazarsfeld, R.Merton, P.Blau, Ch.Kuli, J.Mid, R.Park, I.Gofman, J.Aleksander, D.Bell, T.Veblen, A.Gouldner, R.Mills, D.Rismen, U.Samner, A.Smoll, A.Toffler, J.Xomans. Ular zamonaviy sotsiologiyaning ilmiy mazmunini belgilab berishdi.

Agar Yevropada sotsiologik g'oya falsafa bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan bo'lsa, Amerika sotsiologlari orasida sotsial psixologiya keng tarqaldi. Ikkala madaniyat vakillari ham jamiyat evolyutsiyasi va faoliyatini tushuntirishga harakat qilishdi va buni turlicha usulda bajarishdi: Yevropaliklar ko'proq global tarixiy sxemalarga suyanishsa, amerikaliklar konkret modellar va amaliy ishlanmalarga tayanishdi.

Amerikaliklar falsafiy substantsiya o'rniga xulq-atvor va harakatga urg'u berishdi. Ularni idrok ichida yashiringan va aniq o'lchab bo'lmaydigan narsa qiziqtirmasdi, aksincha sirtida, ya'ni ochiq xulq-atvorda namoyon bo'ladigan narsa o'ziga tortardi. Shu tarzda XX asrning birinchi yarmida barcha ijtimoiy fanlarni (iqtisodiyot, ruhshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik) o'ziga bo'ysundirgan bixeviorizm (ingliz tilidan «behavior» – xulq-atvor) vujudga keladi. Endi ularga xulq-atvorga asoslangan, yoki bixevioral fanlar yorlig'i birlashtiriladi. Shu nom bilan, to'g'rirog'i xulq-atvorga asoslangan (XX asr boshida Yevropada bo'lganidek falsafaga asoslanmagan) sotsiologiya hozirgi kunlargacha etib keldi.

Sotsiologiyaning turli yo'nalishlarida fanning obykti va predmeti muammosini echish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar. Sotsiologiya fani predmeti tadqiqot o'tkazish faoliyati natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, sotsiologiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari davomida uning predmeti to'g'risidagi tushuncha ham o'zgarib borgan.

Sotsiologiya predmetiga Vesbsterov lug'atida «...sotsiologiya insonlarning sotsial guruhlarining vakili sifatida, birgalikdagi hayotining tarixi, rivojlanishi, tashkil topishi va muammolarini o'rganuvchi fan», deb berilgan. Turli sotsiologik ta'limot va yo'nalishlar vakillari sotsiologiya fani predmeti to'g'risida turlicha fikrlar bildirganlar. Jumladan, sotsiologiya fani asoschisi O. Kont sotsiologiyani jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan deb hisoblagan. Amerikalik sotsiolog Dj. Smelzer o'zining "Sotsiologiya" darsligida sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi fan ekanligini ta'kidlaydi. E. Dyurkeym esa sotsiologiya predmetini ijtimoiy ma'lumotlardan iborat deb bilgan. U sotsiologiya buyuk falsafiy ta'limotlardan yuzaga kelganligini e'tirof etadi va doimo qandaydir falsafiy yondashuvlarga suyananligini ta'kidlaydi. Sotsiologiya – deb yozadi Dyurkgeym – allaqachon mustaqil fan bo'lib shakllangan, o'z predmetiga ega va shu tufayli o'z ishi bilan shug'ullanishi

kerak. Sotsiologiya, sotsial dalillar haqidagi fan bo'lib, uning ostida siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy va boshqa g'oyalari, qoida va qadriyatlar yotadi, deydi u. Dyurkgeym asarlari sotsiologiyani mustaqil fan sifatida qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Yana Nemis sotsiologi G. Zimmelning ta'rificha, sotsiologiya - xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir. Ya'na bir nemis sotsiologi M. Veberning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy xulq to'g'risidagi fandır. Ijtimoiy xulqni M. Veber insoniy munosabatlardan iborat deb bilgan. Ijtimoiy xulq esa o'z navbatida ijtimoiy mohiyatga egadir.

Mashhur rus sotsiologi P. A. Sorokinning sotsiologiya fani predmeti to'g'risidagi fikri umumiy ma'noga ega bo'lib, u "jamiyat yoki ijtimoiy hodisalardan iborat", deb hisoblagan. Jamiyat esa ruhiy aloqadorlikka ega bo'lgan birliklar majmuidan iborat. Sotsiologiya xuddi shunday o'zaro aloqadorliklardan iborat jamiyat hayotini o'rganadi.

Yana bir rus sotsiologi V. A. Yadovning fikricha, "sotsiologiya - jamiyatning bir butun organizm ekanligi, ijtimoiy munosabatlarning bir butunligi to'g'risidagi fandır". Mashhur sotsiolog G. B. Osipov o'zining "Sotsiologiya" o'quv qo'llanmasida sotsiologiya - ijtimoiy tizimlarning funktsionallashuvi va rivojlanishi to'g'risidagi, umumiy va o'ziga xos ijtimoiy qonun va qonuniyatlari, bu qonun va qonuniyatlarning shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatidagi yuzaga kelish va amal qilish shakllari to'g'risidagi fan deb, - ta'riflagan.

Yuqorida keltirilgan fanlardan xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi, funktsionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Shu bilan birga jamiyatning rivojlanib borishi bilan sotsiologiyani mazmuni ham yanada boyib, rivojlanib boradi, uning o'rganish obyekti qamrovi kengayadi, tadqiqot usullari ham yanada mukammallashib boradi.

Sotsiologiyani boshqa fanlar bilan munosabati. Har bir alohida olingan katta-kichik ijtimoiy tizim tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyatning boshqa tizimlari bilan dialektik aloqada, munosabatda bo'ladi. Shuning uchun, ayrim olingan ijtimoiy tizim tadqiqi jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatiga o'zaro mos tushgandagina to'g'ri va obyektiv xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy voqelik zanjiridagi biron-bir xalqa tadqiqotchining e'tiboridan chetda qolishi mumkin emas.

Ijtimoiy hayot masalalarning o'rganish doirasi tobora kengayib borayotganligi sababli sotsiologiya fani ham tobora kengayib bormoqda. Masalan, hozirgi zamon sotsiologiyasi asosida, "*fanlar sotsiologiyasi*", "*madaniyat sotsiologiyasi*", "*boshqaruv sotsiologiyasi*", "*mikro-sotsiologiya*" kabi sohalar shakllanadi. Ikkinchi tomondan, sotsiologiyani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan dialektik aloqadorligi kuchayib bormoqda.

Sotsiologiyani *iqtisodiyot, falsafa, huquq, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya* kabi fanlar bilan aloqadorligi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yanada ortmoqda. Keyingi yillarda uning texnika fanlari bilan o'ziga

xos aloqadorligi kuchaymoqda. Sotsiologiyada borgan sari matematika fani va usulning ahamiyati ortmoqda.

Iqtisod fanlari bilan sotsiologiyaning dialektik aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol jarayonlarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabat shakllanishi jarayonida uning ahamiyati juda kattadir. Iqtisodiyot sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi kabi sotsiologiyaning maxsus sohalari iqtisodiyotga bog'liq masalalarni o'rganadi va unga bog'liq bo'lgan barcha muammoni hal etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sotsiologiya jamiyatda va uning iqtisodiy hayotida o'ta muhim vazifalarni o'taydi. Sotsiologiya iqtisod fanlari bilan, ularning o'rganish obyekti bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g'oyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiya sohalari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilsa, o'z navbatida, shu sohalarda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari iqtisodiyot muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya **falsafa** fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Sotsial falsafa qonun va kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va konseptsiyalarni o'z ichiga oladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar uchun esa nazariy va metodologik asos bo'ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi o'z navbatida mazkur davr ijtimoiy fikrini shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlar, eksperimentlar yordamida ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning qanchalik to'g'ri, mazkur ijtimoiy davr mazmuniga mos yoki ularning eskirib, ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob bera olmay qolganligini aniqlab berish imkoniyatiga ega. Ammo, sotsiologiya har qanday siyosiy va ideologik tizimdan holi bo'lsagina, uning yuqorida ko'rsatilgan ilmiy qimmatini saqlanadi.

Huquqiy davlatni shakllantirib, uni yanada rivojlantirishda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, huquqiy munosabatlarni tartibga solish katta ahamiyatga ega. Huquqiy tashkilotlarga faoliyatini yangi davr talablariga mos ravishda tashkil etish, ularning ijtimoiy munosabatlar sohasidagi ta'sirini takomillashtirishga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Sir emaski, keyingi vaqtda jinoyatchilik ortdi. Jinoyatga qarshi kurash va uning oldini olish – davlat ahamiyatidagi masala hisoblanadi. Unga qarshi kurash jinoyat sodir etilgandan so'ng emas, balki unga qadar olib borilmog'i lozim. Jinoyatchilikning oldini olish, uning tub mohiyatini, motivi va keltirib chiqarayotgan sabablarning o'rganishda sotsiologik tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Demak, **huquq** fanlarining rivojlanishida ham sotsiologiyaning o'rni kattadir.

Jamiyat rivojlanishi bilan kishilarning estetik ehtiyojlari ham o'zgarib, yanada rivojlanib boradi. Kishilardagi bu ehtiyojni o'rganish va ijobiy sifatlarni shakllantirishda, tarbiyalashda sotsiologik tadqiqotlarning natijalari, xulosa va takliflari o'zining ilmiy qimmatiga ega. Shu jihatdan sotsiologiya fani **nafosat Gvestetika** fani bilan o'zaro bog'liq.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish kishilardagi o'zini ko'zlash, o'z shaxsiy manfaatini jamiyat, millat manfaatidan ustun ko'rishlik hollari kuchaymoqda.

Sotsiologiya va psixologiya, demografiya, genetika, sotsial geografiya. Kishilarda halovatlik, asabiylik ortmoqda. Odamlardagi asabiylikning ortishi xuddi yuqumli virus kabi tez tarqalib, ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Ushbu muammolarni o'rganish va hal etish borishda sotsiologiya bilan **psixologiya** fanlarining hamkorligi muhimdir.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki qadamlari, ayniqsa ta'lim-tarbiya jarayonida juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchi yoshlar dunyoqarashida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Nafaqat o'quvchi – yoshlarda, balki pedagog-o'qituvchilar tarkibida ham jiddiy muammolar kelib chiqmoqda. O'quvchilar ongida ilmdan qaytish, fanga e'tiborsizlik, engil mehnat evaziga yaxshi yashash, ko'p pul topish «instikti» kuchaygan.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkin: milliy **pedagogika** hozirda sotsiologik tadqiqotlarga muhtoj. Bu tadqiqotlarning natijalari qanchalik beshafqat bo'lmasin, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va amaliy tadbirlar ishlab chiqish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir.

Sotsiologiyada jamiyat ijtimoiy tarkibiy tuzilishining *ijtimoiy-demografik* munosabatlari ham muhim o'rin tutadi. Bu munosabatlar, asosan, aholining jinsiy tuzilishi, yoshi, oilaviy va genetik jihatlarini o'z ichiga oladi.

Har qanday davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiga demografik siyosat ham kiradi. Demografik munosabatlarga mamlakat aholisining barcha qatlamlari mansub. Ijtimoiy-demografik tarkibga statistik jihatdan o'rganiladigan aholi o'rtasida tug'ilish, o'lim, nikoh, oilaviy qo'ydi-chiqdilar, shahar va qishloq aholisining migratsiyasi, hududiy migratsiya kabilar kiradi.

Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil, sistemali tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar. Chunonchi, tarixiy ma'lumotlarni, manbalarni to'plash, ularning haqqoniyligini aniqlash, tarixiy shaxslar esdaliklaridan, tarixiy voqealar guvohlarining xotiralaridan keng foydalanilgan. Masalan, At-Termiziy, Imom Al Buxoriy kabi hadisshunoslar, Abu Rayhon Beruniy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Xondamir, Xerman Vamberi kabi buyuk mutafakkir olimlar o'zlarining tarixga oid qimmatli asarlarini yaratishda sotsiologiya usullaridan unumli foydalanganlar.

Tarixiy voqealarga boy bo'lgan bugungi kunimiz ertangi kelajagimiz uchun o'tmish sahifalariga aylanadi. Shunday ekan, hayotimizning keng qamrovli sohalarining ilmiy sotsiologik tadqiqotlari va tahlili natijalari tarix fani uchun xizmat qilishi tabiiy.

Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Asrimizning keyingi bosqichida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatning keskinlashuvi – sotsiologiyaning *tabiatshunoslik* fanlari bilan aloqadorligini kuchaytiradi. Insonning tabiatiga, tabiiy muhitga ta'siri ortib bormoqda. Ekologik, demografik vaziyatning keskinlashuvi sotsiologiya fanini bevosita ushbu muammolarni hal etishga jalb qiladi.

Sotsiologiya fani **statistika** fani bilan ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta shu sohadagi predmetning konkret holatini, real voqelik manzarasini statistik manbalardangina topa oladi. Keng ko'lamdagi konkret

sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar berishi shubhasizdir.

Hozirgi zamon sotsiologiyasini **matematikasiz** tasavvur etib bo'lmaydi. Matematik usullarsiz sotsiologiya mavhum bir qarash bo'lib qoladi. Ayniqsa, uning empirik darajadagi tadqiqot o'tkazishdagi o'rni katta.

Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasi **kibernetik** usullardan, axborot nazariyasi bilan muvaffaqiyatli rivojlantirilgan. Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida sotsiologiya va texnika fanlar aloqadorligi tabiiydir. Chunki, "inson – texnika", "jamiyat-texnika", "maishiy turmush – texnika" kabi tizimlarni ilmiy o'rganish ular zimmasiga yagona vazifani yuklaydi. Inson yaratgan barcha texnika faqat inson va jamiyatning ijobiy taraqqiyotiga xizmat qilsin. Ammo, doimo kutilgan natija bo'lavermaydi. Ularni o'rganishda esa sotsiologiya fanining roli beqiyosdir. Jamiyat hayoti va inson faoliyatining turli jihatlarini o'rganish jarayonida yuqorida nomi tilga olingan fanlar tarkibida ijtimoiylik yo'nalishi mavjud bo'ladi. Shu jihatdan, o'z navbatida ularning sotsiologiya fani rivojlanishidagi ahamiyati kattadir.

Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o'ziga xos o'rni. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanishi, eng avvalo o'sha fanlarga oid ma'lumotlardan u yoki bu tarzda foydalanishi bilan izohlansa, o'z navbatida sotsiologiyaga oid xulosalardan foydalanib boshqa fanlar ham rivojlanadi.

Sotsiologiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy fandir. Jamiyatning rivojlanishi, kishilar o'rtasidagi munosabatlar yangidan - yangi sifatlar bilan boyib borishi, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalarining yanada takomillashib borishi va boshqa ko'pgina faktorlar bugunki kunda sotsiologiyani mavqeini yanada oshirmoqda, ijtimoiy fanlar ichida etakchi o'rin egallashiga imkon bermoqda. O'z navbatida sotsiologiya fani jamiyat taraqqiyotiga amaliy xulosalari bilan ta'sir etadi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham bilish mumkin. Bu mamlakatlarda sotsiologiya fani ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuksak darajada rivojlanib, sotsiologik tadqiqotlar markazlari, mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi alohida e'tibor, ishlab chiqarishdagi sotsiologik xizmat zaruratini yanada oshirdi.

2-MAVZU: Sotsiologiya strukturasi. (2 soat).

Reja:

- 1.Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari.
- 2.Nazariy va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyligi va farqi.
- 3.Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar: makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya.

Fanda struktura tushunchasi va uning ahamiyati: Struktura bu fandagi asosiy elementlar ularning joylashishi, munosabati va tartibidir. Struktura bevosita fanning rivojlanish darajasi va uning elementlariga bog'liqir. Fanning rivojlanib borishi davrida uniig elementlari bir tizimga to'planib, bu sistema orqali esa bilimlarni tashkil qilish vositaligi taminlanadi. Buning natijasida esa nazariy, metodologik, metodik va boshqa elementlar o'rganilayotgan voqelikni (reallikni) yaxlit ko'rinishda aks ettiradilar. Fan bir tizim sifatida, qachonki umumiy asoslar, kategoriya va tushunchalarni ishlab chiqqandagina va bilishning har hil darajalari va shakllari orasida mantiqiy bog'lanish bo'lsagina yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda fanning turli hil rivojlanish yo'lishlari bilimning shakllangan tizimi bilan muvofiqlashadi. Agarda sotsiologiya haqida gapiradigan bo'lsak, u hali yetuk birlashgan ilmiy tizim sifatida shakllangani yo'q va yosh rivojlanayotgan fan sifatida sotsiologiya har-xil ilmiy tizimlariing to'plami sifatida ko'zga tashlanyapti.

Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Sotsiologiyaning strukturasi har xil tahlil qilish mumkin. Ayniqsa, bu strukturani aniqlash nazariy sotsiologiya, metodologiya va empirik tadqiqotni ajratib olishlik bilan ko'pincha yuzaga keladi.

Lekin bu sotsiologiyaning komponentlarini ajratib olish umumiyroq ma'noga ega, natijada esa fanning murakkab va har xil ko'rinishga ega bo'lgan strukturasi mazmuni kashf etilmaydi. Shuning uchun to'laroq va har tomonlama xususiyatga ega bo'lish bilangina sotsiologiyani strukturasi ko'rsatib berish lozim. Sotsiologiya strukturasi **fundamental va amaliy yo'nalishlarni, nazariy va empirik tadqiqotlarni, mahsus va tarmoq sohalarni** ajratib ko'rsatish darkor. Ular bir-birlari bilan juda murakkab o'zaro dialektik aloqadorlar. Ayrim hollarda bir-birlariga qo'shib ketadilar, boshqa holatlarda esa bir-birlarini inkor etadilar. Tadqiqotimiz ilmiy, teran bo'lishligi uchun sotsiologiya strukturasi bu elementlarini alohida tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz.

Sotsiologiya strukturasi elementlarining rivojlanish dinamikasi. Fundamental sotsiologiya boshqa elementlardan o'zining hal qilayotgan muammolarining darajasi, ko'lami va ahamiyati bilan farq qiladi. Fundamental sotsiologiya mohiyatli muammolar, abstraktsiyaning (mavhumlik) oliy darajasi bilan shug'ullanib, sotsial olamning taraqqiyoti va borlig'i uchun zarur bo'lgan umumiy qonun va qonuniyatlari izlash bilan faoliyat ko'rsatadi. Fundamental sotsiologiya ko'plab maktablar va yo'nalishlarga egadirki, ular sotsiologiya fanining asosini ijodiy izlash bilan banddir. Fanning asosini ijodiy ishlashning uchta asosiy aspektini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, ontologik, ya'ni sotsial voqelikni mohiyati masalalarini yanada aniqroq aytadigan bo'lsak

sotsiologiya obyektini, uning faoliyat ko'rsatish shakllarini tahlil qilib o'rganadi. Ma'lumki, sotsial dunyo murakkab ko'pqatlamlik, dinamik va o'zgaruvchanlik xususiyatiga egadir. Ontologiya borliq haqidagi ta'limot sifatida falsafada vujudga keladi va ushbu fanning bosh mavzusi hisoblanadi. Sotsiologiyada esa ontologiya masalalari ikkinchi jahon urushidan keyin, yanada keng ko'lamda esa oxirgi o'n yillikda ko'tarildi. Chunki bu vaqtda «pozitivistik» krizis degan jarayon keng quloq yozgan edi. Bu krizis jarayonining asosiy mohiyati shundan iborat ediki, stsiyentizmga asoslangan sotsiologiya natijalaridan ranjish, ya'ni traditsion ilmiy metodlar kutilgan ilmiy natijalar bermay qo'ydi.

Nafaqat bilishning shakl va metodlarini qayta ko'rib chiqish ehtiyoji paydo bo'ldi va yana sotsiologiyaning obyektini mohiyati, bilishning darajalari va mezonlarini ham qayta ishlash zaruriyati tug'ildi. Ontologik muammo masalalarini sotsiologiyadagi barcha nazariy yo'nalish vakillari o'zlaricha hal qilishga harakat qilganlar.

Ayniqsa, sotsiologik muammoga ekzistentsial va fenomenologik maktablar chuqur e'tibor bilan qaraydilar. Lekin realistik yo'nalish vakillari hammadan ham bu muammoga kengroq e'tibor beradilar. Realizm - bu sog'lom fikrli ontologiyadir, deb ta'kidlaydi ushbu yo'nalish vakillaridan biri U.Autveyt. Sotsial reallik insonlarning mustahkam o'zaro harakati yangilanayotgan strukturaning natijasi sifatida tushuniladigan sinflar, jarayonlar va interpretatsiyadir.

Realistik yo'nalish reallikni har xil darajasi, tabaqasini ajratib tahlil qildiki, bular shunday jabhalardir: real, aktual va empiriklikdir. Bu intilishlar esa metodologik munosabat sifatida juda muhimdir. Reallikning ushbu jabhalari orasidagi o'zaro bog'liqlik ularning sotsial voqelikni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatining tashkil etilishi ushbu yo'nalishning beqiyos xizmatidir.

Fundamental (asosiy) sotsiologiya. Fundamental sotsiologiya nafaqat nazariy asoslarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, binobarin bilishning umumsotsiologik fundamental printsiplarini ham keng ma'noda ishlab chiqadi. Sotsiologik bilishning mohiyati vazifalari, bilimlarning obyektivligi, u yoki bu printsipl va yondoshishlarni qo'llash ham fundamental sotsiologiya muammolari majmuasiga taalluqlidir.

Sotsiologiyaning rivojlanishi davrida o'rganilayotgan muammolar, tadqiqot yo'nalishlari o'zgardi, lekin asosiy, fundamental xarakterga ega bo'lgan fan uchun juda muhim ahamiyatga doir umumiy printsiplar: sotsiologiyaning obyekt va predmeti, sotsial reallikning mohiyati, uning rivojlanish qonunlari, sotsial olamdagi insonning ahamiyati va o'rni, uning ongi va tafakkuri kabilar o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

Fundamental sotsiologiyaning maqsadi - bu sotsial olamning to'liq tasvirini yaratishdir va bu sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlashdir. Ilk bor fundamental nazariyalar tabiiy fanlar taraqqiyotiga tayangan, ayniqsa biologiya va fizikaga. Sotsiologiya fanining asoschilari xuddi shu fanlarning eksperimental va empirik negizga o'xshagan negiz asosida yangi sotsial fanni yaratmoqchi bo'ldilar. XIX asrning ikkinchi yarmidagi yo'nalishlar pozitivizm, naturalizm va psixologizm sotsial hayotning doimiy harakatlanuvchi mexanizmini kashf etish,

sotsiologiyada empirik metodni yaratish uchun o'z kuch-g'ayratlarini birlashtiradilar.

Buning natijasida ular tabiiy fanlarning tushunchalarini, umumilmiy metod va yo'nalishlarini qo'llaydilar. Ammo XX asrning boshlarida sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan ajralib chiqq boshlaydi.

Jamiyat hayotining fundamental muammolarini sotsiologik tahlili. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sotsiologiya o'zining umumnazariy muammolariga qaytishni boshladi, shuningdek, metodologik tadqiqotlarning ahamiyati ko'p osha boshladi. Bu jarayonlar esa sotsiologlarni filosofiyaga qayta murojaat qilishga majbur qildi. Buning natijasida esa ekzestentsial, fenomenologik yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ular esa sotsiologiyaning asosini, yangi metanazariyasini yaratishga harakat qila boshladilar hozirda bu tendentsiya kuchayyapti. Sh.Shtompkaning fikricha sotsiologlar yana eski bo'lmagan topishmoqni: Jamiyat nima o'zini — topish bilan ovoralar.

80-yillarning «Katta nazariyasi»ning yangi to'lqinlarining effekta sifatida falsafa va sotsiologiyaning yangi munosabatlari deb tushunish mumkin. Nafaqat sotsiologiya falsafaning ta'siri ostidadir, balki falsafaning o'zi ham sotsiologiyaning aktiv ta'siri doirasidir.

Fundamental sotsiologiya rivojining ikkinchi muhim tushunchasi bu sotsial jarayonlarning markaziy omili sifatida subyektga murojaat qilish bilan belgilanadi.

Shunday qilib, fundamental sotsiologiya bu metanazariyadir, u fanning strukturasi, mazmuni, kategoriyasi va metodlarini o'rganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. Shuning uchun, fundamental tadqiqotlarning roli beqiyosdir, funktsiyalari esa xilma-xildir. Quyidagi funktsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin: dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik va hokozolar.

Nazariy va amaliy sotsiologiya: ularning umumiyliigi va farqi. Sotsiologik tadqiqot ham nazariy, ham empirik bo'lishi mumkin. Ularni chegaralanishi shartli ravishdadir, chunki har qanday fundamental sotsiologiya nazariydir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan jipslashgan o'zaro aloqalik bilan o'tkaziladi. Lekin hususiyatni ajratish va aniqlash zaruriyatdir. Agarda har qanday fundamental sotsiologiya nazariy hisoblansa, har qanday nazariya fundamental sotsiologiya hisoblanmaydi. Fundamental sotsiologiya distsiplinar muammolarga fanning poydevorining asosini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, o'z navbatida nazariy sotsiologiyaning o'rganish obyekti sifatida ham umumiy, ham xususiy jarayonlar, jamiyat hayotinnng ayrim sohalari va faoliyatini biror bir tomoni bo'lishi mumkin. Nazariy va empirik sotsiologik bilimlarni qabul qilish va jamiyatni tahlil qilish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. «Nazariylashtirishni — deb yozadi taniqli amerikalik sotsiolog Dj. Terner,- shunday vositalarga taalluqli deb xisoblash mumkinki, u orqali fan deb ataladigan tafakkur faoliyati o'zining uchta asosiy maqsadini amalga oshiradi: olamda, shaklanayotgan voqealarni shunday klassifikatsiyalash (tasniflash) va tashkil qilishlikni buning natijasida ularni istiqbolda ko'ra bilishlik; o'tgan voqealarni sabablarini tushuntirish va kelajakda bo'ladigan voqealarni oldindan ko'ra bilish; voqealarni nima uchun va qanday bo'lib o'tishini «tushunishni intuitiv ravishda taklif qilish».

Nazariya—bu kategoriya, tushunchalar, holatlar va printsplarning kontseptual birligi bo'lib, u hodisalarning xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini ochib beradi. Nazariyalarda markaziy o'rinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning tajriba va yutuqlari to'planadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi. Nazariyani yaratish vositasi bu mavhumlashtirishlikdir. Chunki u konkret holatlar va hodisalarni tashkil qilishda chegaralardan sakrab o'tishga yo'l beradi.

Sotsiologiya fani murakkab tarkibiy tuzilishga egadir. Jamiyat hayoti sotsiologiya fani doirasida umumsotsiologik, maxsus sotsiologik va empirik sotsiologik tadqiqotlar asosida o'rganiladi.

Umumsotsiologik nazariyalarda, u yoki bu ijtimoiy hodisalarning kelib chiqishi, amal qilishining chuqur sabablari aniqlanadi va jamiyatni rivojlantiruvchi kuchlar nimalardan iborat ekanligi ko'rsatiladi.

Maxsus sotsiologik nazariyalar esa ijtimoiy hayotning alohida bir sohasini, ijtimoiy guruh yoki ijtimoiy institut muammolarini o'rganadi. Masalan: iqtisod sotsiologiyasi, shahar va qishloq sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, ta'lim sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, yoshlar sotsiologiyasi, bo'sh vaqt sotsiologiyasi va hokazo.

Empirik sotsiologik tadqiqotlar asosan anketalashtirish, og'zaki so'rov, kuzatish va boshqa ko'rinishlarda amalga oshiriladi.

Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalar sotsiologiyaning nazariy qismini, empirik tadqiqotlar esa amaliy qismini tashkil etadi. Ular o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, yagona sotsiologiya fanini tashkil etadi. Shunday qilib, nazariy va amaliy sotsiologiya bir-biridan tadqiqot obyekti yoki metodlari bilan emas, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan farq qiladi.

Sotsiologiyada nazariyani turli darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: umumsotsiologik nazariyalar jamiyatni yaxlit qamrab oladigan muammolarni hal qiladi. Masalan, jamiyatni rivojlanish davrlari va strukturasi, uni faoliyat qonunlari va boshqalar.

Maxsus nazariyalar sotsiologiyaning obyektini muhim tomonlarini o'rganadi. sotsial struktura nazariyasi, o'zaro ta'sir nazariyasi, institutlar nazariyasi va hokozolar maxsus sohalar sifatida shakllandi. Maxsus nazariya yoki o'rta daraja nazariyasi tushunchasini fanga R. Merton joriy etgan.

O'rta daraja nazariyasi sotsial tizimlarning umumiy nazariyasini sotsial hattiharakatning tashkil etilishning umumiylikiga mahsus kuzatilayotgan turlari bilan bog'lashi kerak. Bu nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadi, lekin ular ko'pincha faktlar bilan bog'liqdir va bitirish tadqiqotlar asosida shakllanadi. Shuningdek, xususiy nazariyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin va ular sotsial jarayonlar quyidagi empirik ma'lumotlar bilan ko'proq bog'langan. Bunday nazariyalar deb quyidagilarni aytamiz: referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va boshqalar.

Bu nazariyalar inson fe'l-atvorining mustahkam mexanizmlarini har xil sharoit va holatlarda ko'rinishni aniqlashga harakat qiladi. Nafaqat ahloqli nazariyalar balki faoliyatning turli xil turlari nazariyalari: mehnat munosabatlari, qadriyatli moslashishni shakllantirish, tashkil qilish va boshqarish.

Sotsiologiya tarixida universal nazariyalarni ishlab chiqishga bo'lgan intilishlar. Fanning uzoq davrlar mobaynida rivojlanish bosqichlarida jamiyatning rivojlanish va amal qilish qonuniyatlarini tushuntirishga, uning barcha sohalarda birdek amal qiladigan qonunlarini topish orqali tahlil qilishga qaratilgan universal nazariyalarni ishlab chiqishga harakatlar bo'lgan. Aflotunning “idealistik nazariyasi”, Avgustinning “teologik yondashuvi”, Ibn Xaldunning “tabiiy-tarixiylik printsiplari”, G.Spenserning “organik” va L.Gumplovichning “sotsial-darvinistik” ta’limotlari, Dj.S.Mill, G.Tard, Z.Freyd, G.Lebonlarning “psixologik” yondashuvlari, T.Parsonsnings “sistemali funksionalizmi”, K.Marks va F.Engelsning “tarixiy materializmi” shular jumlasidandir.

Empirik sotsiologiyaning bunyod bo'lishi va uni sotsiologiya nazariyasi rivojiga ta'siri. Empirik tadqiqotlar sotsiologiyaning muhim komponenti hisoblanadi. Dastlabki empirik tadqiqotlar XVII asrdayoq o'tkazilgan edi, lekin faqatgina XX asrning birinchi choragidan AQSHda ommaviy ravishda o'rin oladi.

Empirik tadqiqotlar tajribali bilishni anglatadi. Ular sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar, muammolarni bevosita o'rganishni o'zining asosiy maqsadi deb hisoblaydilar. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning obyekti - bu ijtimoiy hayotning mikrojarayonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlaridir. Empirik tadqiqotlarni sotsiologiya fanning muhim bir bo'lagi sifatida empirizm konsepsiyasi bilan solishtirish mumkin emas, chunki empirizm konsepsiya sifatida nazariy sotsiologik bilimlarni to'liq inkor etadi. Empirizm hissiy idrokni bevositaligini fanning asosi deb hisoblaydi.

Empirik tadqiqotlarning vazifasi sezgilar maydoniga bilimlarni olib chiqishi emas, aksincha bu bilimlarni rivojlantirish, empirik faktlar yig'ish, real jarayonlarni tadqiqot qilishligi bilan muammolarni ko'ndalang qo'yish va hal qilishlikdir. Empirik tadqiqotlar xuddi boshqa fanlar kabi qo'yilayotgan bilishning ma'lum bir vositasi, davri va darajasidir. Empirik sotsiologiyaning obyekti mikrojarayonlar bo'lsa, predmet sifatida takomillashishning turli muammolari, munosabatlar uyg'unlashuvi, faoliyatning sermahsulligi, shaxsning sotsial xususiyatlari turli xil institut va tashkilotlar namoyon bo'lishlari mumkin. Empirik sotsiologiyaning obyekti va predmetining xususiyati maxsus metodologiya va metodni ishlab chiqishni talab qiladi. Buni anglash esa birdan yuz bermadi. Dastlab empirik metodni ishlab chiqish aniqrog'i sotsial jabhalar uchun tabiiy fanlarning metodlarini qayta ishlab chiqish g'oyasi etarlidir degan fikrlar vujudga keldi va bu qayta ishlangan uslublar bilan empirik tadqiqotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish mumkin degan xulosa paydo bo'ldi. Ammo tez orada ma'lum bo'ldiki, empirik tadqiqotlarni o'tkazish chog'ida ko'plab metodologik xarakterga ega bo'lgan muammolar: sotsial faktning mohiyati, nazariy bilishning empirik ma'lumotlar bilan o'zaro munosabatlari, so'rov, kuzatish va o'tkazilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida subyektiv omilning roli kabilar paydo bo'ldi. Sotsiologiyada bilishning subyektiv aspekti masalasi metodologik muammolarning eng markaziyalaridan xisoblanadi. Empirik sotsiologiyaning tadqiqotida empirik metodlar: so'rov, kuzatish, hujjatlarni o'rganish va eksperiment usullari shakllanib joriy etildi. Bu metodlarning har birini xususiyati jarayonning tomonlarini xuddi shu metod bilan tahlil qilishlik bilan belgilanadi. Masalan, eng ommabop metod -

so'rov metodi asosan insonlarning subyektiv dunyosini: qarashlari, munosabat bildirishlar, juda tez rivojlanishlik va o'zgaruvchanliklarga yo'naltirilgandir. Bundan tashqari, sotsiolog tomonidan olingan ma'lumotlarga uning munosabat bildirishi, interpretatsiya (talqin qilishlik), tushunishi bilan tus beriladi. Shu tufayli esa empirik tadqiqotlar metodologiyasi shunday printsip va yo'nalishlar ishlab chiqilishi kerakki, u orqali empirik ma'lumotlarining obyektivligi va haqqoniyligi ta'minlansin, sotsiolog va respondent o'zaro harakatlarining murakkab aspektlari to'liq majmuasini nazarda tutadigan tadqiqot vositalari, mantiqiy masalalari va davri muammolarni hal qilsin.

Shunday qilib, empirik sotsiologiya bu bilimning yirik bir sohasidir. U o'zining tarkibida empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar ta'minoti va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli empirik tadqiqotlar odatda har hil mutaxassislikning tadqiqotchilari: psixologlar, metodologlar, matematiklar jamoasining o'zaro hamkorligi ostida o'tkaziladi.

Empirik tadqiqotlar asosan statistik ma'lumotlarga tayangan holda o'tkaziladi. Rivojlangan mamlakatlarda informatsion ta'minot empirik tadqiqotning muhim manbasi hisoblanadi. Empirik tadqiqotlarning rivojlanishi uchun asosiy muammo - bu texnik vositalar ta'minoti bilan bog'liqdir, chunki tadqiqotlar natijalari EHMda qayta ishlanishi zarur. Shuningdek, so'rov va kuzatish uchun ham ma'lum texnik vositalar talab qilinadiki, shuning uchun empirik tadqiqotlar anchagina qimmat tadbir hisoblanadi.

Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar. Sotsiologiyaning rivojlanish jarayonida sekin-asta maxsus va tarmoq yo'nalishlar vujudga kela boshladilar. Maxsus deb institutsional sotsiologiyani, shaxs sotsiologiyasini, guruh, jamiyat, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasini e'tirof etamiz. Bundan tashqari, yana shakllanib bo'lgan deb taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat, sotsial struktura va boshqalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Institutsional sotsiologiya o'zaro harakatning mustahkam shakllarini tadqiq qiladi. Taraqqiyot sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining manbasi shakli, yo'nalishlari va uning tarkibiy qismlarini o'rganadi. Sotsial harakat nazariyasi esa insonning sotsial faoliyatini sabablari, turlari va ahamiyatini aniqlashga harakat qiladi.

Sotsiologiyadagi maxsus yo'nalishlar sotsial reallikni sotsiologiyaning obykti sifatida qabul qilishda nazariy mushohada qilishlik va bir obyektning asosiy elementlarini aniqlash asosida vujudga keladi. Ayrim nazariyalar sotsiologiyaning asoschilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, ammo tadqiqot yo'nalishi sifatida XX asrning birinchi yarmida, neopozitivizm negizida yaratiladi. Maxsus yo'nalishlar sotsiologiya fanining yuz yillik taraqqiyot yo'lining mahsulidir. Yuqorida qayd etilganidek, maxsus yo'nalishlar neopozitivizm negizida shakllandi, lekin o'zining kelgusi rivojini boshqa nazariy yo'nalishlar tufayli topdi. Maxsus yo'nalishlar fanning markaziy qismini tashkil qiladi, chunki u o'zida tadqiqotning boshqa barcha yo'nalishlar: fundamental, tarmoq, empirik yo'nalishlarni mujassamlashtirgan bo'ladi.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada yana tarmoq yo'nalishlari quyidagilar: shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi,

deviant yoki og'ishma xulq-atvor sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi shakllangan. Keng rivojlangan ushbu yo'nalishlar ijtimoiy hayotni ma'lum bir tomonlari, har xil tizimchalar, tafakkurning ma'lum bir elementini o'rganish natijasida vujudga keldi. Eng rivojlangan yo'nalishlar bu deviant xulq-atvor sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi. Bu yo'nalishlar ko'xnadir, chunki ular XIX asr oxiri, XX asr boshlarida vujudga keldi. Masalan, deviant xulq-atvor sotsiologiyasining asoschisi E.Dyurkgeym hisoblanadi. Ilk bor u deviant xulq-atvorning turi bo'lmish o'z-o'zini o'ldirish muammosini tadqiq qildi, bunda o'z-o'zini o'ldirishni psixologik patologiya emas, balki sotsial hodisa deb e'tirof etdi. Lekin ko'pgina tarmoq yo'nalishlar XX asrning birinchi choragida, Amerikada empirik tadqiqotlar negizida shakllana boshlandi. Bu vaqtda jamoatchilik fikri, sanoat sotsiologiyalarining markazlari vujudga kela boshladi. Tarmoq yo'nalishlar empirik tadqiqotlarning keng qamrovli amaliyotining negizida shakllana boshladi, lekin ular sotsiologiyaning boshqa yo'nalishlari bilan ham bog'liqdir.

Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun bazis bo'lib xizmat qiladi, chunki olingan ma'lumotlar asosida tashkilotlarning, korxonalarining va muassasalarning faoliyati takomillashadi. Tarmoq yo'nalishlari ijtimoiy hayotining turli tomonlarini tadqiq qila borib, xususiy va maxsus nazariyalarni rivojiga yordam beradi va shuningdek, fundamental sotsiologiya rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tarmoq yo'nalishlari asosida ayirboshlash nazariyasi, referent guruhi nazariyasi, etakchilik (lider) nazariyasi va boshqa nazariyalar yaratildi. Tarmoq yo'nalishlar rivoji fundamental sotsiologiya oldiga jamiyatning yaxlit strukturasi turli xil ijtimoiy tizimchalarning roli va o'rni va ularni o'zaro harakatlar turlari, taraqqiyoti asoslarining masalalarini qo'yadi.

Tarmoq sotsiologiyasining maqsadi ayrim ijtimoiy strukturaning: moddiylik, ma'naviylik, mehnatning sermahsulligi nazariyasini yaratish, ishlab chiqarish, oilaviy munosabatlar va boshqalarning faoliyat ko'rsatish va rivojlanish qonunlarining to'liq tasvirini yaratishdan iborat. Tarmoq sotsiologiyasi xuddi sotsiologiyaga o'xshab sotsial buyurtma bilan bog'liqdir, lekin juda ham bevosita emas. Shuning uchun, u nisbatan mustahkamdir. Tarmoq sotsiologiyasining taraqqiyoti jamiyatning turli xil tizimchalarining rivoji, ularning tarixiy sharoitlarining turli davrlaridagi ahamiyatining kuchayishi, yangi strukturalarning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya. Sotsiologlar o'z fani doirasida makro va mikro sotsiologik darajalarini ajratib ko'rsatadilar. Makrosotsiologiya - (yunoncha-katta) - katta ijtimoiy guruhlar va tizimlardagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan fandır. Makrosotsiologiya asosan yirik ijtimoiy tizimlar, hamda uzoq davom etadigan ijtimoiy tarixiy jarayonlarni o'rganish bilan shug'ullanadi (masalan, sinflar, ijtimoiy tartibotlar, shaharlar, dinlar va hokazo).

Mikrosotsiologiya - (yunoncha kichkina) - nisbatan katta bo'lmagan ijtimoiy siyosiy tizimdagi hodisa va jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan yo'nalish. Mikrosotsiologiya darajasida kishilarning o'zaro kundalik shaxslararo munosabatlari tahlil etiladi (masalan, rahbar-xodim, advokat-mulkdor va hokazo).

3-MAVZU: Jamiyat yaxlit tizim sifatida. (2 soat).

Reja:

1. Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi.
2. G'arb sotsiologlarining ijtimoiylik va jamiyat haqidagi qarashlari.
3. Jamiyat va Davlat. Zamonaviy jamiyatning turlicha ta'riflanishi.

Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi. Jamiyat – kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sotsial tizimning muayyan konkret shakli sifatida, uning funktsional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarini o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, o'z vaqtida keyingi oqibati oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotining salbiy oqibatlariga olib keladi.

Sotsiologiya tarixida jamiyat – o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim kishilarning birligiga emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Avvallo biz jamiyatni sotsiologik nuqtai nazardan quyidagicha o'rganamiz:

1. Jamiyat tuzilishi va tarkibi o'rganiladi. (Jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansub).
2. Jamiyatda yashayotgan kishilarning xatti-harakatlari nimalardan iborat. (ularning o'zaro munosabatlaridagi harakterlari).
3. Jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Dunyodagi barcha xodisalar, vaqtlar o'tish bilan o'zgaradi.

Jamiyatni to'liq tushinish uchun faqat uning tuzilishi va rivojlanishini o'rganishgina emas, balki uning o'tmishini, tarixini ham sinchiklab o'rganish, bu jamiyatni qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilmoq jamiyatni to'liq tushinishga imkon yaratadi.

Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Jamiyat elementlari:

- ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusga ega;
- o'zida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni aks ettiradi;
- individual sifatlarga (shaxs ijtimoiy belgisi, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi, shaxs motivlari) shulardandir.

Jamiyat har bir sohasi ishlab chiqarish tarakqiyotida ma'lum bir funktsiyalarni bajaradi:

- iqtisodiy munosabatlar - moddiy ishlab chiqarish funktsiyasi;
- ijtimoiy munosabatlar - ijtimoilashuvini – sotsializatsiya;
- siyosiy munosabatlar - ijtimoiy boshqaruvni (elementar nazorati);
- mafkuraviy munosabatlar - ma'naviy ishlab chiqarish funktsiyasi va boshqalardir.

Sotsiologik nuqtai-nazardan jamiyat – bu kishilarning, birlikda yashash va o'zaro bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo'lib, o'z faoliyatlarida bir-biriga ta'sir ko'satuvchi uyushmasidir.

Jamiyat tashkil topishi uchun eng kamida ikki kishi bo'lishi kerak, bu jamiyatning oddiy ko'rinishi bo'lib, uning murakkab shakllarini shakllantirib boradi, ya'ni oilaning qurilishi bu oddiy jamiyat, bu jamiyatda A.Smit ta'rifi bo'yicha jamiyat a'zosi ham o'zi uchun, ham o'zga bir kishilar uchun ishlaydi, murakkab jamiyatning shakllanishiga o'z hissasini o'z oilasi bilan birga qo'shadi. Bu misollarni yana partiyalar tuzilishida, diniy yoki zamonaviy guruhlarining paydo bo'lishida ko'rib borishimiz mumkin, qaysidir bir dinning rivojlanishi natijasida dindorlar jamiyati oddiylikdan murakkablik sari boradi, partiya tashkilotlari va guruhlar tuzilishida ham aynan shunday sotsietal tizim munosabatlarini ko'rib borishimiz mumkin.

Sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari. Sharq davlatlarida xudo boshqaruvchi obrazida talqin etib kelingan. Masalan: Xitoyda imperatorni ilohiy osmon farzandi sifatida, Misrda Fir'avn xudo iloh tarzida tushunilgan.

Imperator va Fir'avn nafaqat jamiyatga balki tabiatga ham ta'sir eta oluvchi kuch sifatida tushunilgan. Shuning uchun ham ekin ekish chog'ida birinchi urug'ni, bino qurishda birinchi tosh yoki g'ishtni ramziy baraka sifatida podshohlar qo'yishi ramziy ma'no kasb etgan.

Insoniyat tarixida ilk da'fa xudo darajasida emas, alohida etuk shaxslar sifatida Gomer, Muso, Konfutsiy, Zardusht, Budda singari shaxslar tarix sahnasiga chiqqan.

Zardushtiylik dinining asosi bo'lgan "Avesto" eramizdan oldingi VII asrlarga yaratilgan bo'lib, Avesto so'zi "Upasta", ya'ni qonun qoidalar, me'yoriy asoslar ma'nosini anglatadi.

Avestoda odamlarni yovuz kuchlarga, ijtimoiy illatlarga qarshi kurashga chorlagan. Jamiyat kuchlarini birlikka, hamkorlikka va faolikka undagan.

Sharq sotsiologiyasi maktabida Xitoy mutafakkirlarining qarashlari ayniqsa e'tiborga molikdir.

Masalan: Konfutsiy o'z nuqtai nazariga ko'ra jamiyatni mustahkam munosabatlar tizimiga ega bo'lgan oilaga o'xshatadi. U odamlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini besh ko'rinishga ajratadi. 1. Ota va farzand; 2. Er va xotin; 3. Aka-ukalar; 4. Turli oilalar; 5. Hukmdor va fuqarolararo munosabatlarga bo'ladi.

Konfutsiy fikricha inson hayoliga kelgan narsani emas, balki jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan ijtimoiy tabaqa mohiyatidan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishga mas'uldir.

Konfutsiy "Agar meni hukmdorlardan birortasi jamiyat boshqaruvi ishiga jalb etgudek bo'lsa, 12 oyda ishda ijobiy o'zgarish yasagan va uch yil mobaynida boshqaruv ishini tubdan takomillashtirgan bo'lur edim" deb ta'kidlaydi. Afsuski, xitoy hukmdorlari uning xizmatidan foydalanishni lozim topishmagan.

Movaraunnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda Abu Mansur al-Moturidiyning o'rni nihoyatda kattadir.

Moturidiyning jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi ta'linotlarini o'rgangan Ulrix Rudolf inson sha'ni mavqeiga eng muvofiq keluvchi nazariya deb baholagan.

Al – Moturidiy jabariylarning insonning kelajagi uning taqdiriga yozib quyilgan, shuning uchun u o'zi qilayotgan ishlarga mas'ul emas degan nuqtai - nazarini tanqid qiladi.

Al – Moturidiy insondagi ixtiyoriy tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo'naltirmasligi, shaxs davlat oldiga mas'ul bo'lgani kabi, davlat ham shaxs oldida mas'ul bo'lishini nazoriy asoslaydi.

Al – Moturidiy shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda oldida ustuvor kuch emasligi, jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turishini asoslaydi.

Abu Nasr Farobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratgan. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'plab masalalari ya'ni davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya ahloq, ma'rifat, urush va tinchlik muammolari qamrab olingan. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb – hunarda ozod, hammaga baravar bo'ladi, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi ozod bo'ladilar” – kabi fikrlari Farobiyning jamiyat hayotini chuqur tahlil qilganligidan dalolat beradi.

Abu Nasr Farobiy o'zining “Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob”, “Siyosat al - madaniya” kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon qilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan.

Davlat va jamiyat masalalarida davlatni ijtimoiy tizimni boshqaruvchi tashkilot deb, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning xarakteriga, fazilatlariga bog'liq deb bilgan. **“Fozil shaharning birinchi boshlig'i”, deb ta'kidlaydi Farobiy, - shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita hislat fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur:**

1. Hokimning 4 muchaci sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni oson bajarilishi lozim;

2. Nozik farosatli, xotirasi yaxshi, zehqli, fikrini ravshan tushuntira oladigan bilim, ma'rifatni qadrllovchi bo'lishi shart;

3. Taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, o'zini tiya oladigan bo'lishi va haqiqatni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, oliy himmat bo'lishi, oliy ishlarga intilishi zarur;

4. Mol – dunyo ketidan quvmaydigan;

5. Tabiatan adolatparvar, iste'dod va jabr-zulmni yomon ko'ruvchi, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi kabi xislatlar kiradi.

Farobiy insonlar jamoasining kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Yashash uchun bo'lgan ehtiyoj kishilarni jamoa bo'lib birlashishga undaydi. Chunki, kishilarning o'zaro hamkorlikdagi harakatida bunday ehtiyojlar qondirilishi mumkin.

Faobiy inson jamoasini **3 darajaga** ajratib ko'rsatadi.

1. Buyuk jamoa, er yuzasidagi barcha jamoalarning birlashuvi
2. O'rta jamoa, ya'ni ma'lum xalqni o'z ichiga birlashtiruvchi jamoa
3. Kichik jamoa, ya'ni ma'lum shahar jamoasi.

Baxt – saodat, sotsial kamolotga shahar jamoasi orqaligina erishish mumkin.

- geografik muhit rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi, lekin asosiy rol o'ynamaydi.

- xalqning madaniy darajasi, ilm-fan, kasb-hunarlarini egallash kabi omillarga e'tibor qaratadi.

Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida shahar davlatlarini 2 guruhga ajratadi.

1. Fozil, olijanob shaharlar

2. Johil, yomon shaharlar.

- Farobiy fozil shahar – davlatni kishining sog'lom organizmiga o'xshatadi.

Bu erda kishilar bilimli, kasb hunarli, davlatga fozil adolatli shaxs rahbarlik qiladi.

- Johil, yomon shahar o'z navbatida 1 necha turlarga ajratiladi.

- bosqinchilikka asoslangan shahar

- zulm, etkazishga asoslangan shahar

- kayf - safo va boylikni maqsad qilib olgan shahar

- tartibni inkor etuvchi shahar

Abu Rayxon Beruniy (973-1048) olamni anglashda vorisiylik omili katta kuch ekanligini ta'kidlaydi.

Beruniy fanning barcha sohalarida ijod qilgan va 150 ortiq asar yozgan. Akademik Krachkovskiy so'zi bilan aytganda: - "Bu olimning qiziqqan sohalarini sanab chiqishdan, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroq. Afsuski, uning faqat 30 ga yaqin asarigina bizgacha etib kelgan.

Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Mineralogiya", "Hindiston" asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan.

"Mineralogiya" asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarini bayon etgan.

Beruniy o'z davrining etnosotsiologi ham edi. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yaxudiyalar, xristianlar, molikiylar va xristian nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Beruniy ijtimoiy nazariyalar sohasida samarali ijod qilgan. U sotsiologiyada jug'rofiy yo'nalishning tamal toshini quygan olimlardan biri edi.

Beruniy sotsial xodisa va jarayonlarni tushuntirishda kishilarning ehtiyojlari omilining ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. Xususan odamlarning bir birini himoya qilish ehtiyoji, muomala ehtiyoji (undan nutq kelib chiqqan), moddiy va ma'naviy ehtiyojlari (ulardan ilmiy dunyoqarash hamda fanlar kelib chiqqanligi)ni ajratib ko'rsatadi.

Abu Ali Ibn Sino. Ibn Sino falsafiy ilmlarni ikkiga bo'ladi: nazariy va amaliy. Nazariy ilmlarni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan predmet va narsalar to'g'risidagi haqiqiy bilim deb ta'riflaydi. Amaliy ilmlarning obykti esa inson faoliyatidir. 1. Shaxs haqidagi ilm, 2. Insonlarning o'zaro munosabatlari haqidagi ilm. 3. Davlatni ya'ni mamlakatni boshqarish ilmi.

Ibn Sino jamiyatda insonlar o'zaro bir-birlariga yordam berish asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi zarur degan ilg'or g'oyani ilgari surgan. Bunda bu jamiyatning hamma a'zolari qonunlarga itoat etishlari shart. Qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi kerak. Agar podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'olon ko'tarishi to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i kerak.

Sharq mutaqqakirlaridan yana biri XV asrda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojibdir. Uning muqaddas kitobi "Qutadg'u bilig" ya'ni saodatga yo'llovchi bilim deb atalgan asari ham sotsiologik qarashlarga boy asardir. Bu kitob o'zida ahloq odob, ta'lim tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l yo'riqlarini, usullari, chora-tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan. Yusuf Xos Hojib jamiyatning tom ma'nodagi kamoloti faqatgina ta'lim orqali amalga oshadi deb ta'kidlaydi.

G'arb sotsiologiyasi asoschilarining ishlarida ijtimoiylikning ta'riflanishi. Sotsiologiya tarixi jamiyat to'g'risidagi tushunchalar va g'oyalarning tarixiy shakllanganligi evolyutsiyasini ko'rsatib boruvchi fandır.

Jamiyat rivoji, siyosat, ahloq, fan, din va san'at muammolari to'g'risidagi ilmiy bilimlar qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunon faylasuflari O'rta Osiyo va Yevropa mutafakkirlari tomonidan aytib o'tilgan.

Sotsiologiya fanining asoschisi Frantsuz mutafakkiri **Og'ust Kont** bo'lib (1798-1857) u amaldor oilasida tug'ilgan. O. Kont tomonidan 1839 yilda "Pozitivfalsafa kursi" asarining uchinchi tomi nashr etilganligi natijasida u birinchi marotaba jamiyatning ilmiy asosda o'rganish sifatida sotsiologiya terminini qo'lladi va bu sotsiologiya shakllanishi va rivojlanishiga olib keldi.

O.Kont tomonidan ta'riflangan insonning intellektual rivojlanishining uchta izchillik bosqichi: teologiyaga oid, metafizik va pozitivik haqidagi qonuni ushbu savolga javob berish uchun imkon beradi.

Birinchi, teologik bosqichda insonning g'ayritabiiy tushunchasi diniy tasavvurlar asosida qurilgan.

Ikkinchi, metafizik bosqichda inson g'ayritabiiy kuchdan voz kechib, mavhum mohiyat sabab va boshqa falsafiy me'yorlar yordamida voqelikni tushuntirishga harakat qiladi. Ikkinchi bosqichning vazifasi tanqidiy, avvalgi tasavvurlarni vayron etib, u uchinchi mohiyatni ifodalashdan voz kechib, ular ustidan kuzatish bilan kifoyalanadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish hamma fanlarda bir vaqtlarda bo'lmasada izchillik bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon oddiydan murakkabga (yuqoridan quyiga) tamoyili asosida amalga oshiriladi.

O'rganilayotgan obyekt qanchalar oddiy bo'lsa, u erda pozitiv bilimlar shuncha tez qaror topadi. Shuning uchun pozitiv bilimlar avvalo matematikada, fizikada, astronomiyada, ximiyada, so'ng esa biologiyada tarqaladi.

Sotsiologiya esa bu pozitiv bilimlar cho'qisidir. U o'z tadqiqotlarida pozitiv uslubga suyanadi. Pozitiv uslub kuzatishlardan to'plangan tajriba va tadqiqotlarni taqqoslash, ishonchli, tekshirilgan, e'tirozni tug'dirmaydigan empirik ma'lumotlar majmuini nazariy tahlil etishga suyangani. O.Kont tomonidan jamiyat haqidagi fanni shakllantirishda mehnat taqsimoti va koperatsiyalashning zarurligi haqidagi qonunning ochib berilishi navbatdagi muhim yakun bo'ladi. Bu omillar jamiyat

tarixida juda katta ijobiy ahamiyatga ega. Shu tufayli sotsial va kasbkorlik guruhlari yuzaga keladi, jamiyatning xilma-xilligi o'sadi va odamlarning moddiy farovonligi ko'tariladi.

O.Kont o'z qarashlaridan kelib chiqib, sotsiologiyani ikki qismga: sotsial turg'unlik va sotsial jo'shqinlikka bo'ladi.

Sotsial turg'unlik ijtimoiy tuzumlarining amal qilish sharoitlari va qonuniyatlarini o'rgatadi. O.Kont sotsiologiyasining ushbu bo'limida asosiy ijtimoiy institutlar: oila, davlat, din, ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy funksiyalari va ularning birdamlik va hamkorlikni o'rnatishdagi rollari ko'rib chiqiladi. Sotsial jo'shqinlikda O.Kont insonni ma'naviy, aqliy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot nazariyasini rivojlantiradi.

Gerbert Spenser (1820-1903) ingliz olimi. Asarlari "Asosiy manbalar" (1862), "Biologiyaning yaratilishi" (1864-67), "Psixologiya"ning yaratilishi (1870-72), "Sotsiologiyaning yaratilishi" (1876-96), "Sotsiologiya tadqiqot predmeti sifatida", "Etikaning yaratilishi" (1870-73) nomli kitoblari sotsiologiya tarixida katta o'rin egallaydi.

Spenser jamiyatni parchalanishi muammosini – muvozanat uyg'unlik va barqaror qarama-qarshi bo'lgan jarayon deb hisoblab, o'z qarashlarini bayon etgan. Jamiyatning parchalanishi, uning fikricha inqirozga uchrashi orqali yuz beradi. Bu jarayon ichki, shuningdek tashqi sabablar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Jamiyatning parchalanishi siyosiy hokimiyatni, armiya, o'tmishda progressiv bo'lgan tashkilotlarni o'z ichiga olgan davlat institutlarining samarali faoliyat ko'rsatishining kuchsizlanishi natijasida boshlanadi. Jamiyatning parchalanishi jarayonida deb davom etadi, Spenser, integratsiyalashgan harakatlarning kamayishi va markazdan qochuvchi harakatlarning kuchayishi yuz beradi. Tartibsizlik kuchayadi, hukumat o'zining qobiliyatsizligini namoyish etadi. Spenser aytgan ushbu fikrlari dolzarb, mazmunan chuqur va aniq ekanligi nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Spenserning fikr va qarashlari bizning zamondoshlarimizga hozirgi hayotning mazmunini chuqur tushunib olishlariga yordam beradi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda Spenser sinfiy kurash va revolyutsiyani muvozanatdan og'ish yoki ijtimoiy organizmning kasalligi deb e'lon qilgan.

E. Dyurkgeym (1858-1917) Frantsuz. XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi sotsiologik pozitivizmning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri, bu frantsuz sotsiologi Emil Dyurkgeymdir (1858-1917). U bir necha marotaba O.Kont va G.Spenserlar sotsiologik qarashining ahamiyatini ta'kidlagan, ularni tanqidiy anglagan va yanada rivojlantirgan. U bir butun sotsial organizm bo'lgan jamiyat haqidagi nazariyasini ishlab chiqishni rivojlantirgan. U sotsial realizm nazariyasida sotsial voqelik tabiatini sotsial voqealar orqali tushuntirish lozimligi, odamlarning fe'l-atvorini tahlil etishning boshlang'ichi bo'lib, individlar, ijtimoiy guruhlar va tegishli sotsial institutlarning o'zaro munosabati tizimini tashkil etgan jamiyat hisoblanishini yoritadi.

Dyurkgeym "Sotsiologiya uslubi" nomli asarida sotsiologiya sohasidagi jamiyat rivojlanishi nazariyalarini ishlab chiqishga e'tiborini qaratib, sotsial omillarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan tavsilotlarni yaratish ustida shug'ullangan.

Sotsiologiya, - deb yozadi u, sotsial dalillar haqidagi fan bo'lib, uning ostida siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy va boshqa g'oyalar, qoida va qadriyatlar yotadi. Dyurkgeym fikricha, sotsial voqealarning yakuniy sabablari bo'lib, amaliyotda ro'yobga oshiriladigan odamlarning g'oya va madaniy qadriyatlari hisoblanadi. Aynan ana shunda, u har qanday sotsial evolyutsiyaning manbai mavjudligini ko'radi. Bunda so'z jamoaviy ongning namoyon bo'lishi sifatidagi g'oyalar va ma'naviy qadriyatlar ustida boradi.

Ayrim shaxslarda nisbatan sotsial qoidalar, qadriyatlar va boshqa ijtimoiy ongning namoyon bo'lishi obyektiv amal qiladi. Sotsial nazariya va uslub muammolarini ishlab chiqishda, Dyurkgeym sotsiologiya va falsafaning o'zaro ta'siri muammolariga ham e'tiborini qaratgan.

U sotsiologiya buyuk falsafiy ta'limotlardan yuzaga kelganligini e'tirof etadi va doimo qandaydir falsafiy yondashuvlarga suyanganligini ta'kidlaydi. Sotsiologiya – deb yozadi Dyurkgeym – allaqachon mustaqil fan bo'lib shakllangan, o'z predmetiga ega va shu tufayli o'z ishi bilan shug'ullanishi kerak. Dyurkgeym asarlari sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida qaror topishida muhim rol o'ynaydi.

Vilfredo Pareto (1848-1923) Italiya. Uning asari “Umumiy sotsiologiya tartibi”.

Pareto jamiyat sotsiologik tuzilishini ikkiga ajratadi. 1. O'qimishli odamlardan iborat elita, 2. Hissiyotlar va ikkilanishlar bilan yashovchi boshqariladigan omma – quyi qatlam.

Pareto fikricha siyosiy elita jamiyatni boshqaruvchilik imkoniyatini yo'qotsa, uning o'rnini boshqasi egallaydi.

XX – asrning 20-yillaridan boshlab AQSH sotsiologiyasida mehnat munosabatlari, insoniy munosabatlarni o'rganish yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga o'tish jarayonlarini tezlashtirdi. Masalan, 1927-1932 yillarda E.Meyo rahbarligida mehnat va boshqaruv munosabatlarini o'rganishga qaratilgan va Xotorn eksperimentlari nomi bilan mashhur bo'lgan sotsiologik tadqiqotlar (bu tadqiqotlar G'arbiy Yevropani larzaga solgan kuchli iqtisodiy tanazzul davrida o'tkazilgan bo'lib uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi – ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning qo'shimcha omillarini qidirib topishdan iborat edi). Shu asosda 1943 yilda Abraxam Maslou tomonidan ishlab chiqarilgan “iste'molning ierarxik nazariyasi” yaratildi va amaliyotda qo'llanildi. Keyinchalik, shu nazariya asosida 1950 yili F.Xertsberg tomonidan “motivatsiya nazariyasi” (mehnat sharoitlarining ichki va tashqi omillari haqidagi nazariya) va 1957 yili D.Makgregor tomonidan “boshqaruv usullari nazariyasi” yaratildi (bunda boshqarishning 3 asosiy usullari – avtoritar, demokratik va aralash tip haqida fikr yuritiladi). F.Xertsberg nazariyasiga ko'ra, faqat ichki omillar mehnat mazmunini, mehnatdan qoniqishni oshiradi. Mehnat sharoitlari: ish haqi, shaxslararo munosabatlar, korxonahabariyatining tutgan siyosati, boshqaruv usuli va boshqa shu kabilarga tashqi omillar sifatida qaraydi.

Bu omillar mehnatdan qoniqmaslik darajasini pasaytirib, kadrlarni, mutaxassislarning korxonaga bog'lanishini mustahkamlaydi. Ammo, bu omillar mehnat unumdorligining oshishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydi, bu bilan

F.Xertsberg quyidagi o'zaro bog'liqlikni asoslaydi: mehnatdan qoniqish hosil qilish mehnat mazmunining funksiyasidir. Qoniqmaslik esa mehnat sharoitining funksiyasidir.

60-yillarda AQSH nazariy sotsiologiyasi fenomenologik yo'nalishning kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Fenomenologik sotsiologiyaning shakllanishi A.Shnetts nomi bilan bog'liq. O'z mohiyatiga ko'ra, fenomenologik sotsiologiya antipozitiv yo'nalishda bo'ldi. AQSHda yana bir antipozitiv sotsiologik yo'nalish - simvolik interaksionizm bo'lib, unga G.Blumer asos solgan. "Yangi sotsiologiya" nomi bilan atalgan uchinchi antipozitiv sotsiologik yo'nalish Ch.R.Mills nomi bilan bog'liq. Simvolik interaksionizm, fenomenologik sotsiologiya, "yangi sotsiologiya", konflikt sotsiologiyasi, ijtimoiy ayirboshlash nazariyasi, neofunksionalizm va boshqa shu kabi nazariyalar – hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Amerika sotsiologiyasida 60-yillarga qadar marksistik g'oyalar ta'siri yo'q edi. 60-yillardan boshlab AQSHda marksistik sotsiologiyaga qiziqish orta bordi. 70-yillarda R.Fridriks kabi sotsiologlar "dialektik sotsiologik" dasturini ishlab chiqish g'oyasi bilan chiqdilar. Unga ko'ra, marksistik va nomarksistik sotsiologik nazariyalar, konsepsiyalar o'rtasidagi ziddiyatli ajralishni bartaraf qilish masalasi ilgari surilgan.

M. Veber konsepsiyasida totalitar jamiyat, uning belgilari va ijtimoiy-siyosiy tashkil etilish usullari. Maks Veber (nemis) (1864-1920). XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida sotsiologiyaning rivojlanishiga buyuk hissa qo'shganlardan biri, bu nemis mutafakkiri Maks Veberdir (1864-1920). Hozirgi kunda M.Veber sotsiologiyasi haqiqiy uyg'onish davrini boshidan kechirmoqda. Uning falsafiy sotsiologik qarashlarining ko'p tomonlari yangidan qayta anglanmoqda.

Uning fikricha, ishlab chiqilgan sotsiologik bilim, metodologiyasini tushunish konsepsiyasi, madaniyat, etika, sotsiologiya, din haqidagi ta'limotlari harakat uchun qo'llanma sifatida qabul qilinmoqda.

Veberning fikricha, sotsiologiya avvalo, inson yoki guruh, odamlarning fe'l-atvori va sotsial faoliyatini o'rganishi kerak. Veber ko'plab ilmiy asarlarning, jumladan, "Sotsial-ilmiy va sotsial-siyosiy bilishning obyektivligi", "Madaniyat haqidagi mantiq fani sohasidagi tanqidiy tadqiqotlar", "Sotsiologiya" kabi asarlarning muallifidir.

Sotsial harakat Veberning fikricha odamlarning anglab Etilgan o'zaro munosabati tizimini tashkil etadi. Bunday holatda u sotsiologiyaning predmeti hisoblanadi.

Veber o'z asarlarida sotsiologiya nazariyasi va metodologiyasiga oid keng qamrovli muammolarni atroflicha muhokama etishga katta ahamiyat bergan. Shunday qilib, Veber asarlaridagi ilmiylik va obyektivlik bir-biridan ajralib ketmagan.

Jamiyat va davlat. Ba'zan davlat va jamiyat tushunchalari bir ma'noda ishlatiladi. Lekin ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jamiyat davlatga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Davlat taraqqiyotning mehnat taqsimoti davrida vujudga kelgan, jamiyat hayotini tartibga solish maqsadida paydo bo'lgan, ma'lum

kishilardan tashkil topgan katta sotsial guruhdir. K.Marks fikricha, davlat-ko'pchilikni ozchilikka bo'ysindiruvchi apparatdir.

Mamlakat-davlat suverenitetidan foydalanuvchi va hududiy chegaralarga ega bo'lgan dunyoning bir qismi yoki hududi.

Davlat-ma'lum mamlakatning aniq siyosiy rejimga asoslangan, boshqaruv bo'g'inlari va hukumat strukturasi ega xokimiyat.

Davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Iqtisodiy funktsiya.
2. Mudofaa funktsiyasi.
3. Boshqaruv yoki siyosiy funktsiya.

Jamiyatlar asosan 2 sistemaga bo'linadi:

1. ochiq sistema.
2. yopiq sistema.

Yopiq sistemada kishi o'z sotsial holatini o'zgartira olmaydi, o'zgartirsa ham qiyinchilik bilan o'zgartiradi. Bunday sistemalarda belgilanadigan statuslar hukmronlik qiladi. Informatsion filtr kuchli bo'ladi.

Ochiq sistemalarda kishi o'z mehnati, harakati, qobiliyati orqali o'z sotsial statusini o'zgartira oladi va ularda demokratiya tamoyillari amal qiladi.

Jamiyatning tuzilishi quyidagicha:

1. Totalitar jamiyat: - (lot. umumiy, butun, jamiki). Avtoritar shakllaridan biri. Jamiyat hayotining barcha sohaları ustidan yalpi nazorat o'rnatiladi.

2. Avtoritar jamiyat: - (lot. boshlovchi, asoschi, ijodkor, avtor) demokratik bo'lmagan siyosiy rejimga asoslangan yoki siyosiy ongning avtoritar shakli. Bu siyosiy hukmronlik qilishning o'ta reaksion davlat tizimi. Shaxsning diktatorlik elementlari bilan uygunlashib ketadi.

3. Demokratik jamiyat: - (yunon. xalq hokimiyati) - xalqning hokimiyat manbai ekanligi, davlat ishlarini hal qilishda qatnashishini bildiradi. Ijtimoiy tuzilma - jamiyatning ijtimoiy asosini tashkil qiladi.

Jamiyatning mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda ta'riflanishi. Sotsiologiyada jamiyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Mexanik yo'nalish (maktabi) - (XIX asrda paydo bo'ldi, sotsial harakatni biologik harakat shaklida tushunadi, olamni mexanik talqin qiladi).

2. Organik yo'nalish (maktabi): (XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan, jamiyatni organizmga tenglashtirgan va ijtimoiy hayotni biologik qonuniyatlar bilan tushuntirishga urinadi, jamiyat organizm bilan bir, deydi).

3. Kulturologik yo'nalish (maktabi): - qadriyatlar madaniyatni vujudga keltiradi, deb talqin qiladi.

T.Parsons nazariyasida jamiyat tushunchasi, uning to'rt funktsiyali paradigmasi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibini sotsiologik jihatdan o'rganishda uni uch ma'noda: eng umumiy, maxsus keng va xususiy tor ma'noda olib qarash zarur.

Umumiy ma'nodagi ijtimoiy tarkib – jamiyatning bir butun tarkibini tashkil qiladi.

Ikkinchi maxsus keng ma'nodagi ijtimoiy tarkibga ijtimoiy-tarixiy birlik majmuasi va ular o'rtasidagi aloqa, munosabatlar kiradi. Bu tarkib milliy-etnik,

ijtimoiy-demografik, mutaxassislik va boshqa shu kabi kishilar guruhlarini o'z ichiga oladi.

Tor, xususiy ma'nodagi ijtimoiy tarkib tushunchasiga mehnat jamoalari, hududiy birlik, nisbatan tez o'zgaruvchan guruhlar kiradi.

«Sotsiologiyaning umunazariy muammolari» asarida amerikalik sotsiolog T.Parsons jamiyat tarkibiy tuzilishining funktsional modelini ishlab chiqdi. Unga muvofiq, har qanday ijtimoiy tizim quyidagi to'rtta tarkibiy ierarxik darajadan iborat:

1. «Birlamchi» yoki «texnik» daraja ijtimoiy tizim elementlarining bevosita aloqadorligini ifodalaydi.

2. Boshqaruv yoki «menedjerial» daraja, birlamchi darajadagi ijtimoiy tizimlar elementlarining o'zaro aloqadorligini tartibga solib turadi. Bu daraja tashqi tarkibiy aloqalar bo'g'inlari bilan munosabatlar o'rtasida vositachilik rolini bajaradi. Ijtimoiy tartibni nazorat qiladi, kuzatadi, kishilarning moddiy jihatdan ta'minotini boshqaradi.

3. «Institutli», daraja yanada umumiyroq, masalalar bilan shug'ullanadi. Bunga turli boshqaruv institutlari va rahbariyat, ma'muriy idora organlari, ularning vakillari kiradi.

4. Oliy darajadagi, umudavlat darajasidagi jamiyat tashkilotlari. Bunga davlat, hokimiyat, huquqiy va boshqa tashkilotlar kiradi. Ular quyi darajalar ustidan nazorat qiladi va ularni tartibga keltiradi. Parsons sotsiologik maktabi qarashicha, jamiyat hayotidagi funktsional tizimlardan iborat. Bu maktab vakillari dinning jamiyat hayotidagi funktsional ahamiyatiga ham baho berganlar. Din – jamiyatning «bir butun» holda bo'lishiga xizmat qiladi- deb ateizmga jamiyatning bir butunligini buzuvchi, nomutanosibligini keltirib chiqaruvchi omil sifatida qarashgan.

Zamonaviy jamiyatning turlicha ta'riflari. Zamonaviy sotsiologiyaning diqqat markazida jamiyat tushunchasi turadi. U mamlakatning ijtimoiy tashkil etilishini xarakterlaydi. Sotsiolog N. Smelzer jamiyat haqida shunday deydi: «Muayyan geografik chegara, umumiy qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy-madaniy) tenglikka ega bo'lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi».

Sotsiologiyada jamiyat an'anaviy va zamonaviy jamiyatga ajratib o'rganishadi.

An'anaviy jamiyat quyidagi xususiyatlarga ega:

1) mehnat tabiiy taqsimlanadi va ixtisoslashadi (asosan, yosh va jins belgilariga ko'ra);

2) shaxslararo munosabat bevosita individlar orqali namoyon bo'ladi;

3) o'zaro aloqalar norasmiy ravishda tartibga solinadi, (din va ahloq qonunlari yordamida);

4) jamiyat a'zolari qarindoshchilik aloqalari bilan bog'liq bo'ladi;

5) hamjamiyat oddiy boshqaruv tizimiga ega (hokimiyatning meros bo'lib qolishi, oqsoqollar boshqaruvi).

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy jamiyatda insonning yaratuvchilik, moddiy qobiliyati ancha cheklangan edi. Chunki an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy

taqsimlanishi va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning tabaqalashuvi, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni norasmiy muvofiqashtirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikr yuritishini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etardi.

An'anaviy jamiyat kabi zamonaviy jamiyat ham bir qator xususiyatlarga egadir:

1) o'zaro ta'sir rasmiy xarakterga ega (kishilarning xulq-atvori va intilishlari ijtimoiy maqom va individlarning ijtimoiy funktsiyalari bilan belgilanadi);

2) mehnat taqsimoti chuqur amalga oshadi (ta'lim va ish tajribasi bilan bog'liq kasb-malaka asosida);

3) munosabatlar rasmiy tizimda tartibga solinadi (qonun, tartib, bitimlar asosida);

4) ijtimoiy boshqaruv murakkab tizimga ega (boshqaruv instituti, boshqarishning maxsus organlari);

5) din boshqaruv tizimidan ajralgan;

6) ko'plab ijtimoiy institutlar mavjud.

Demak, hozirgi paytda jamiyat kishilararo munosabatlarning rasmiylashuviga olib keluvchi ijtimoiy aloqalar tizimining murakkablashuvi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning zamonaviy shaklidir. Umuman olganda, shaxslararo munosabat va his-tuyg'ularning bog'lanishi jamiyatni ifodalaydi.

An'anaviy jamiyat va Industrial jamiyat. Ularning belgilari. . An'anaviy jamiyatda erga bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Boylik tashqi manbalar asosiga qurilib, tabiat manbaalarini egallash, o'zlashtirish kuchayadi. Industrial jamiyatda mulkning barcha ko'rinishlariga bo'lgan munosabat shakllanadi. Yirik mashina ishlab chiqarishi qo'l mehnati o'rniga kelib, yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarishni izohlaydi. Avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish belgiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ular mutaxassislashadilar. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Mahsulot bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat deb atash ham mumkin. Chunki real borliq iqtisodga qartilgan bo'ladi. Natijada erkin xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakat davlatlari qatoriga qo'shila boradi. Urbanizatsiyalashuv ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni, ommaviy madaniyatni vujudga keltira boradi.

“Mo'l-ko'llik jamiyati”, “Ochiq jamiyat”, “Yopiq jamiyat”, “Iste'mol jamiyati”, “Postindustrial jamiyat” va boshqalar. Hozirgi kunda jamiyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati: – (Ko'proq Garbda: Skandinaviya davlatini misol keltirish mumkin).

2. Iste'mol qilish jamiyati (AKShda XX asr 40–50-yillarda yuzaga kelganligi bilan harakterlanadi).

3. Ochiq va yopiq jamiyat. Ochiq - demokratik jamiyat bo'lib tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat. Yopiq jamiyat – dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan harakterlanadi.

4 Industrial (sanoat) jamiyati. (XX asr 50-60 -yillarida yuzaga keldi. Bu konseptsiyaga o'z mohiyatiga ko'ra markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya to'grisidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

Industrial jamiyat ta'limotiga ko'ra jamiyat turi: texnikaviy, industrial-rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat tipini sinfiy strukturadan ajratib olib qaraydi «Industrial» jamiyat 2 bosqichda kechadi:

- 1) «Industrial» sanoat jamiyati;
- 2) «An'anaviy» jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tib boradi.

5. Postindustrial jamiyat. U 3 bosqichda yuzaga keladi:

- 1) industrial jamiyaggacha bo'lgan davr;
- 2) industrial sanoat jamiyati davri;
- 3) postindustrial jamiyat davri.

Postindustrial jamiyati ta'limotiga ko'ra davlat monopolistik kapitalizm o'rnini bosadi. Xizmat ko'rsatish sohasida fan va maorifga e'tibor beradi. Olim, mutaxassis roliga yuksak baho ko'rsatiladi. Sinflarga munosabati, uning ishlab chiqarishga egaligini inkor qiladi. Jamiyatni boshqarish olimlar va mutaxassislar qo'liga o'tishi tarafdori. Sotsial tengsizlik saqlanib qolishini e'tirof etadi.

Yuqoridagi ta'riflar XX va XXI asr madaniy-tarixiy va siyosiy tizimlarni ta'riflash mezonlari sifatida qo'llanilmoqda.

4-MAVZU: Sotsial guruhlar va sotsial institutlar. (2 soat).

Reja:

1. Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari va turlari.
2. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi, turlari va asosiy vazifalari.
3. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish.
4. Sotsial institutlar: iqtisod, siyosat, din, huquq, oila, fan, ta'lim, madaniyat.

Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari. Kishilar o'z hayot faoliyatlari davomida birlashadigan guruhlar masalasi nafaqat sotsial psixologiya fanining, balki sotsiologiyaning ham muhim masalasi bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar, asosan sotsial guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Kishilik jamiyatida nihoyatda ko'p turli-tuman jamoalar, uyushmalar, birliklar, tashkilotlar mavjud. Inson butun hayoti davomida goh ehtiyojdan, goh manfaat yuzasidan, goho majburiylikdan, ba'zan o'zi hohlamagan holatda yuqorida ta'kidlangan guruhlariga a'zo bo'ladi va ularning vakili bo'lib qoladi.

Guruh – bu xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo'lgan, boshqa birliklardan

o'z xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar sistemasi bilan bog'langan kishilar yig'indisidan iborat bo'lgan sotsial birlikdir.

Mana shu kishilik jamoalarini qandaydir mezon (belgi, xususiyat) bilan nisbatan ma'lum guruhlariga ajratish - sotsiologik tahlilning g'oyat muhim va jiddiy masalasidir. Oldindan shuni qayd qilib o'tish lozimki, garchi «sotsial guruh» termini sotsial tadqiqotlarda keng ko'lamda qo'llanilsa ham, lekin sotsiologik tushunchalar kategoriyasiga muvofiq keladigan maqomiga va nazariy asosiga ega emas. Bu tushuncha ijtimoiy fanlar doirasida yaqqol kategoriyali xususiyatga ega va ijtimoiy munosabatlardagi o'ziga xos subyektni aniqlash uchun ishlatiladi. «Guruh» tushunchasi ijtimoiy fanlar orasida ikkita ma'noga ega. Bir tomondan, u biror bir umumiy belgilarga qarab kishilarni ma'lum toifalarga ajratilganda qo'llaniladi (ko'pincha statistikada, demografiyada). Ba'zan bu ma'noda «guruh» termini psixologiya fanida ham ishlatiladi. Masalan, test sinovlari natijalariga qarab, kishilarni u yoki bu guruhlariga ajratish mumkin.

Ikkinchi tomondan, hamma ijtimoiy fanlar doirasida guruh deganda, real mavjud kishilar birligi tushuniladi. Bu holatda odamlar umumiy belgilar, faoliyatlarining xilma-xilligi yoki biror shart, holatlar bilan birlashadilar va ma'lum ma'noda o'zlarini mavjud birlik vakili ekanliklarini his qiladilar. Masalan, talaba o'zini talabalar guruhining a'zosi sifatida his qiladi.

Sotsiologiyada sotsial guruhlariga ajratish mezonlarining xilma-xilligi. Ilmiy adabiyot bilan tanishish «sotsial guruh» terminini, birinchidan, juda keng qo'llanilayotganligini, ikkinchidan turli hodisalarga nisbatan ishlatilayotganligini ko'rsatayapti, qaysi nuqtai nazar qarashlaridan qat'iy nazar, konkret ijtimoiy fan vakillari guruhlarini sotsial-iqtisodiy, sotsial-demografik, sotsial-psixologik va boshqa guruhlariga ajratadilar.

Guruhga xos harakterli xususiyatlar quyidagilar: guruh soni, ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari; faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari.

Guruh soni deyilganda, mavjud birlikni hajm jihatdan tashkil etadigan a'zolar yigindisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a'zolar soni qancha bo'lishi kerakligi haqida aniq bir to'plamga kelingani yo'q. Bu to'grisida guruh turlari haqida so'z ketganda gapirib o'tiladi.

Guruh o'z soni va a'zolari sonini chegaralashi yoki chegaramasligi mumkin. Mana shu asosga ko'ra guruhlarini «berk» guruhlar, yani yangi a'zolarini qabul qilishda aniq mezon qo'yadigan guruhlar; chegaralangan guruhlar, ya'ni guruh a'zolariga qabul qilish mezoni kam talabchanlik bilan qabul qilinadigan guruhlar. Shuningdek, nihoyat xohlagan kishi ko'rishi mumkin bo'lgan ochiq guruhlar va bu guruhlarda a'zolariga nisbatan aniq talablar ko'yilmaydi, ko'pincha guruhlar a'zo qabul qilish va a'zolarini guruhdan chiqishi uchun aniq talab qo'yadi. Buning natijasida guruhning bir xilligi va uning ta'sir doirasi taminlanadi.

Guruhning paydo bo'lishi uchun ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari, faoliyat namunalari bo'lishi kerak. Shuning uchun ham o'z shaxsiy tashkilotiga ega bo'lmagan, faqatgina kontaktlar (aloqalarga) asoslangan erkin sotsial birliklar guruh deb atalmaydi.

Guruh o'zining shaxsiy norma va qadriyatlariga, ya'ni birlashish markaziga ega bo'lishi kerak. Bularga goyalar, ramzlar, shiorlar, maqsadlar, moddiy predmetlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bular guruhda kishilarni guruhga mansublik va birlashish hissini uygotish va rivojlantirish uchun zarur. Bu qadriyatlar asosida guruhda «biz» so'zi bilan ifodalanadigan birlik hissi paydo bo'ladi. Bu his kishilarni birlashtiradigan psixik (ruhiy) aloqa bo'lib hisoblanadi.

Nihoyat, guruh o'zining shaxsiy farq qiladigan xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Bular yordamida guruh boshqa sotsial birliklardan farq qiladi. Bunday xususiyatlar avvalo, bir hududda yashash, alohida ritual harakatlar, til, mafkura va boshqalar hisoblanadi.

Bu 4 shart juda ko'p guruhlarni ta'riflash uchun qo'l keladi. Lekin guruhlarni tasniflash (klassifikatsiya qilish) vaqtida bu to'grida to'xtalib o'tamiz. Chunki bu shartlar nisbiy harakterga ega. Bular ko'pgina guruhlarni qanoatlantirsa ham, ba'zi guruhlarni tahlil qilish vaqtida to'g'ri kelmasligi mumkin.

Sotsial guruh turlari: katta va kichik, rasmiy va norasmiy, birlamchi va ikkilamchi, inguruh va autguruh, referent guruhlar va boshqalar. Guruhlar eng avvalo miqdor jihatdan katta va kichik guruhlarga bo'linadi. Sotsiologiya va sotsial psixologiya fanida katta sotsial guruhlar o'zining aniq ta'rifiga ega emas. Umuman katta sotsial guruh deganda, a'zolar soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlari tushuniladi. Katta sotsial guruhlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. a'zolar sonining ko'pligi;
2. yagona hududning mavjud emasligi;
3. a'zolar o'rtasidagi aloqalarning asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;
4. guruh tuzilishining murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyushgan va uyushmagan guruhlarni o'z ichiga oladi.

Katta guruhlar ikki turga bo'linadi.

1. Tasodifiy, stixiyali paydo bo'ladigan va qisqa vaqt mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olomon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.

2. Tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan va jamiyat ijtimoiy munosabatlari tizimida ma'lum o'ringa ega bo'lgan birliklar. Bu turdagi guruhlarga sotsial sinflar, turli etnik guruhlar (ellat, xalq, millat), kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) va boshqa guruhlarni kiritish mumkin.

Katta sotsial guruhlarda kichik guruhlarda yo'q bo'lgan xatti-harakatni boshqarib turadigan o'ziga xos kuch mavjud. Bu huquqlar, urf-odatlar va an'analaridir.

Katta guruh bilan kichik guruh o'rtasida o'rta guruh ham bor. Ammo guruh muammosi bilan shugullanayotgan sotsiologlar fikricha, o'rta guruhlar, ularning strukturasi, aloqasi, unda bo'ladigan hodisa va jarayonlar mohiyat jihatdan kattaroq guruhlarga xosdir. Kichik va katta guruhlar o'rtasidagi farqni kichik guruhning yiriklashuvi va uning katta guruhga aylanishi jarayonida ko'rish mumkin. Masalan, bir yoki bir nechta taniqli kishilar atrofida birlashgan, 40-45

kishidan iborat partiya kichik guruhdir, chunki bu guruh vakillarining shaxsan birbirlarini tanishlari (bilishlari) kichik guruhga xos bo'lgan xususiyatni beradi.

Kichik guruhlar deganda, ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zoldan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi. Bu guruhlar ko'pincha samimiy do'stona munosabatlarda bo'ladi, guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita o'zaro aloqalar ustun turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar norasmiy institutlar yordamida tartibga solinadi. Bundan tashqari, maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallagan, yuqori darajada shakllagan kichik maqsadli guruhlar ham mavjud. Bu guruhlarda a'zolar o'rtasidagi munosabatlar maxsus xizmat ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Yashirin ishlayotgan partiya yacheykasi bunga misol bo'la oladi. Kichik guruhlariga oilani, do'stlarni, qo'shnilarni, ishlab chiqarish brigadasini va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Kichik sotsial guruhlarining turlari juda ko'p. Ular turli mezonlarga qarab turlarga ajratiladi. Guruh munosabatlari tuzilmasiga qarab kichik sotsial guruhlar rasmiy va norasmiy guruhlariga, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligiga qarab esa birlamchi va ikkilamchi guruhlariga, guruhga a'zo bo'lish va bo'lmasligiga qarab a'zoli va referent guruhlariga bo'linadi. Sanab o'tilgan guruhlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar, guruhlarini bunday tarzda turlarga bo'lish birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog E. Meyo tomonidan taklif qilingan edi, guruhlarini rasmiy va norasmiy guruhlariga ajratish asosida guruh munosabatlarining tuzilmasi yotadi.

Rasmiy guruhlar - bu huquqiy statusga ega bo'lgan sotsial institut, tashkilot qismi hisoblanadigan mavjud institut, tashkilotdagi mehnat doirasida aniq maqsadga ega bo'lgan sotsial guruhlardir.

Rasmiy guruhlariga quyidagi belgilar xos: aniq va ischil maqsad, ierarxiyaga asoslangan aniq funktsiyalar, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan huquq va burchlar, a'zolar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, guruh faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjud bo'lishi va boshqalar.

Rasmiy guruhlarda guruh maqsadlari, funktsiyalari xatti-harakat qoidalari, hatto a'zolik shartlari maxsus hujjatlarda (dastur, instruktsiya, qonun va boshqalar) qayd etilgan bo'ladi.

Rasmiy guruhlariga siyosiy partiyalar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar kiradi. Shuningdek, ishlab chiqarish kollektivi, maktab sinfi, sport komandasi va boqalarni kiritish mumkin.

Rasmiy guruh - bu aniq sotsial guruh, jamiyat sotsial tuzilmasining elementidir. U obyektiv holda mavjud. Uning strukturasi va xatti-harakat shakllari keng miqyosdagi guruh yoki jamiyat tomonidan boshlanadi. Individ rasmiy guruhga a'zo bo'lar ekan, o'zining shaxsiy sifatlarini yo'qotadi va rasmiy guruh tashkiloti doirasidagi u yoki bu rollarni bajaruvchi kishiga aylanadi.

Rasmiy guruhlar ham rasmiy (korxonalar, brigada kasaba uyushmasi, jamoat va davlat tashkiloti), ham rasmiy struktura tomonidan tan olinmagan, ya'ni norasmiy (yashirin tashkilot, norasmiy guruh va hokazo) bo'lishi mumkin.

Norasmiy guruhlar, ko'pincha bunday guruhlar «psixologik guruhlar» yoki «sotsial psixologik guruhlar» deb ataladi. Chunki bu guruhlarining tashkil topish

zaminida guruh a'zolari o'rtasidagi psixologik, hissiy munosabatlar yotadi. Norasmiy guruhlarining paydo bo'lishida vaziyat va umumiy mafaatlari majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlarini ba'zan, manfaat yuzasidan tuzilgan guruhlar ham deb atashadi. Odamlar ehtiyojlari turli-tuman bo'lganligi sababli norasmiy guruhlar mavjud.

Norasmiy guruh rasmiy guruhga qaraganda boshqacha tuzilishga ega. Agar rasmiy guruhda guruh sotsial strukturaning yuqori organlar va hatto jamiyat tomonidan tuzilsa, norasmiy guruhlar esa shaxsiy asosda, ya'ni uni tashkil etadigan individlar tashabbusi bilan tuziladi. Tashabbuskor kishilar bu guruhda faol rol o'ynaydilar va o'z-o'zidan guruhda a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat beradigan xatti-harakat tizimi rivojlanadi.

Birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Shaxsning yaqinligiga ko'ra kichik guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo'linadi. Fanga birlamchi guruh termini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog Charlz Xorton Kuli tomonidan XX asrning boshlarida kiritilgan.

Birlamchi guruh termini yaqinlik, yaxshi ko'rishlik, bevosita aloqa tushunchalariga sinonim ravishda ishlatiladi. Shunga bog'liq ravishda, birlamchi guruhlarda muhit samimsiy bo'ladi va a'zolarining sidqidil o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Manna shu xususiyati bilan birlamchi guruh boshqa guruhlardan farq qiladi.

Birlamchi guruhning xarakterli belgilari quyidagilardan iborat: a'zolar sonining kamligi, guruh a'zolarining hududiy yaqinligi, bevosita samimiy munosabatlar, yashashning uzoq davom etishi, maqsadlarning umumiyliigi, guruhga a'zo bo'lishning erkinligi va a'zolar hatti-harakati ustidan norasmiy nazorat.

Shunga muvofiq, «birlamchi guruh» termini turli ko'rinishdagi kichik guruhlarini aniqlash va «ikkilamchi guruh» terminiga qarama-qarshi tarzda qo'llaniladi.

Birlamchi guruh eng avvalo oiladir, guruhni birinchi navbatda oila a'zolarining manfaatlarini bog'laydi.

Bunday xarakterga insonning bolalik va o'smirlik chog'idagi tengdoshlar guruhi ham ega, qo'shnilar, mahalla ham birlamchi guruhga aylanishi mumkin. Birlamchi guruhlar rasmiy aloqaga ega emas. Agar birlamchi guruh a'zolari o'rtasida rasmiy aloqalar paydo bo'lsa, bu guruh kichik rasmiy guruhga aylanganligini bildiradi.

Birlamchi guruhlarining shaxsga ta'siri katta ahamiyatga ega. Ular a'zolarining ahloqiy tomonini shakllantiradi va yangilaydi, mustahkamlaydi. Bu guruhlarda kishilarning birinchi sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) amalga oshadi, kishilar o'zlarining hislari va hatti-harakatlarini jamiyat talabiga muvofiq keladigan tarzda shakllantirishadi.

Ikkilamchi guruhlar deb, biror bir aniq maqsadga erishish uchun tuzilgan har qanday turdagi guruhlariga aytiladi. Ularda moddiy aloqalar muhim ahamiyatga ega. Ularning faoliyati tartib-intizom qoidalari bilan boshqariladi. Umuman, ikkilamchi guruhlar – bu katta guruhlardir. Ba'zan birlamchi guruhlar ham

ikkilamchi guruh bo'lishi mumkin. Ikkilamchi guruhlarga kasbiy, diniy, siyosiy guruhlarini kiritish mumkin.

Referent va a'zoli guruhlar. Kichik guruhlarini o'rganishning jihatlaridan biri bo'lib, «referent guruh» termini amerikalik sotsial psixolog Mustafu Sherif tomonidan kiritilgan. «Referent guruh» termini (inglizcha so'z, «mansub bo'lish» degan ma'noni anglatadi) individ ongli ravishda kiradigan sotsial guruhlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kasbiy) nisbatan ishlatiladi.

Inguruh va autguruh - individ o'zining mansubligini belgilaydigan guruhlar hisoblanadi. Inguruh bu individ tomonidan o'zini muayyan guruhga taalluqli, mansub deb qaraydigan guruhlarga aytiladi. Masalan, “mening talabalik guruhim”, “mening oilam”, “mening tashkilotim”. Undan farqli ravishda autguruhlarga nisbatan individ bunday yaqinlikni sezmaydi. O'zi bevosita mansub bo'lmagan guruhlar to'g'risida individ “ular” degan tushunchani ishlatadi. Inguruh a'zolari o'rtasida ruhiy yaqinlik, umumiy qiziqishlar, qadriyatlar, maqsadlar kuzatiladi.

Shaxsning «guruh normalariga» munosabati belgilariga muvofiq guruhlar referent guruhlar yoki «etalonli» (o'lchovli) guruhlarga bo'linadi. Referent guruhlar, kichik guruhlar hamda katta guruhlar - sinf yoki ijtimoiy tabaqa bo'lishi mumkin.

«Referent guruh» termini to'rt xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Individ xatti-harakati uchun namuna, etalon yoki mezon bo'lib xizmat qiladigan guruh.
2. Individ o'z harakatlarini shu guruhga yo'naltiradigan guruh.
3. Individ a'zo bo'lishiga intilayotgan guruh.
4. A'zolarining qadriyat va fikrlari bevosita shu guruh a'zosi bo'lmagan kishi uchun o'ziga xos taqqoslash o'lchovi, sotsial «o'lchov doirasi» sifatida xizmat qiladigan guruh.

Real hayotda «referent guruh» nazariyasi shaxsning turli sotsial muhitlarga moslashuv jarayonida, sotsial harakatlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Referent guruhlar real va ideal guruhlarga bo'linadi. Real referent guruhning shaxsga qulay sotsial norma va qadriyatlarni egallashi uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan alohida kishilar yoki kishilar birligidir.

Ideal referent guruh - bu ma'lum bir guruhning qadriyatli va normativ yo'l-yo'riqlarining inson ongida aks etishidir. Shaxs bu GURUHga o'z tasavvurlari va harakatlari bilan moslashishga harakat qiladi.

Masalan, muhandis o'zini real hayotda muhandislar guruhiga mansub deyish bilan birga o'zini guruh sifatida mavjud bo'lmagan «ma'naviy elita»ga mansub deb hisoblaydi.

Jamiyat va davlatning sotsial mohiyati. Jamiyat - kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimiz sotsial tizimining muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarning o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, o'z vaqtida keyingi

oqibati o'ylanmagan, oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotida salbiy asoratlar qoldiradi.

G'arb sotsiologiyasida kichik guruhlar nazariyasi: sotsiometriya, guruh o'zgaruvchanligi, psixoterapevtik va boshqalar sotsial guruhlarning shakllanishi, ishlashi va taraqqiy etishi qonunlarini tushuntiruvchi nazariyalar sifatida. Sotsiometriya tushunchasi XIX asr oxirida matematik usulning ijtimoiy hayotga tadbiiq qilishi oqibatida paydo bo'ldi. Sotsiometriyaga XX asrda frantsuz sotsiologi, faylasufi G.D.Gurvich (1894-1965) va amerika ruhshunos olimi Ya.L.Moreno (1892-1974) lar tomonidan asos solingan. Ular kichik ijtimoiy guruhlarda shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish – mikrosotsilogiyada sotsiometriyani qo'lladilar. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiyada sotsiometriyaning ahamiyati katta bo'ldi.

Sotsiometriya (lotincha so'z: societas – jamiyat va yunoncha so'z: metron – o'lchamoq ma'nosini anglatib) kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganadi. Unda kishilarning o'zaro bir-birlarini xush ko'rish, yoqtirish va xush ko'rmaslik mayillari o'rganiladi.

Ya.L.Morenoning sotsiometriya tizimi 5 asosga ega edi:

1. Kishilarning o'zaro xush ko'rishlik va yoqtirmaslik asosidagi ehtiros quvvati. Ularni aniqlash sotsiometriyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Jamiyat «sotsial atomi» alohida individ emas, balki individlarning birgalikdagi munosabatidan iborat. Bu aloqadorlik jarayoni ikki darajaga ega: o'z-o'zidan yuzaga keluvchi va real – bunda ehtirosli sherik shu bosqichda o'rganiladi.

3. Sotsial gravitatsiya qonuni.

4. Sotsiologik qonun.

5. Sotsiodinamik qonun.

Kishilar hayot faoliyat davomida o'zaro bir-birlariga nisbatan ijobiy (simpatiya) yoki salbiy (antipatiya) tuyg'ularga ega bo'ladilar. Har qanday kichik ijtimoiy guruh, tashkilot va muassasaning faoliyati uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ularda ijtimoiy muhit qanchalik musaffo bo'lsa; ijtimoiy tizim faoliyati ham shunchalik muvaffaqiyatli boradi. Aks holda, kichik guruhlar va ulardagi kishilar hayoti shunchalik qiyin va og'ir kechadi. Sotsiometriya esa shu qiyinchiliklarni, nomuvofiqlilarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi, undagi kishilar hayoti ham butun olam tortishish qonuniga bo'ysunadi. Xuddi tabiatdagidek, jamiyatda ham kishilar o'zaro gravitatsion (o'zaro tortishishga asoslangan) munosabatda bo'ladi. Tabiatdagidan farq qilib, jamiyat hayotida bu qonuniyat o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Aql kuchi, bioquvvat, xarakter, temperament, mayl, ta'b, odat, tarbiya, did, e'tiqod va shu kabi ijtimoiy-ruhiy omillar kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab gravitatsion asosini tashkil qiladi. Ular asosida kishilar o'zaro yaqin «tortiladilar», do'stona, samimiy bo'ladilar yoki bir-biridan uzoqlashadilar, adovatda bo'ladilar. Sotsiometriya shu jarayonlarni miqdoriy jihatdan o'rganadi. O'z navbatida miqdoriy o'lchovlar sifatiiy ko'rsatkichlarni farqlashga xizmat qiladi.

Kvaziguruhlar bu kishilarning muayyan joyda tasodifan yuzaga keladigan jamoasi bo'lib ularda barqaror maqsadlar kuzatilmaydi hamda ongli o'zaro harakatlar amalga oshirilmaydi. Kvaziguruhlarning belgilariga quyidagilar kiradi:

- tasodifan yuzaga kelishi;
- o'zaro aloqalarning barqaror emasligi;
- o'zaro harakatlarning bir tomonliligi (masalan, zavqlanish, norozilik, axborot qabul qilish va hokazo);
- o'zaro aloqalarning qisqa muddatliligi.

Agarda doimiy o'zaro aloqalar natijasida guruh tomonidan o'zining a'zolarini sotsial nazorat qilish darajasi oshadigan bo'lsa kvaziguruhlar sotsial guruhlarga ham aylanishi mumkin.

Kvaziguruhlarning ko'rinishlari sifatida auditoriya jamoasi, omma, turli ijtimoiy doiralarni kiritish mumkin.

Qon-qarindoshlikka asoslangan guruhlar: urug', qabila, qarindoshlar, oila, elat, millat.

Urug' - kishilarning umumiy qon qarindoshligiga asoslangan va muayyan xo'jalik aloqalari bilan bog'langan tarixiy shaklidir. Urug' ichida ishlab chiqarish qurollari va vositalari umumiy bo'lgan.

Qabila – odamlar uyushmasining yuksakroq shakli bo'lib, o'z ichiga ko'p sonli urug'larni kiritadi. Ular o'zining tili yoki shevasi, hududi, rasmiy tashkillashuv shakli (oqsoqol, qabila kengashi) va umumiy marosimlariga ega bo'ladi. A'zolar soni bir necha ming kishigacha etishi mumkin.

Oila – kishilarning nikoh va qarindoshchilik munosabatlariga asoslangan eng kichik ijtimoiy guruhi bo'lib, jamiyatda farzandlar tarbiyasi va boshqa ijtimoiy muhim ehtiyojlarni amalga oshiradi. Oilada umumiy xo'jalik yuritilib, yagona byudjet shakllanadi.

Elat – ijtimoiy taraqqiyot pillapoyasida qabila va millat orasida turadigan etnik birlik bo'lib asosan quldorlik tuzumi davrida shakllangan va kishilarning til, hudud, iqtisod va madaniyat yaqinligiga asoslanadi. Elatlar son jihatdan qabiladan ancha yirik bo'lib, qon qarindoshlik aloqalari butun elatni qamrab olmaydi.

Millat - yagona til, hudud, madaniyat, iqtisodiyot va milliy ruhiyat negizida shakllanadigan kishilarning yirik guruhlari bo'lib, asosan yangi davrda paydo bo'ladi. Bu davrda yuksak siyosiy tashkillashuvga ega bo'lgan sinflar, ichki bozor va yagona xo'jalik aloqalari yuzaga keladi. Milliy adabiyot, san'at, milliy fikrlash tarzi paydo bo'ladi. Millatlar elatlarga qaraganda yanada ko'p sonli kishilar uyushmasi hisoblanadi.

Ommani sotsiologik o'rganish. Omma — bu nisbatan qisqa vaqt davomida bir joyda to'plangan, bir xil tashqi ta'sirlar va emotsional umumiylikka ega bo'lgan ko'p sonli kishilarning birligidir. “Ommaning” tushunchasini sotsiologiya doirasida keng o'rganish XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridan boshlangan. Aynan shu davrda keng xalq ommasining inqilobiy ko'tarilishlari kuzatiladi. Ommaning ijtimoiy tuzilishi odatda juda sodda bo'lib u yetakchilar va qolganlarga bo'linadi. Ommani sotsiologiyada o'rganish nihoyatda muhim bo'lib, jamiyatda kelib

chiqishi mumkin bo'lgan yirik to'polonlar, tartibsizliklarning oldini olishga yordam beradi.

Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi. Sotsial institut (lotincha–institutum, ruscha lugaviy ma'nosi- ustanovleniya, o'zbekcha ma'nolarda, birinchidan, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, ikkinchidan, mahkama, muassasalarni bildiradi). Sotsial institut – bu inson faoliyatining turli sohalarini tartibga soluvchi va ularni rollar va mavqelar tizimiga kirituvchi rasmiy va norasmiy qoidalar, me'yorlar tamoyillari, yo'l-yo'riqlarning turg'un majmuidir. Shunday qilib, biz sotsial institutni ikkita usul yordamida ifodalashimiz mumkin: bir tomondan me'yorlar yig'indisi, ikkinchi tomondan – rollar va mavqelar yig'indisi. Yuqorida qayd etilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu ikkita ta'rif bir-biriga zid emas, aksincha, ular bir-birini to'ldiradi va bitta hodisaning turli tomonlariga urg'u beradi. Sotsial institut butun jamiyat nomidan harakat qiladi. Institutsional aloqalar bir paytning o'zida me'yoriy ham hisoblanadi, chunki ular jamiyat tomonidan o'z a'zolarining u yoki bu ehtiyojlarini qondirish uchun o'rnatiladi. Sotsial institutning mazmuniy va rasmiy tomonlarini ajratish mumkin. Mazmuniy tomondan sotsial institut u yoki bu ijtimoiy mavqe egalari xulq-atvoriining andozalari tizimi hisoblanadi. Rasmiy tomondan sotsial institut aniq ijtimoiy vazifani bajarish uchun moddiy vositalarga ega bo'lgan shaxslarning yig'indisi sifatida qaralishi mumkin. Sotsial institutlar yoki institutsional sotsiologiya maxsus nazariy yo'nalishdir.

Sotsial institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim. Yuzaki ko'rinishda, sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga ko'ra esa sotsial institut va shaxslarning konkret vaziyatlarda amal qiladigan maqsadga muvofiq, rasmiy va norasmiy, barqaror, standartlashgan tamoyil, normalar, o'rnamshmalarini bildiradi.

Sotsial institut, qisqacha ta'rifda, odamlar sotsial tashkillashgan va regulyatsiya qilinadigan faoliyatlarni anglatadi. Sotsial institutlar xatti-harakatining nisbatan barqaror shakl namunalarini, avloddan-avlodga o'tuvchi an'analar, odatlarning qayta takror hosil qilinishini ham ta'minlaydi.

Sotsial institut belgilari. Sotsial institutga quyidagi belgilar xos:

- 1) u xulq-atvorning to'g'ri turlarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar va yo'l-yo'riqlarning to'plami sifatida mavjud bo'ladi;
- 2) u jamiyat mafkurasi va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq;
- 3) harakatlarning institutsional turlari jamiyat tomonidan nazorat qilinadi, institutning o'zi esa individlarning xulq-atvorini nazorat qiladi;
- 4) sotsial institut zarur moddiy vositalar va zahiralarga ega bo'lib, ular tufayli institut asosida yotuvchi me'yorlar va yo'l-yo'riqlar u yoki bu darajada muvaffaqiyatli bajariladi.

Sotsial strukturaga kiruvchi har bir sotsial institut muayyan ijtimoiy ahamiyat vazifalarni ado etish uchun tashkil topadi, har bir sotsial institut faoliyat maqsadi, unga erishishni ta'minlovchi konkret funksiyalar, ushbu institutga xos bo'lgan sotsial pozitsiya va rollar, shuningdek, maqsadga muvofiq, kerakli xatti-harakatni rag'batlantiruvchi va deviant (og'ma) xatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar (sanksiyalar) tizimi bilan tavsiflanadi.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va xalqaro sohalariga xos bo'lgan sotsial institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat majudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishini, taqsimlanishini ta'minlaydi. Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tarbiya usullari) huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bundan tashqari jamiyatda bir qator ijtimoiy - madaniy institutlar (maorif, sogliqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan va din institutlari) amal qiladi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi unga mos bo'lgan muayyan sotsial institutlar amal qilinishini taqozo etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi tomon qadam tashlayotgan mustaqil mamlakatimizda yangi maqomga monand bo'lgan sotsial institutlar shakllanish jarayoni ro'y bermoqda. Bular iqtisodiy sohada - bozor iqtisodiyoti amal qilishiga xizmat qiladigan sotsial institutlar; siyosiy sohada - demokratik hokimiyat turli bo'g'inlari faoliyatini ta'minlovchi sotsial institutlar hamda jamiyat barcha jabhalarida yangi jamiyat tarziga hozirlovchi turli xil sotsial institutlardir. Prezident Islom Karimov izchil tadbir qilayotgan konseptsiyaga muvofiq yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi qo'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi vorisligini ta'minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda.

Sotsial institutning asosiy vazifalari. Har bir sotsial institut:

- 1) o'z faoliyatining ma'lum darajada aniq shakllangan maqsadlariga;
- 2) individlarga belgilangan ijtimoiy mavqe va rollarning to'plamiga;
- 3) individlarning xulq-atvorini nazorat qiladigan sanksiyalar tizimiga;
- 4) ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan konkret xususiy vazifalarga ega (istalgan sotsial institut bulardan tashqari doim yana bir vazifaga ega bo'ladi – bu harakat qilayotgan individlar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlash).

Institutsional sotsiologiyada sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish, qaytadan tiklash;
- b) sotsializatsiya (individga ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat va normalarni etkazishning turli xil shakllari);
- v) ishlab chiqarish va taqsimot;
- g) tartibga rioya qilish va ahloqni saqlab turish.

Sotsial institut turlari: oila, siyosat, din, iqtisod, ta'lim, huquq va boshqalar. Sotsial institutlarning eng muhim quyidagi turlari mavjud:

1. Oila – jamiyatning muhim institutlaridan biri.
2. Ijtimoiy-madaniy institutlar.

Sotsial institutlar sotsial muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu o'zaro ta'sir normal tarzda, shuningdek normaning buzilishi sharoitida ham bo'lishi mumkin. Har qanday real jamiyatda normativ tartibotga bo'ysunmaydigan anomik hodisalar bo'lishi tabiiydir.

Amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning quyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Relyatsion yozma ma'lumotlarga institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb-Mashg'ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning rolga oid tarkibini aniqlab beradi.

2. Regulyativ (idora etish) sotsial institutlari. Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga daxlsiz holda amalga oshish chegaralarini va bu chegaradan chiqib ketilganda qo'llaniladigan sanksiyalarni (bunda sotsial nazoratning hamma mexanizmlari ham kirib ketadi) belgilab beradi.

3. Integrativ (uygunlashtiruvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga ma'sul bo'lgan sotsial rollarni ifodalaydi.

4. An'anaviy sotsial institutlar. Bu sotsial institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalar bilan bogliqdir.

5. Madaniy sotsial institutlar. Din, san'at, adabiyot bilan bogliq muassasalar.

Oila va nikoh. Nikoh va oila munosabatlari qadimgi davrlardan boshlab ilmiy tadqiqotlar manbaining bir yo'nalishini aks ettirib, sotsial tizimni tashkil etuvchi sotsial institutlarning alohida funktsiyaga ega bo'lgan bir bo'lgi hisoblanadi.

Bu sohada ancha to'liq va qiziqarli ma'lumotlarni sotsiologlar S.Lipset, D.Landberg va boshqalarning «Institutsional maktab» sotsiologiyasi manbalaridan olishimiz mumkin. Ana shu sotsial institutlardan biri oila hisoblanadi. Klassik sotsiologlarning nazariyalarida sotsial institutlar amal qilishiga ko'ra ikkiga ajratib ko'rsatilgan: Oddiy va murkkab. Oddiy sotsial institutning klassik misolida oila institutini ko'rib chiqishimiz mumkin. A.G. Xarchevning ma'lumotiga ko'ra - oila kishilarning nikoh va qon-qarindoshlik xususiyatiga ko'ra birlashmasi bo'lib, ijtimoiy turmushni shakllantirish va birgalikdagi javobgarliklariga ko'ra boglangan bo'g'indir.

Bu masalalarni biz A.Millerning konsepsiyalarida ham ko'rishimiz mumkin (1914-1973). O'z davrida M.Veber ham sotsial institutlar va ularning funktsiyalari haqida alohida to'xtalib o'tgan. O.Kont o'z sotsiologik nazariyalarida oilani jamiyatning birlamchi asosi sifatida qarab chiqadi va uning kelib chiqishini insoniy munosabatlardagi tabiiy holat deb izohlaydi.

O.Kontning fikricha: oilada ijtimoiy munosabatlarning barcha ko'rinishlari o'z aksini topadi, ya'ni notenglik (avlodlar va jinslar o'rtasida), tobelik (oila a'zolari o'rtasidagi, oila boshlig'i, kattalar) va hokazo.

Shunga ko'ra oila bir kichik davlat bo'lib, u davlatning shakllanish asosi, uning modeli, oila sotsial funktsiyalari esa - jamiyat funktsiyalarini aks ettiradi.

Oilaning huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil qiladi (asosiylari):

1. Inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasi (1948 yil dekabr) 16-moddada berilgan.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 63-66-moddalarda bayon etilgan.
3. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi (1998 yil 30 aprelda qabul qilingan) 8 bo'lim 238 moddadan iborat.
4. Va boshqa shular doirasida qabul qilingan normativ hujjatlar.

Aslida oilaning vujudga kelishi va shakllanishida quyidagi oila turlari majud bo'lgan:

1. Gruppaviy oila: ibtidoiy jamoa tuzumida er-xotin umumiy bo'lgan.
2. Patriarxal oila: juft oila bilan monogom oila o'rtasidagi oraliq shaklida bo'lgan.
3. Monogom oila: bir nikohli (hozirgi) oila vujudga kelgan.

Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida nikohning quyidagi turlari mavjud:

1. Monogom nikoh. Nikohning bu turi eng ko'p tarqalgan bo'lib, 2 ta shaxs o'rtasida amalga oshiriladi.
2. Poliginiya nikoh. Yunoncha poli – ko'pchilik, giniya – nikoh, ya'ni bitta erkakning bir necha ayollar bilan qonuniy nikohda turilishidir. Bu ko'proq arab mamlakatlarida bor.
3. Poliandriya nikoh. Bunda bitta ayol bir necha erkaklar bilan nikohda bo'lishi mumkin.

Oila-nikoh munosabatlarining asosiy sotsiologik tushunchalariga quyidagilar kiradi: Oilaviy hayot sharoiti, oila tarkibi, oila funktsiyasi, oila turmush tarzi, oilaviy mafkura va boshqalar.

Bu tushunchalar oila-nikoh munosabatlarining eng muhim jihatlarini o'zida ifodalaydi.

Oilaning funksiyalari, asosan quyidagilardan iborat: 1. Avlodni davom ettirish. 2. Bolalar to'grisida g'amxo'rlik. 3. Iqtisodiy funktsiya yoki uy-xo'jalik ishlarini yuritish. 4. Qariyalar to'grisida g'amxo'rlik. 5. Burch va majburiyatlarni his qilish. 6. Muomala talablarini qondirish. 7. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish.

Shunday qilib, "oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi".

Oila asosini nikoh munosabatlari tashkil qiladi. Nikoh – bu tarixan vujudga kelgan er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-ahloqiy shaklidir. Nikoh orqali jamiyat er-xotinning o'zaro jinsiy hayotini tartibga soladi va ularning oiladagi huquq-burchlarini qonunlashtiradi. Shu bilan birga, oila nikohga nisbatan yanada murakkabroq bo'lib, nafaqat er-xotinni, balki ularning farzandlarini va shu oila tarkibiga kiruvchi qarindoshlarni ham o'z ichiga oladi.

Oila-nikoh munosabatlarining asosiy printsiplari:

1. Yakka nikohlik tamoyili (faqat bitta).
2. Nikohning ixtiyoriyligi.
3. Ajralishning erkinligi (davlat tomonidan nazorat qilinadi).
4. Oila va oilaviy munosabatlarda er-xotinning teng huquqligi.
5. Bolalarni birgalikda tarbiyalash tomoyili.

Oila ijtimoiy institut sifatida muayyan darajalarga ega bo'ladi. Dastlab, er-xotinning nikohdan o'tishi oqibatida oila vujudga keladi. Birinchi farzandning dunyoga kelishi esa - bolali oilani yuzaga keltiradi. Bu holat oilani yanada mustahkamlaydi. Hattoki, bir-birlarini sevib qurilgan oila ham, agarda farzandli bo'lmasa, mustahkam bo'la olmaydi, bundan ko'rinib turibdiki, oilaning avlod

qoldirishlik funktsiyasi jamiyat hayotida ham, oila mustahkamligini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat hayotida sotsial institutlarning o'rni. Jamiyat taraqqiyotning har bir bosqichi unga mos bo'lgan muayyan sotsial institutlar amal qilishini taqazo etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi tomon qadam tashlayotgan mustaqil mamlakatimizda yangi maqomga monand bo'lgan sotsial institutlar shakllanishi jarayoni ro'y bermoqda. Bular iqtisodiy sohada – bozor iqtisodiyoti amal qilishiga xizmat qiladigan sotsial institutlar, siyosiy sohada – demokratik hokimiyat turli bo'g'inlari faoliyatini ta'minlovchi sotsial institutlar, jamiyat barcha jabhalariga yangi jamiyat tarziga hozirlovchi turli xil sotsial institutlardir. Prezident I.A.Karimov izchil tadbiiq qilayotgan konseptsiyaga muvofiq, yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi qo'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi va kelajagi vorisligini ta'minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda.

Sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish, qaytadan tiklash;

b) sotsializatsiya (indivdga ijtimoiy ahamiyatli bo'ladigan qadriyat va normalarni etkazishning turli xil shakllar);

v) tartibga rioya qilish va ahloqni saqlab turish;

Iqtisodiy institutlar. Boyliklar (farovonlik)ni yaratish, taqsimlash va foydalanish muammolarini qo'yish va hal qilish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): bozor; tovar – buyum, ularning obyektiv xususiyatlari boylik hisoblanadi; taklif; talab; mehnat – muayyan vaqtda, muayyan joyda tashkil etilgan sermahsul faoliyat; raqobat; innovatsiya va boshq.

- postmodern davrida virtuallashtirish:

- qiymatni virtuallashtirish

- innovatsiyalarni simulyatsiya qilish

- mehnatni virtuallashtirish («ish vaqti iqtisodiy mazmunga emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega»).

Ularning ko'rinishlari va vazifalari. Mulk, ayirboshlash, pullar, banklar, turli tipdagi xo'jalik birlashmalari – iqtisodiy hayotni ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan birlashtirgan holda ijtimoiy boylikni ishlab chiqarish va taqsimlashning butun yig'indisini ta'minlaydi.

Mehnat va mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan guruhlar o'rtasidagi farqlar qanday bo'lishiga qarab, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning strategik modelini ajratib o'rganish mumkin.

1. Sinflararo model. Ochiq qarama-qarshilik xarakterini olib boruvchi bir necha katta guruh–sinflar o'rtasidagi farqlar – eng muhim deb hisoblanadi. Odamlarning o'zlari bularni oson deb anglaydi. IIIy bilan bir vaqtning o'zida har bir guruh–sinflar o'ziga yarasha gomogen, ya'ni bir turdagi bo'lib, yuqori jiplashish indeksi bilan ta'riflanadi.

2. Ichki sinfiy model. Asosiy rypyh–sinflar o'rtasidagi hisobga olish mumkin bo'ladigan munosabatlarning farqlari yo'q. Bu guruh–sinflar etarli

darajada «tizimga integratsiya» qilgan, bir-biriga moslashgan, nizolarsiz rollarni, mehnat sharoiti va daromadini aniqlagan va bo'lgan. Bir vaqtning o'zida guruh–sinflar ichida «geterogenlik», ya'ni turli-tumanlik kuchayib boradi. Guruh–sinflararo qarama-qarshilik farqlari ichki muammolarga aylanadi.

3. Ustuvor sinfiy modeli. Model bo'yicha asosiy guruharning tashqi va ichki munosabatlardagi farqlar va qarama-qarshiliklar teng miqdorda taqsimlanadi. Bunday holatda guruh–sinflararo farqlarning kuchayishi yoki kamayishi teng miqdordagi xarakterni bildiradi.

Iqtisodiy guruhlar va iqtisodiy xatti-harakat. Ijtimoiy hayot – bu, turli guruh odamlarining harakati, faoliyati, o'zlarini yaqqol namoyon qiladigan, o'ziga xos voqealar majmuidan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar majmui butun jamiyat, hudud yoki qishloqlar, xo'jalik tarmoqlari, tashkilotlar ko'lamida ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishni tashkil etadi. Umumiylikdan guruhlarni ajratish va taqsimlash – bu, ijtimoiy stratifikatsiyadir. Iqtisodiy hayotda mehnat va mehnat munosabatlari asosiy tarkibiy qism bo'lgani sababli, ijtimoiy-iqtisodiy stratifikatsiyaning eng muhim obyektiv asoslari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- bandlik, uning o'lchovi va ko'rinishi;
- ijtimoiy mehnat taqsimotida tutgan o'rni, ya'ni boshqaruv yoki ijrochi, agrar va industrial, aqliy va jismoniy mehnat bilan bandlik;
- mehnat xususiyatlarining mashaqqatda, qiyinchilikda, xavfda, aqliy va jismoniy holatlarda tutgan o'rni;
- kasb yoki mehnat, ya'ni ish haqiga yollanadigan va yuqori malakani talab etadigan yoki erkin daromadli mustaqil ish, ma'lumot qanday bo'lishidan qat'i nazar;
- ishlab chiqarish vositalarining mulkchilikka bo'lgan munosabati, mulkning mavjudligi yoki yo'qligi, undan tashqari o'lchovi, shakli va ko'rinishi;
- ishlab chiqarish, mehnatni tashkil etish, boshqa munosabatlar, uning darajasi, iqtisodiy va huquqiy asoslar, rasmiy va norasmiy xarakter;
- daromad, uning o'lchovi va manbalari, ahloqiylik, barqarorlik va berqarorlik xarakteri;
- ma'lumot va malaka, ularning daraja va ixtisosi.

Ko'rsatib o'tilgan asoslarni hisobga olgan holda guruhlar bir necha bo'lakka ajratilishi mumkin. Ilmiy va ishga aloqador variantlarga juda ko'p e'tirozlar bildiriladi, ba'zan ular bir-biriga to'g'ri kelmaydilar ham. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy tizim hodisasi ijtimoiy fikrga murakkab ta'sir ko'rsatishini belgilaydi.

Obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy stratifikatsiyaning asoslari bilan bir qatorda subyektivlari ham mavjud. Bu erda guruhlar mehnat va mehnat munosabatlari uchun katta ahamiyatga ega qandaydir insoniy sifatlar nuqtai nazardan farqlanadi. Ularga:

- bir xil mehnat turlaridagi faoliyat va xulq uslubi;
- passivlik va faollik;
- etakchilik;
- qonunga bo'ysunish;

- mehnat va ish haqiga munosabat;
- mehnat va birgalikda ishlaydigan ishga moyillik kabilar kiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim o'rganilganda «obyektiv» guruhlarining subyektiv rejasi va «subyektiv» guruhlarining obyektiv rejasi ko'rib chiqiladi.

Obyektiv asoslangan guruhlar iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi. Ular ixtisoslashgan mehnat taqsimotida o'z ruhiy holatining yordami bilan eng yaxshi yoki yomon obyektiv mulk holatiga erishadilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy stratifikatsiya qiyinchilik va qarama-qar-shiliklarga ega. Ayrim hollarda ijtimoiy-iqtisodiy tizim ortiqcha murakkablashtiriladi, asosiy ijtimoiy guruhlar va farqlar «so'ndirib qo'yiladi», ayrimlarida esa asosiy detallar qoldirilib yoki ortiqcha soddalashtiriladi.

Aktual bo'lmasligidan butun sinflar hisobga olinmasligi mumkin. Ishchi tashkilot bilan tanishib chiqayotganda, ma'mur mutaxassis, tajriba va fikrlash darajasiga ega bo'lgan odamlarning turli kategoriya va turlarini ko'rish mumkin.

Guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy farqlari ahamiyatga tobe bo'lganligi uchun, ular ozmi-ko'pmi «muhim» bo'ladi. Bir xil farqlarning ahamiyati har xil vaziyatlarda bir xil emas, ya'ni nisbiy bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy farqlarning nisbiyligi jihatidan aniq shakllari mavjud:

1. Texnika taraqqiyoti natijasida kasb va mashg'ulotlarda, ish joylarining keskin etishmasligi sharoitida juda ko'p farqlar «o'chirilib» yuboriladi; odamlarning moddiy rag'batlantirilgan orientatsiyasi kuchli bo'lsa, bu farqlarga kam ahamiyat beriladi.

2. Hammada (o'rtacha) daromad yuqori bo'lsa yoki ularni realizatsiya qilish imkoni bo'lmasa yoki jamiyat, mavjud individlar va guruhlar ma'naviy qadriyatlarga qaratilgan bo'lsa, daromaddagi farqlar unchalik muhim bo'lmaydi.

3. Ishsizlik vaqtinchalik bo'lsa yoki ishlovchilar, o'rtacha olganda, past ish haqi olishsa yoki ishsizlik nafaqalari etarli darajada yuqori bo'lsa, bandlik yoki ishsizlik odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini yaqqol bildirmaydi.

4. Ma'lumotga ega bo'lish mehnat xarakterining faqat kasbiylik va ish bilan hayotning kichkinagina nyuansi bo'lishi, odamning ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolini aniqlovchi, o'ziga xos kapital rolini bajarishi mumkin. Ayrim holatlarda ma'lumot bandlikni kafolatlovchi, ishsizlikka imkon beradigan yoki bu munosabatda hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan omil hisoblanadi.

5. Mulkchilik odamlar uchun bir xil bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatni kasb etadi. Mulkchilik – bu, individ va gypyh uchun shaxsiy ishlab chiqarish vositalarining yiriklashuvi va rivoji, daromadlar va erkin mehnatning barqarorligidir.

6. Odamlarning o'ziga xos fazilatlari nisbiylik printsipiga bo'ysunadi. Agar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, vaziyatlar, hodisalarda qandaydir ahloqiy va ma'naviy xususiyatlar ahamiyatsiz bo'lsa (na muammolarni, na muvafaqqiyatlarni «barpo» etmaydilar), boshqalarda esa ular individ va guruhlarining mezoni, yutuqlarini belgilaydi.

Ishlab chiqarish, uning tarixiy shakllari va vazifalari. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va kasb. Taqsimot munosabatlari sotsiologiya predmetiga taalluqli bo'lib, uning tarkibiga ishlab chiqarish qurollari taqsimoti, jamiyat a'zolarining

ishlab chiqarishning turli tarmoqlari bo'yicha joylashuvi va jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish qurollari va iste'mol mollari kiradi. Mohiyat e'tibori bilan taqsimot munosabatlari mavjud ishlab chiqarish munosabatlari harakteriga mos keladi.

Alohida kishilar va ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatining mohiyati taqsimot munosabatlari harakteri bilan belgilanadi. Ijtimoiy guruhlar, tabaqalar va alohida olingan kishilarning real daromadlari darajasi, bu daromadlarning o'zgarishi va rivojlanishi istiqbollari ularning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalarini belgilaydi.

«Nima uchun iqtisodiy hayotda qandaydir ijtimoiy guruhlarini ajratish kerak?», «Qaysi vaziyatda makro va mikro iqtisodchi, ishlab chiqarishning tashkilotchisi, menejeri, mutaxassisi bunday guruhlarining omiliga yoki fenomeniga o'z e'tiborini qaratadi?» - degan savollar tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili asosiy yo'nalishlarini ta'riflash lozim:

1. Mehnat taqsimotining iqtisodiy va sotsiologik nazariyalari ma'lum. Birinchisiga binoan obyektiv qonunlar va xo'jalikning rivojlanish ehtiyojlarini har xil tarmoq, jarayon, mehnat va bandlik turlarida rivojlantirish uchun dastlabki asos yaratib, o'ziga odamlarni jalb qiladi, ish kuchining munosib kategoriyalarini shakllantiradi. Shunday qilib, sof iqtisodiy printsipga asosan ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar vujudga keladi. Sotsiologik nazariya tarafdorlari bu masala bo'yicha teskari fikrlaydilar.

Birinchidan, iqtisodiy differentsiatsiyaga nisbatan ijtimoiy differentsiatsiya boshlang'ich deb hisoblanadi. Dastlab ijtimoiy guruhlar paydo bo'lib, ularning mavjudligi mehnat taqsimotiga sabab bo'ladi. Bandlik va mehnat odamlarni guruhlarga bo'ladi va aksi, odam guruhlari o'zaro mehnat va bandlikka bo'linadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy nuqtai nazardan xo'jalikning bitta tizimi talab qilinadi, lekin ma'lum guruh va guruhlararo munosabatlar psixologiyasi kasbiy-mehnat yo'nalishi va ta'limda, kadrlarning mobillik va barqarorligida, bandlik printsipi va jarayonlarida zid, qarama-qarshi g'oyalarni vujudga keltiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy guruhlarda o'ziga xos inertsia mavjud. Iqtisodiyotning tuzilishini tubdan o'zgartirishga harakat qilganlar «insoniylik» qiyinchiliklariga duch keladilar – bir qator odamlar guruhi odatdagi hayot tarzini, ijtimoiy aloqalarni, o'z-o'zini anglashini o'zgartirishni, bandlikda va ishda «yangi rollarni yodlashni», o'zlarini urintirishni xohlamaydilar.

2. Ishlab chiqarishda va iste'molda band bo'lgan paytda odamlar har doim bir nimalarni o'zaro taqqoslaydi, taqsimlaydi, ya'ni rahbarlik organlari orqali o'zlarining munosabatlarini tartibga solib turishadi.

Shunday qilib, ijtimoiy guruhning mavjudligi – bir vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi mezonlar va asboblarning vujudga kelishidir (mezon - predmetni, asbob - ta'sir o'tkazish usulini ko'rsatadi).

3. Ijtimoiy guruh – iqtisodiy hayotning asosiy subyekti. Unga odamlar ishlab chiqarish va daromadda manfaatlarini himoya qilish, o'zlarining maqsadlariga etishish uchun har xil tashkilotlarga, assotsiatsiyalarga, korporatsiyalarga birlashadi. Bularning hammasida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xulq mavjud.

4. Ayrim guruhlarda ijtimoiy-iqtisodiy tizim va holatni ta'riflovchi omillar bo'ladi. Ular o'zlarining xulqi bilan qandaydir muammolarni tug'diradilar yoki ularning qiziqishi butun iqtisodiyotning rivojlanishini ko'zda tutadi yoki qobiliyatlari iqtisodiy tadbirlarda va tendentsiyalarda rahbarlik rolini bajarishga imkon beradi.

5. Ayrim guruhlar ijtimoiy-iqtisodiy tizim va holatning indikatorlari bo'lishi mumkin. Aynan shu guruhlarining fikr-mulohazalari va ruhiy holatlari – muammolar, xatolar, strategiya va siyosat rivojlanishida o'zgarishlar zarurligining ishonchli ko'rsatkichi hisoblanadi.

6. Iqtisodiy hayotning har xil subyektlari xulqi – bu, ko'pincha ijtimoiy xulq. Iqtisodiyotda har xil muammolarning egalari quyidagicha harakat qilishini doimo hisobga olish muhim:

- guruh shaklda, guruh sifatida;
- qandaydir guruhga nisbatan, uning mavjudligi va xarakterini hisobga olgan holda;
- guruh sharoitida va uning ta'sirida;
- guruhning vakillari sifatida.

7. Amaldor va menejerlar tashkilot va boshqaruvda ijtimoiy guruh omilini beixtiyor hisobga oladilar. Aynan har xil ijtimoiy-guruhiy holat (bir xil turdagi - har xil turdagi, to'qnashuvlik – jipslik, qo'llab-quvvatlash va qarama-qarshilik kuchlari nisbati, biron narsaga qiziquvchanlik - qiziqmaslik) xulqni va boshqaruv organi tomonidan masalalarni qabul qilishni belgilaydi, boshqaruv va tashkil etishni murakkablashtiradi yoki engillashtiradi.

Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik. Mehnat tarixan jamiyatni tabiatdan, insonni bo'lsa hayvonot olamidanda ajralishiga sabab bo'ldi va imkon tug'dirdi.

Mehnat jarayoni o'z ichiga uch lahzani kiritadi: 1) insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o'zi; 2) mehnat mavzusi, ya'ni bu faoliyatning nimaga yo'naltirilganligi; 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson ushbu mavzuga ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning turli rivojlanish bosqichlarida mehnat davr ijtimoiy munosabtlarning rivojlanish ko'rsatkichlari hisoblangan turli shakllarda ko'rinadi.

«Mehnat sotsiologiyasi» darsligi mualliflarining haqqoniy ta'kidlashlaricha, mehnat mazmundorligining asosiy elementlari bo'lib, agar uni mehnat faoliyatining ijtimoiy-psixologik tuzilishi sifatida tushunilsa, quidagilar hisoblanadi:

– maqsad - oldindan seziladigan natijalarni tan olingan obrazi bo'lib, ta'sir qilishning ideal rejasi;

– mehnatga munosabat - uning asosida mehnatning ongliligini va maqsadga tegishlilikni o'zinikidek sezish, atrof olamni, shaxsiy reja bo'yicha qayta rivojlantirish;

– mehnatni ragbatlantiruvchi omillar - mehnat faolligiga undovchi tashqi omillar;

– mehnat asoslari - muhim bir narsadek tan olinuvchi ehtiyoj, ichki ragbatlantiruvchi omillar;

– qadriyatlar va ularga qarab mo'ljallash - mehnat faoliyatining ahloqiy talabi.

Mehnat jamoalarining sotsial harakteri va asosiy funktsiyalari. Mehnat jamoalari ijtimoiy hayotning noyob hodisasidir, ular hozirgi jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan besh jihatni ta'kidlab o'tamiz.

Birinchidan, mehnat jamoalari barcha asosiy moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchilardir.

Ikkinchidan, ish bilan band aholining hamma asosiy kategoriyalari – barcha millatlarga mansub ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, xizmatchilar mehnat jamoalarida jamlangan.

Uchinchidan, mehnat jamoalari – umuminsoniy va sinfiy, shuningdek bizning sharoitdagi milliy jihatlar dialektikasining, ularning demokratik negizidagi o'zaro hamkorligining, garchi yagona bo'lmasada timsolidir.

To'rtinchidan, mehnat jamoalari jamiyatimiz sotsial strukturasi alohida «qavat»ni tashkil etuvchi sotsial subyektlar bo'lib, burjua davlatlarida ularni sotsiallashtirish sari bo'lgan barcha harakatlariga qaramay, bunga o'xshash «qavat» umuman mavjud emas. Ana shu «qavat» subyektlari o'zaro mehnat taqsimoti hamda boshqa aloqalarning yaxlit sistemasi bilan birlashtirilgan. Mehnat jamoalarining o'z a'zolari-jonli kishilar bilan aloqalari ham juda katta ahamiyatga ega, zero ularning qiziqishlari va xatti-harakatlari ana shu kollektivlarning o'z faoliyatiga qaraganda xilma-xilroq, boyroqdir, chunki u «o'rtachalashtirilgan» sifatida maydonga chiqadi.

Mexnat jamosi ishlab-chiqarish korxonasi, muassasa va hokazolar bazasida faoliyat ko'rsatuvchi sotsial guruhdir.

Beshinchidan, bozor munosabatlari o'tish muammosi sababli, mehnat jamoalarining ahamiyati haqidagi masala alohida aktuallik kasb etmoqda.

So'l-o'ng yo'nalishi, biz allaqachon ko'rayotganimizdek, xususiy tadbirkorlik negizlarini hukmron negizlariga aylantirishga, ya'ni sinfni-tadbirkorlar sinfi asosida shakllantirishga, iqtisodiyotda mulkchilikning turli xil shakllarini ko'rishga intilmoqda.

O'ng-so'l yo'nalish iqtisodiyotning bozorga daxlsiz shakllari ustun turishini ko'zlaydi, tadbirkorlikka ikkinchi darajali o'rin ajratadi, mehnat jamoalarining rolini bo'rttiradi, lekin shu bilan birga ular kuch-harakatlarining samaradorligini keskin oshirishga qodir bo'lgan mexanzimlarni olg'a surmaydi.

Agar biz mehnat jamoalarini rivojlantirish asosiy harakatlantiruvchi kuchi deb e'tirof etsak, sobiq totalitar tuzum uchun ana shunday mexanizmlarni shakllantirishdan muhimroq yumush bo'lmaydi.

Ana shu muammoga to'xtashdan oldin shuni eslatish kerakki, jamiyatda har doim olg'a qarab harakat qilish uchun ham, bir joyda deysinib turush uchun ham manba bo'lishi mumkin bo'ladigan bir talay ziddiyatlar mavjudur. Deysinishda ziddiyatlar ko'pincha, ayniqsa jamiyat rivojlanishining teng davrlarida illatli doira shaklida maydonga chiqadi. Juda murakkab muammolarni oxirigacha hal etish uchun texnologik to'ntarishni amalga oshirish talab qilinadi, lekin buning uchun iqtisodiy maqbul sharoitlar zarur. qishloqqa sanoat tomonidan yordam

ko'rsatmasdan turib, oziq-ovqat muamosi mavjudligi mushkullashib boradi va hokazo.

Mehnat jamoalarining harakatlarini uyushtirish orqali butun jamiyatimiz uchun foydali bo'lgan bir qator maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish zarur:

1. Mehnat jamoalarining kuch-gayrati eng yirik texnik-iqtisodiy, sotsial, siyosiy, madaniy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xo'jalik yuritish shakllarini tanlashda jamoalarning mustaqilligi, mehnatdagi intizom, uyushqoqlik, mas'uliyatlilik, jon kuyarlik bilan tadbirkorlikni birlashtirish ta'minlanadi. Shu jumladan o'z-o'zini samarali boshqarish negizida tadbirkor-rahbarlar bilan ishlash mehnat jamoalari o'rtasida yaqindan o'zaro hamkorlik o'rnatilishiga erishiladi.

2. «Samarasi, konstruktiv ish yo'lida plyuralizm» shiori ostida mehnat jamoalarini integratsiyalash potentsiali ko'paytiriladi.

3. Mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish va bajarishda mehnat jamoalarining kuch-harakatlari birlashtiriladi.

4. Guruhiy xudbinlik, millatchilik va boshqa salbiy tendentsiyalarga qarshi turiladi.

Mehnat sohasida ijtimoiy birlikning asosiy ko'rinishi mehnat jamoasi hisoblanadi. Mehnat jamoalaridagi mehnatkashlarning o'zaro munosabatlari, mehnat jarayonidagi ijtimoiy vaziyatlar va mehnat munosabatlari shular jumlasidandir. Mehnat munosabatlari mehnat jarayonidagi ishtirokchilar o'rtasida yuzaga kelib, iste'mol qiymatini yaratish va mehnat kooperatsiyasi hamda mehnat taqsimoti asosida sodir bo'ladi. Mehnatning huquqiy munosabatlari mehnat jamoasi kasaba uyushmalarining korxonalar, tashkilot ma'muriyati, xususiy tadbirkorlar bilan bo'ladigan o'zaro huquqiy aloqalarni ham o'z ichiga oladi.

Mehnat unumdorligi, mahsulot sifati, mehnatni muhofaza qilish, mehnat va davlat intizomi, ishchi va xizmatchilarga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bilan bogliq takliflar, mehnat jamoasi kengashi bilan kasaba uyushmasi qo'mitasining birlashgan kengashida, korxonalar ma'muriyati ishtirokida muxoqama qilinadi. Shundan so'ng tushgan qo'shimchalar va takliflar bilan qayta ko'rib chiqilgan jamoa shartnomasi korxonalar mehnat jamoasining umumiy yig'ilishiga muhokama va qabul qilish uchun tavsiya etiladi.

Jamoa shartnomasi tarkibiy qismlari va mazmunini mehnat jamoasi, korxonalar ma'muriyati va kasaba uyushmasi komiteti mustaqil ravishda belgilaydi.

Jamoa shartnomasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadigan xalq xo'jaligi tarmoqlarining mustaqil balansga ega bo'lgan va yuridik shaxs hisoblanadigan korxonalar va tashkilotlarda tuziladi.

1996 yil 1 aprelda amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi» bozor munosabatlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumnini tarkib topishida muhim o'rin tutdi. Kodeksda mehnat munosabatlarini yangi sharoitda tartibga solishga qaratilgan qonun qoidalar 294 moddani tashkil qiladi. Bu qonun-qoidalar mehnat bozorining samarali amal qilishiga xizmat qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb masalalaridan biridir. Bu muammoni hal etib borilishi yoshlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab masalalarining echimini topishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Chunki, turli sabablarga kura yoshlar tarkibida ish bilan bo'lmaganlar

soni ko'pchilikni tashkil qilmoqda. Bular o'rta umumta'lim maktablarini (9 sinfni, 11 sinfni) bitirib o'kishga yoki biror ishga jalb qilinmagan yoshlar, hunar bilim yurtlari, urta maxsus va oliy o'quv yurtlarini bitirib o'z sohalari bo'yicha faoliyat ko'rsata olmayotgan mutaxassislar, harbiy xizmatni tugatib kelganlarning ayrim qismi, ish joylarining qisqarishi sababli ish joylarini vaqtincha yo'qotgan, ishlab chiqarishdagi tangliklar tufayli faoliyat ko'rsata olmayotgan korxonalarda "ishlayotgan" yoshlar, va ish kabilar ishsizlar safini kengayishiga olib kelmoqda. Bir tomondan bu xol bozor munosabatalari amal qilayotgan jamiyatdagi odatiy xususiyatdir. Ikkinchidan sobiq tuzumdan bizga butunlay yangi hisoblangan bozor munosabatlariga utish bunga sabab bo'ldi, chunki sobiq tuzumda ish bilan bandlik masalasi va u bilan shu·ullanish butunlay davlat zimmasidagi vazifa edi. Endilikda bu xol deyarli o'zgarib ko'pgina illatlardan xoli bula olmayaptilar. Bu holatlar albatta, utish davrining kusurlaridir. Shunga qaramasdan bu muammo o'z echimini topishi lozim bo'lgan vazifadir.

O'tish davrining xususiyatlardan kelib chiqib, islohotlarni amalga oshirishda davlat bosh islohotchi degan tamoyil amal qilmoqda. Ya'ni respublikamizda xukumat darajasida vaqtincha ish bilan ta'minlanmagan shaxslarga ijtimoiy madad berishga katta e'tibor karatilmoqda. Shu bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunga muvofiq ishsizlarga maxsus nafaqa to'lanmoqda, ularni qayta o'qitish va yangi kasblarga urgatish tashkil etilgan. Mehnat bozorini tartibga solishning respublika tizimi barpo etilgan. Davlat ish bilan ta'minlash xizmati tashkil etilgan. Aholini shu bilan ta'minlash va ijtimoiy ximoyalashga kumaklashuvchi jamg'arma tashkil etilgan. Respublika hududidagi shahar va tumanlarda 220 ta mehnat birjasi ishlab turibdi.

Mustaqillikning dastlabki odimlaridan boshlab respublikada umumiy ma'lumot va tirbiyani, kadrlarning kasb-korga yo'nalish olishini, ularni tayerlash, qayta tayorlash va malakasini oshirishni o'z ichiga oluvchi yagona uzluksiz milliy ta'lim tizimini yaratishga e'tibor qaratilgan va nihoyat 1997 yil 29 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida "Kadrlar tayyorlash Milliy dastur " ni qabul kildi. Bu dasturni hayotga tatbik qilish boshqa masalalar va dolzarb muammolarini hal qilish jaraenida ish bilan bandlik va ishsizlik masalasini hal qilishga erdam beradi.

Yoshlarning ishsizlik va ish bilan bandligi hal qilishda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jaraeni muhim rol o'ynaydi. Hozir respublikamizda yuqoridagi muammoni oqilona hal qilishga birmuncha halakit beradigan vaziyat mavjud. Bu mamlakat aholisining 65 foizga yaqini qishloqda yashaetganligi va ular migratsiyaga juda kam moyilligi bilan ajralib turadilar. Mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi 6, 5 million kishini tashkil etadi, ammo respublika agrar bo'lishiga qaramay buncha ish kuchini ish bilan (qishloq xujaligida) ta'minlashga imkoniyat va sharoit mavjud emas.

Hozir qishloq xujaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko'progi band. Ularni bo'shatib olish va iqtisodietning boshqa sohalariga, eng avvalo, sanoatga va xizmat ko'rsatish sohasiga yunaltirish iqtisodietda tarkibiy o'zgarishlar qilish hamda uni jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Eng avvalo kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobigagina g'oyat keskin muammoni - aholining (ayniqsa ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan qishloq joylar va mintaqalarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasi hal etilishga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek qishloqqa sanoatni olib kirishga alohida e'tibor berib, ishlab chiqarishning biz uchun yangi bo'lgan sohalarini olib kirish ishsizlik masalasini hal qilishga yordam beradi.

Iqtisodiyot tarkibida kichik, o'rta va xususiy biznes munosib o'rin egallashini hisobga olib, yaqin ikki - uch yil ichida kichik va urta korxonalar sonini ikki baravar ko'paytirib, yalpi milliy maxsulotda ularning ulushini kamida 25 foizga yetkazish vazifasi dolzarb qilib qo'yilgan. Bu yoshlar imkoniyatlarini kengroq namoyon bo'lishiga va ish bilan bandlik masalasini hal qilishda alohida o'rin egallaydi. Shuningdek kichik xujaligining o'zida ham bozor munosabatlari maxsul bo'lgan fermerlik, dehqon xo'jaligi yuritish sohalarini rivojlantirish orqali ham ishsizlik muammosi echilishi mumkin.

Umuman, bu muammoni hal qilish barchaning ishi bo'lgan takdirdagina kutilgan ijtimoiy natija berishi mumkin.

Uz navbatida hozir respublikada hal kilinaetgan eng dolzarb muammolardan biri ishlashni xoxlovchilarning hammasini ish bilan ta'minlash hisoblanmaydi. Balki eng makbul, ijtimoiy yo'naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirishdan iborat. Bunda mehnat bozori muhim rol o'ynaydi. Mehnat bozori mehnat resurslarini ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni shakllantirish asosida, xo'jalik yuritish sohaları va tarmoqlari, mashg'ulot turlari va shakllari bo'yicha aniq maqsadni ko'zlab taqsimlash va qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Bundan odamlarning bir qismi ishsiz qolsa (bu esa biz uchun kutilmagan xol) qishloqlar ko'payib ketadi degan xulosa chiqarmaslik kerak. Chunki mehnat bozori bo'lmasa, ishchi kuchi tovarga aylantirilmasa, bozor munosabatlari amal qilishi bir yoqlama hal bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, bu sohadagi vazifa respublikaning har bir fuqarosiga (tayyor ish joyi bilan ta'minlash kafolati emas) mehnat faoliyatining turi va shaklini erkin tanlash uchun chinakkam imkoniyat yaratishdan iborat.

Davlat va jamiyatning siyosiy tizimi. Jamiyatning siyosiy tizimi ijtimoiy guruhlarining xilma-xil ehtiyojlari va manfaatlarini o'zida ifodalashga va ularni hayotga tadbiq etishga qaratilgandir. O'z o'rnida ijtimoiy guruhlar va siyosiy institutlar bevosita va bilvosita siyosiy hokimiyatning amal qilishga hissa qo'shadi yoki bu jarayonlarda ishtirok etadi. Ijtimoiy tabaqalar va guruhlar manfaatlari talablar va qo'llab-quvvatlovchi omillar sifatida siyosiy tizimga ta'sir etadi va siyosiy tizim bag'rida o'zgarishlarga uchrab siyosiy qarorlar sifatida jamiyatning birligini saqlaydi. Shuningdek jamiyat siyosiy tizimi kengliklarida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotga mansub bo'lgan turli tuman ijtimoiy tabaqalar manfaatlari munosabatlarga va ziddiyatlarga kirishadi va ular o'zaro kelishadilar. Demak, jamiyat siyosiy tizimining bosh maqsadi jamiyat va davlatning barqaror yashashini va doimiy faoliyatini ta'minlash va ularni muvofiqlashtirishdir.

Shuningdek, jamiyat siyosiy tizimi ijtimoiy kelishmovchiliklar va ziddiyatlar o'zaro kelishuvini ta'minlaydi, ular o'rtasida paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish mexanizmlarini shakllantiradi, o'zaro ijtimoiy tabaqalar va guruhlarning qadriyatlarini o'zaro taqsimlashga doir turli manfaatlar va ehtiyojlarini kelishtiradi. Shu jihatlardan yondoshganda jamiyat hayotini o'rganish siyosiy hayotning barcha jabhalarini tushunish va anglashga yordam beradi. Ma'lumki, jamiyat siyosiy tizimining paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Davlatning tarixiy rivojlanish bosqichlariga hamohang ravishda jamiyat siyosiy tizimi tobora takomillashib va murakkablashib borib, hozirgi davrga kelib u fuqarolik jamiyatiga xos ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston sharoitida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

I.A. Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish vazifasini qo'ydi. Chunki bu masala mamlakat siyosiy hayotini davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish jarayonlari bilan bog'liqdir. Bu borada Prezident I.A. Karimov shunday degan edi. «O'zbekistondagi islohotlar va yangilanish jarayonlariga baho berar ekanmiz, shuni ta'kidlashni istardimki, hayotimizning barcha sohalarida erkinlashtirish o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi». (Shu asar, 1999, 15-16 bet).

Iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish esa demokratik jamiyat qurilishining asosi sifatida uning iqtisodiy negizlarini mustahkamlashni ta'minlaydi. Natijada jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlovchi, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi amalda o'rta mulkdorlar sinfi shakllandi.

Prezident I.A. Karimov iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish yuzasidan quyidagi vazifalarni belgilab berdi:

Birinchidan, mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal qilish. Buning uchun xususiy mulkchilik etakchi o'rinda turadigan ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish.

Ikkinchidan, haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish;

Uchinchidan, bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish;

Beshinchidan, valyuta tizimi va bozorni erkinlashtirish.

Oltinchidan, davlat va turli tekshiruvchi, nazorat qiluvchi organlar tomonidan korxonalarining xo'jalik faoliyatiga noo'rin aralashishni cheklab qo'yish.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, iqtisodiyotni davlat tasarrufidan chiqarish, unda demokratik tamoyillari bo'lgan iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va tanlash ekinligini, erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali iqtisodiy hayotni erkinlashtirishga yo'naltirilgandir. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda huquqiy ongning o'ziga xosligi. Demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayonida fuqarolarni huquqiy tarbiyalash, ularning huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish muxim axamiyatga egadir. Bu masalaga I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq aloxida e'tibor berib

kelmoqda. Chunki, o'zbek modeli taraqqiyot yo'lining asosiy tamoyillaridan biri bu qonunning ustuvorligidir. qonunning ustuvorligini ta'minlashning muxim shartlaridan biri esa huquqiy ong, huquqiy madaniyatning qay darajada shakllanganligi bilan belgilanadi. huquqiy madaniyat bu insonning davlat va huquq haqidagi muxim bilimlarni egallash tajribasidir. huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning muxim yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir.

1. Yuksak darajada rivojlangan yuridik fanlarning mavjudligi huquqiy ong va huquqiy madaniyatning muxim qismidir.

2. Keng va faol huquqiy ong huquqiy madaniyatning bir qismi bo'lib u davlat va huquqiy voqeliklar haqidagi goyalar, qarashlar va fikrlar tizimidir.

3. Barcha to'plangan huquqiy tajriba va manbalar ularning ommaga tarqatilishi huquqiy madaniyatga kiradi.

4. Amaldagi me'yoriy huquqiy xujjatlar: konstitutsiya, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa huquqiy manbalar huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi.

5. Olimlar, huquq ijodkorlari, deputatlarning huquqiy bilimlari, dunyoqarashi qanchalik yuqori va xolisona bo'lsa huquqiy madaniyat xam shunchalik yuksak bo'ladi. huquqiy madaniyatning yana bir qismi-xuquqni amalga oshiruvchi davlat idoralari va mansabdor shaxslarning qaydarajada o'z huquq va burchlarini bajarishi va ularni anglab olishidir.

6. Mamlakatning xayotidagi qonunchilik darajasi, xammaning qonun va sud oldidagi tegishli huquqiy madaniyatni ajralmas qismidir.

Xullas, huquqiy madaniyat inson madaniyatining muxim qismi va u bilan uzviy bog'liqdir.

5-MAVZU: Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor. (4 soat).

Reja:

1. Shaxs tushunchasi talqini.
2. Sotsial me'yor va deviant xulq-atvor turlari.
3. Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik va ijtimoiy-psixologik tomonlari.
1. Sotsial nazorat. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida.

Shaxs tushunchasi. Shaxs – ijtimoiy munosabatlar majmui, jamiyat maxsuli sifatida o'rganiladi. Shaxsiy qarashlarga ega bo'lgan o'zini idora qila oladigan, o'zining kelajagini rejalay oladigan insonga shaxs deyiladi. Shu sababli shaxs tushunchasi sotsiologiya fanining obykti va subyekti sifatida shu fanning markazida bo'ladi. Individ sifatida namoyon bo'lgan mavjudot ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs sifatida shakllanadi. Individning jamiyat bilan o'zaro munosabati uni ma'lum bir sotsial jamoa vakiliga aylantiruvchi turli guruhlar orqali yuzaga keladi. U munosabatni amalga oshirishda muloqot asosiy rol o'ynaydi. Chunki, muloqot shaxsning asosiy ijtimoiy munosabatlar sistemasiga o'zining maqomiga ega bo'lishida, faoliyati jarayonida va kundalik turmush tarzida asos sifatida shakllanganligini va boshqa shaxslarning ijtimoiy muhitning haqiqiy subyekti yoki uning ijrochisi shakllangani to'g'risida tushunchaga ega bo'lishida muhim

ahamiyat kasb etadi. Shu sababli shaxs jamiyatdagi barcha munosabatlarning shakllanishi va sotsial dinamik xarakterini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxs tushunchasini turli fanlardagi talqini. «Shaxs» bir qator gumanitar fanlarning falsafa, ruhshunoslik, pedagogika va sotsiologiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Falsafa shaxsni faoliyat subyekti, ong va ijodiyot sifatida tutgan o'rni, nuqtai-nazaridan qarab chiqadi. Ruhshunoslik - shaxsni ruhiy jarayonlar, xususiyat, qobiliyat, iroda sifatleri va boshqa jihatlardan barqaror yaxlit holda o'rganadi.

Sotsiologik yondashuv shaxsning sotsial-tipik jihatini ajratadi. Shaxs sotsiologik nazariyasining asosiy masalasi shaxsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirish, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilishi, jamiyat bilan shaxs aloqalari, shaxs va guruhlar, shaxsning sotsial fe'l-atvorini, tartibga solish qonuniyatlarini o'rganish bilan chambarchas bog'langan. Bu yerda, sotsiologiyada shaxsni o'rganishga ayrim umumiy tamoyilar nuqtai-nazaridan yondashuv ifodalangan.

Shaxs, inson, individ tushunchalari. Shaxs sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda shaxsning o'zi nima? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, «inson», «individ», «shaxs» tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. «Inson» tushunchasi, umumiy, hamma uchun xos bo'lgan sifat va qobiliyatini izohlash uchun qo'llaniladi. Bu tushuncha dunyoda mavjud bo'lgan, tarixan o'ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o'laroq o'ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi.

Ushbu hayotiy faoliyat usuli tufayli inson tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida, dunyoning barcha nuqtalarida o'ziga o'xshash bo'lgan antologiyaga oid holatni saqlab qoladi.

Demak, insoniyat o'ziga xos moddiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi. Ammo, insoniyat o'z holicha mustaqil mavjud bo'lmaydi.

Aniq insonlar yashaydilar va harakat qiladilar. Insoniyat alohida vakillarining mavjud bo'lishi «individ» tushunchasi bilan ifodalanadi. Individ - bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruhiy jihatlarini idrokiy, irodasi, ehtiyojlari, manfaatlari va hokazolarning sohibi hisoblanadi. «Individ» tushunchasi bu vaziyatda «aniq inson» sifatida foydalaniladi. Masalaning bunday qo'yilishida turli biologik omillar (yosh jihatlari, jinsiy mijozlarining o'ziga xos tomonlari), shuningdek, inson hayotiy faoliyatining sotsial sharoitlardagi tafovutlar belgilamaydi. Insonni turli darajada: yakka tarzda va tarixiy rivojlanishining aniq-tarixiy o'ziga xosligini aks ettirishda «individ» tushunchasi bilan bir qatorda «shaxs» tushunchasi ham qo'llaniladi.

Sotsiologiya shaxsga oid ko'pgina nazariyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular bir-birlaridan qat'iy metodologik ko'rsatmalar orqali farq qiladilar.

Insonning qaysi jihati shaxs tushunchasida nomoyon bo'ladi? Insonning 2 xil ehtiyoji mavjud: tabiiy va ijtimoiy. Tabiiy - bu barcha biologik ehtiyojlar: Ijtimoiy - mehnat faoliyati, ijtimoiy faollik, ma'naviyat va boshqalar.

Shaxs bu insonning jismoniy tabiati emas, balki uning ijtimoiy sifatidir. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlar esa uni maqsadli

faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlar tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadini, mazmunini va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi shaxs faoliyati motivining oliy darajasidir.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang'ich nuqtasi ma'lum ehtiyoj va manfaatlar yuzaga keltiruvchi obyektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'p, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsning moddiy va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar shaxsning tashqi muhitga obyektiv bogliqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyat ehtiyojlarni qondirish shakli sifatida qaralishi obyektiv sharoitlarning in'ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin.

Ehtiyojlarining 2 ko'rinishi mavjud: 1) tabiiy va 2) jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyojlar.

1) Tabiiy ehtiyojlar sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.

2) Sotsial ehtiyojlar esa odamning mehnat qilish ehtiyoji, sotsial aktivligi, ruhiy madaniyati, ya'ni nima ijtimoiy hayot mahsuli shunga bo'lgan ehtiyojdir. Tabiiy ehtiyojlar asos bo'lib, ularda sotsial ehtiyojlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.

Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Shaxs kishining hayot kechirishi sharoitlarida sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar ta'sirida faoliyat jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanishida guruhlar va jamoalar etakchi rol o'ynaydi. Shaxsning shakllanishi, birinchidan, uning rivojlanish davr va uning natijasi, ikkinchidan, shaxsning maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalanishidan iboratdir. Shaxsning rivojlanishini uning faoliyatida o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda aniklanadi.

Shaxs - o'ziga xos intellektual, emotsional, irodaviy-shaxsiy belgi va sifatlarga ega bo'lgan subyekt. Bu belgi va sifatlarning muayyan sotsial-iqtisodiy formatsiyaning mahsulidir. Shaxs o'tmish tarixiy tajribani, o'tmishdagi madaniy boyliklarni o'zida to'playdi. «Shaxs - barcha ijtimoiy munosabatlarning yigindisidir». Jamiyatdan tashqari-dagi shaxs norealdir. Shaxsning shakllanishida:

1) shaxsning rivojlanish davri va uning natijasi.

2) shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalanishidan iboratdir.

Shaxsning tipi u yashaydigan jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga bogliq. Shaxsning shakllanishini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

1) Ijtimoiy siyosiy tuzum.

2) Tarbiya va maorif tizimi.

3) Turmush.

4) Mehnat faoliyati.

5) Ijtimoiy faoliyat.

6) Oila va boshqalardir.

Shaxsning rivojlanishini uning faoliyatida o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida. Shaxs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarning oqibatigina emas, balki sababi hamdir. Jamiyatning tarixiy shakllangan turining iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va sotsial sifatlari o'zgaradi va turlicha namoyon bo'ladi. Har bir shaxsning sotsial sifatlari uning amaliy faoliyatining mazmun va xarakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shaxsning ichki holati ta'sirida uning faoliyatida o'rab turgan voqelikka shaxsiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum bir muhim sharoitlarda individlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga keladigan aloqalar sistemasidir. Shaxsning sotsial xususiyati kishining faoliyati va hatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida namoyon bo'ladi. Shaxsning sotsial sifatida o'zida ma'lum tarzda o'zaro bog'liq va shaxsning boshqa odamlar bilan konkret tarixiy sharoitlarda ma'lum tarzda shartlangan elementlari majmuasini namoyon qiladi. Shaxsning sotsial sifatlarini tashkil qiluvchi elementlarga: shaxs faoliyatining sotsial belgilangan maqsadi; o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar; foydalaniladigan belgilar sistemasi; o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilishi uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi; bilim va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi kiradi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi deb, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli, tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon (ijtimoiylashuv deb ataladi)ga aytiladi.

Shaxsning (individning) sotsial tashkilot elementi bo'lishi 2 muhim jihatga bogliq: 1) sotsial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi bilan qobiliyatining shakllanishiga bogliq.

Shaxs ijtimoiylashuvning 2 fazasi mavjud:

1. Sotsial adaptatsiya (moslashish). Bunda individning sotsial sharoitlarga, funktsiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlariga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptatsiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvida o'z aksini topadi. Shu boisdan individning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi.

2. Sotsial interiorizatsiya, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi, Ko'pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta'sir obyekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Shaxs to'g'risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar. Shaxs mohiyatini nima tashkil etadi? Sotsiologiya tarixidan shaxs mohiyati turli nazariyalarda bayon

etilgan, jumladan Ch.Kuli, R.Darendorf, R.Minton, R.Mertonlarning shaxs nazariyasi shular qatoriga kiradi. Amerika sotsiologlari G.Znametskiy va Ch.Tomaslar shaxs mohiyatini tushuntiradi, uning dunyoqarashi va qadriyatlariga bo'lgan munosabatini asos qilib olishgan. Dj.Mid va R.Mintonlar esa shaxsning roliga katta ahamiyat beradilar. R.Merton va T.Parsonas, R.Darendorflar esa buni yanada rivojlantirib, shaxning "ijtimoiy mavqei" va "ijtimoiy roli" orqali shaxs mohiyatini tushuntirishga harakat qilishgan.

O'z-o'zini baholash va Men-ta'limotining shakllanishi, qadriyatlar va baholar. O'z-o'zini anglash: o'z-o'zini anglashda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ahloqiy va madaniy muhitning ta'siri katta. O'z-o'zini anglash millatlar uchun siyosiy onglilikning oshishigina emas, shu millat bilan birga milliy mustaqillik va milliy ozodlik hamdir. O'z-o'zini anglash jahon tarixida ozodlik harakatlarning kuchayishiga, sotsializm va imperializning emirilishiga, parchalanishiga olib keldi. Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya, Fransiya, Sobiq Ittifoq kabi imperiya davlatlari o'z mustamlakalaridan mahrum bo'ldi. O'zbek millatining o'z -o'zini anglashi moddiy kuch sifatida millat sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, ornomusi tiklanishiga olib keldi. O'z-o'zini anglash millatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdir. Mustaqillik sharoitida o'zbek xalqning o'z -o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

Shaxsning o'z-o'zini hurmat qilishi. Shaxs ijtimoiy mavqei uning tashqi xulqida, tashqi qiyofasida, yurish turishida va hatto muomalasida ham o'z ifodasini topadi.

Shaxsning ijtimoiy roli nazariyasida belgilangan va erishilgan ijtimoiy mavqelari o'zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe - bu shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar shular jumlasidandir. Erishilgan mavqe deganda, shaxsning o'z xatti-harakati, qabiliyati bilan erishgan mavqei tushuniladi. Masalan, yozuvchi, firma boshligi, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shaxsning tabiiy va kasbiy lavozim mavqei ham o'rganiladi. Shaxsning erkak va ayol, bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy lavozim mavqei shaxsning ijtimoiy - iqtisodiy va ishlab chiqarish - texnik holati (muhandis, temirchi, haydovchi va boshqalar)ni bildiradi.

Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'rnini ifodalaydi. Ijtimoiy rol esa shaxsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Bunday shaxs tipiga «yuqori»ga ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o'z mansabini saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofiqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lganlar kiritiladi. Bunday kishilarning shaxs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Shaxs tipining bunday ko'rinishi hozirda ham ba'zan jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shaxs faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendentsiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini

qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir.

Shaxs faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bogliq bo'lgan va qadriyatlarining nomoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyadagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham shaxs sotsiologiyasini o'rganish Vatan, xalq farzandi, haqiqiy chin insonga xos bo'lgan shaxs darajasiga etishini anglab olishimizga yordam beradi. Vatanni sevish, Vatan farzandi bo'lish gururini o'stiradi. Vatan uchun, xalqi uchun kerak bo'lsa jonini fido qilishga shay turish – buyuk insoniy (fazilatdir. Shaxs sotsiologiyasi ana shunday etuk shaxslarni etishtirib berishga xizmat qiladi

Shaxs strukturasi. Shaxs konkret sotsial munosabatlar subyekti sifatida namoyon bo'lishi inobatga olinadigan bo'lsa, shaxsning asosiy sotsial sifatlari konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning sotsial sifatlari uchta kichik sistemadan iborat:

- a) shaxsning individualligi;
- b) uning shaxslararo munosabatlari;
- v) munosabatlar subyekti sifatida mavjud bo'lishi.

a) Shaxsning individualligi undagi xarakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlar uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Individual xususiyatlar amaliy faoliyatlar jarayonida tashkilotchilik va boshqaruvida shu faoliyatning asosiy xarakterini belgilaydi. Bu xususiyat obyektidagi sotsial muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik tadqiqotlar natijasini ichki yoki tashqi kuzatish metodlari orqali uning individual xususiyatini bilish shaxsning ijtimoiy faoliyat jarayonidagi rolini belgilaydi.

b) Shaxsning shaxslararo munosabati shu munosabatlar sistemasining elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosiy sifatida xizmat qiladi. Shu sababli shaxsning shaxslararo munosabatlari unda insoniylik, poklik, rostgo'ylik, samimiylik kabi hislarning shakllanishida va takomillashib borishida alohida o'rin tutadi.

v) Shaxsning ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlaridagi subyekt sifatidagi maqomi belgilaydi.

Shaxs turlari. Hozirgi davrda jamiyatimizda shaxsning quyidagi belgilari mavjud:

1. Birinchi grupp shaxs belgisi: jamiyatga, siyosatga munosabati bilan bogliq, (Vatanga sadoqat, o'lka boyligi xo'jayini ekanligini anglash, optimizm, maqsad sari intilish, intizomlilik, uyushqoqlilik, aktiv hayotiy pozitsiya va boshqa).

2. Ikkiichi grupp shaxs belgisi: uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan harakterlanadi (mehnat qilish, so'z bilan ish birligi, bilim olishga intilish, madaniyatga intilish, mehnatda tashabbuskorligi va boshqa).

3. Uchinchi grupp shaxs belgisi: uning boshqa kishilarga bo'lgan munosabati bilan bogliq (Kishilarni hurmat qilish, qardoshlik, tugrilik, ahloqiylik).

Shaxsning asosiy xislatlari, bular:

- onglilik;
- ma'naviy boyluk;
- ijtimoiy munosabatlar;
- jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik;
- javobgarlik.

Insonning ijtimoiy sifatlarini belgilovchi omillar:

1) ijtimoiy maqsadi:

- a) egallab turgan maqomi;
- b) bajarayotan ijtimoiy roli;
- v) normalar va qadriyatlar;

- madaniyat;
- inson foydalanadigan belgilar tizimi;
- bilimlar;
- bilim va maxsus tayyorgarlik darajasi;
- ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklar;
- yechimni qabul qiladigan mustaqillik;
- faollik.

Shaxsning an'anaviy va zamonaviy turlari. Shaxsning an'anaviy va zamonaviy turlarida bir muncha farqlar mavjud. An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralangan edi. Chunki, an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faollligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etar edi.

Zamonaviy jamiyatning paydo bo'lishi bilan insonning siyosiy va ijtimoiy munosabatlardagi o'rni yuksalib bordi. Bu jamiyatlarda o'zaro munosabatlarning bir-biriga ta'sir etish darajasi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi- uning sekinlik bilan yuksak ta'lim va tajribaga, shuningdek, yuqori kasbiy malakaga asoslanishi, ijtimoiy munosabatlarni qonunlar, me'yorlar, shartnomalar asosida muvofiqlashtirish rasmiy tizimining shakllanishi, ijtimoiy boshqaruv takomillashgan tizimini yaratilishi, dinning davlat va boshqaruvdan ajratilishi, ijtimoiy institutlarning ko'payishi va rivojlanishi kabi omillar natijasida insonlararo munosabatlar yuksalib, siyosiy institutlarni nazorat etish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish, jamiyatda tenglik o'rnatish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) tushunchasi. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlari ham mavjud bo'lib, sotsiologiyada bu narsa «Deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq atvorni «Deviant xulq-atvor» deb nomlanadi. Deviant xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan ahloq me'yorlarga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor muammosini o'rganish sotsiologiyadagi ilmiy yo'nalish sifatida. Deviant so'zi - lotincha “deviatio” so'zidan olingan bo'lib, chekinish, buzilish degan ma'noni anglatadi. Deviant xulq-atvor - mavjud jamiyatda o'rnatilgan ahloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy xodisadir.

Ma'lumki, zamonaviy G'arb sotsiologiyasida deviant xulq-atvoriga turlicha qarashlar mavjud. Deviant xulq-atvorning eng ko'p tarqalgan va jamiyatda yaqqol namoyon bo'lish turi jinoyatchilik bo'lib, ijtimoiy me'yorning buzilishi sifatida ushbu xodisa fanda juda qadimdan o'rganilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib. pozitivistik maktab shakllanishi bilan, jinoyatchilikni ham sababiylikda o'rganuvchi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. Jumladan, italiyalik psixiatr Ch. Lombrozo Italiya qamoqxonalariidagi 14 ming maxbus ustida tekshirish olib borib, “jinoyatchilar tug'ma bo'lishadi” degan xulosaga kelishadi. Uning shogirdi E.Ferri jinoyatchilik sotsiologiyasi asarida ushbu omilga qo'shimcha ravishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni ham ko'rsatadi. Keyinchalik ushbu ta'limotlar turli tanqidlarga uchragan bo'lsada, hozirgi kungacha ham G'arb sotsiologiyasining ba'zi namoyondalari ushbu ta'limotning u yoki bu yo'nalishlarini rivojlantirib kelishmoqda. Ularning ta'limotlariga ko'ra ichki sekretsiya bezlari, aqliy rivojlanganlik darajasi, xromosomalarning tuzilishi va irsiy sabablar jinoyatchilik va shu kabilarni tug'ma yoki biologik omillarni shakllanishiga ta'sir qiladi

Ushbu ta'limotlarga qarama-qarshi o'laroq, sotsiologiyada ijtimoiy me'yor buzish jarayonlarini to'la ijtimoiylikda tushuntiruvchi dastlabki ta'limot E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasi edi. Bunga ko'ra eski me'yorlar va qadriyatlar mavjud munosabatlarga mos kelmay qolishi va yangiliklarining o'rnatilmaganligi natijasida individlar xulq-atvorini tartibga soluvchi qat'iy ahloqning mavjud emasligi tushuniladi.

R.Feris, Tiriakyan, T.Shibutani va boshqalarning fikricha, deviant xulq-atvor sotsial buzilishilar natijasidir. Ijtimoiy ziddiyatlar ta'limotiga ko'ra, sotsial tizimda begona madaniyatga asoslangan madaniy xulq-atvor namunalari me'yor buzuvchi xulq-atvordir.

Amerika sotsiologiyasida E.Saterlendning differentsial, katta o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvoriga, shu jumladan me'yor buzuvchi xulq-atvoriga ham u ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor me'yorlari boshqalarga o'rgatiladi.

Fenomenologik sotsiologiya namoyondalarining e'tirof etishlaricha, sotsiologik taxlil "yorliq yopishtirishga" asoslanishi kerak. Ularning fikricha, me'yor buzish sotsial baho va sanksiya qo'llash natijasidir.

Interaksionizm nazariyasiga ko'ra, (vakillari Bekker G. D.Kitsus, K.Erikson va boshqalar) xodisani salbiy va ijtimoiy xavfli deb baxolash nisbiy bo'lib, buni jamiyatdagi xukmron guruhlar belgilaydi. Shafqatsiz jamiyat himoyasiz insonni jinoyatchi qilib qo'yib, ezaveradi.

Deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o'z-o'zini o'ldirish, giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar. Deviatsiyaning quyidagi klassifikatsiyasi mavjud: jinoyatchilik, alokogolizm, giyohvandlik, suitsid, fohishabozlik.

Alkogolizm (ichkilikbozlik), bayram, tantanali marosimlar, oilaviy tantanalarni o'tkazishda, shuningdek, shaxsiy muammolarni hal etish yo'lida spirtli ichimliklar ichish majburiy bo'lib qolganligi an'anasi insonlar hayotida alkogolni qattiq o'rnashib qolganligiga asos bo'ladi. Lekin bu sotsial-madaniy an'ana jamiyatga qimmatga tushmoqda. Statistika ko'ra, sobiq ittifoq davrida mayda bezorilikni 90%, tajavuzkorlikni 90%, boshqa jinoyatlarni qariyb 40% ichkilikbozlik bilan bog'liq bo'lgan.

Tarix guvohlik beradiki, jamiyat alkogolizmga qarshi 2 yo'l bilan kurashgan:

1) Spirtli ichimliklarni chegaralash, ularni ishlab chiqarishni va sotishni qisqartirish, narxini oshirish, ta'qiq va chegaralarni buzganligi uchun jazoni kuchaytirish yo'lidir.

2) Bu alkogolga ehtiyojni kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlarni kuchaytirish, hayotni sotsial va iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash, umumiy madaniy va ma'naviyatni o'sishi, alohida alkogolsiz fe'l-atvor stereotiplarini shakllantirish yo'lidir. Ikkinchi yo'l maqsadga muvofiqdir, lekin bu alkogolizmga qarshi kurashni administrativ yo'lini rad etmaydi. Bu 2 yo'lni birga ongli ravishda muvofiqlashtirish lozim.

Giyohvandlik (narkomaniya). Shaxsga va jamiyatga bugun buzg'unchi ta'sir ko'rsatuvchi, og'ir sotsial oqibatlariga ko'ra giyohvandlik asosiy o'rin tutadi. Sotsiologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, odamlar rohat olish, o'tkir hissiyotlarga kirishish uchun giyohvand moddalarga berilib qoladilar. Giyohvandlar asosan yoshlar ichida ko'p uchraydi. Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshqa odamlar ta'siri ostida, asosan do'stlari, tanishlari orqali giyohvand moddalarga berilib qolmoqdalar. Xavfli tomni shundaki, narkotiklar qabul qilishni boshlanish etaplarida odam hech qanday yomon ta'sir, og'ir sezmaydi, aksincha giyohvand moddani qabul qilganda kayfiyat ko'tariladi. Jism shunday rohat oladiki, buni ko'pchilik sog'liqqa yaxshi yordam beradi, tinchlantiradi deb o'ylaydi. Jismoniy va psixik degradatsiya bosqichida esa, ular boshi berk ko'chaga kirib qolganligini anglab etadilar. Lekin bu odatdan vos kechishga kuchlari etmaydi, unga bo'ysunib qoladilar. Giyohvandlik bilan kurashida sotsial, iqtisodiy, madaniy xarakterdagi chora-tadbirlar va shuningdek maxsus meditsinaga oid, huquqiy chora-tadbirlardan foydalaniladi.

Suitsid (o'z-o'zini o'ldirish). Suitsid bu odamning o'zini-o'zi o'ldirishga harakat qilishdir. Ko'p hollarda suitsid chetga og'uvchi fe'l-atvor sifatida echilishi mumkin bo'magan muammolardan, umuman hayotdan qutulish usuli bo'lib keladi.

Bunday hollar kuzatilib, o'rganilib, shunday xulosaga kelindiki, ular ma'lum darajada jins, yosh ma'lumot, sotsial va oiladagi tutgan o'rniga bog'liq holda kelib chiqadi. Suitsidlar, asosan rivojlangan davlatlarda ko'p uchraydi va bugungi kunda ularni ko'payishi kuzatilmoqda. Erkaklar orasida sodir etilayotgan suitsid hollari ayol orasidagiga qaraganda ko'proq og'ir ahvollarga olib keladi. O'z joniga qasd qilish 20 yoshgacha va 55 yoshdan oshganlar ichida uchraydi. Hozirgi o'z-o'zini o'ldirish hollari 10-12 yoshli bolalar ichida ham kuchaymoqda. Jahon statistikasiga ko'ra, suitsid fe'l-atvor ko'pincha shaharlarda, yolg'iz yashovchi odamlar orasida kuzatiladi. O'rta Osiyoda 60-yillardayoq ayollar ichida o'z joniga qasd qilish hollari kuzatilgan. Asosan o'zini yoqish ko'paygan. Buning sotsial sababi ayollarga bo'lgan noto'g'ri munosabatlar, ularga jamiyat tomonidan befarq qaralganligi turmushdagi qiyinchiliklar, ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishga, ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etishda zarur shart-sharoitni yaratish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni mahalliy boshqarish organlari tomonlaridan noto'g'ri hal etilganligidir.

Fohishabozlik. Bu termin lotincha «Prostitutio» so'zidan olingan bo'lib, ornomusni yo'qotish, xo'rlash, toptash degan ma'nolarni beradi. Mehnat taqsimoti, shaharlarni vujudga kelishi jarayonida paydo bo'lgan fohishabozlik kapitalistik munosabatlar bilan bir qatorda rivojlanib bordi. XX asrning 20 yillarining boshlaridan Yevropada ham, Shimoliy Amerikada fohishabozlikni kamayishi kuzatilmoqda. Bu an'anani sababi tadqiqotchilarni fikriga ko'ra ayollarni iqtisodiy ahvolini yaxshilanishi, birovga qaram bo'lib qolmasligidir. Sobiq ittifoqda fohishabozlik to'g'risida gapirilmay edi, yaqindan boshlab tadqiqot natijalari ochiq matbuotda e'lon qilina boshlandi, qae'lardadir bu harakatlar qonuniylashtirilgan. 20-yillarda ko'p ayollar bunday ish bilan ochlik va yetishmovchilik tufayli shug'ullanishgan. Ular asosan ma'lumoti past ayollar edi. Bugungi kunda sotsial va yosh bazasini keskin kengayishi kuzatilmoqda. Ayollar bunday ishni ochlikdan, yo'qchilikdan emas, balki moddiy ahvolini yanada yaxshilashga, «chiroyli hayot»ga intilishlari tufayli qilmoqdalar. Fohishabozlikka qarshi turli siyosatlar olib borilgan: progibitsionizm (ta'qiq), reglamentatsiya (ro'yhatga olish va meditsinaga oid ko'rsatish), abolitsionizm (profilaktika), tushuntirish-tarbiyalash ishlari. 1-2 formani etarlicha effektiv emasligi ma'lum bo'ldi. Moddiy manfaatdorlikni o'sishi bilan ayollarni ahloqiy o'sishi fohishabozlikni bora-bora chetga chiqishiga yordam beradi.

E.Dyurkgeym, R.Mertonlarning deviant xulq-atvor nazariyalari, Z.Freyd va E.Frommlarning destruktivlik (strukturani buzilishi) nazariyalari. Deviant xulq-atvorga R.Merton ishlab chiqqan ta'limot zamonaviy sotsiologiyada etakchi o'rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi; "Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvori motivlari va mavjud imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir". Jamiyatning rasmiy tuzilmalari tomonidan maqsadga erishishning turli guruhlar uchun turlicha imkoniyatlar yaratib berishi natijasi bo'lmish funksional kamchiliklar maqsadga erishishga xizmat qiluvchi norasmiy tuzilmalarning tashkil bo'lishiga olib keladi.

Maqsad va vositalarga turlicha munosabat quyidagi xulq-atvor turlariga olib kelishi mumkin.

1. Bo'ysunish (maqsad va vositalarni qabul qilish).
2. Innovatsiya (maqsadlarni qabul qilish va vositalarni inkor qilish).
3. Ritualizm (maqsadlarni inkor etish va vositalarini qabul qilish).
4. Retretizm, chekinish (maqsad va vositalarni inkor qilish).
5. Isyon (maqsad va vositalarni inkor qilib, yangilarini o'rnatish).

Z.Freydning fikricha, inson xulq-atvorining asosida atrof-muhitni ongli baholash bilan ongsiz ishtiyoq orasida ziddiyat yotadi. Ongsizlik asosida esa insonga beshikdan to qabrgacha soyadek ergashib yuradigan, uning barcha fikr va istaklarini belgilaydigan jinsiy rag'bat- libido yotadi. Barcha atrofimizdagi voqea-hodisalarni jinsiy rag'bat belgilaydi. Inson ruhiyatidagi barcha jarayonlar hayot instinkti Eros va o'lim instinkti-tanatos o'rtasidagi kurash natijasi bo'lib, har qanday xulq-atvor, jumladan noto'g'ri xulq-atvor ham, jinsiy rag'bat va yashash uchun kurash natijasidir.

Sotsial me'yor va anomiya deviant xulq-atvor nazariyasining markaziy tushunchasi sifatida.

O'rta asrlarda aholi me'yorlari diniy qarashlar tahsiri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai-nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, Sharq dunyosida ahloqiy huquqiy me'yorlar va ular haqidagi tahlilotlar islom falsafasi tahsirida rivojlandi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yoriy va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Monteskgpe, Russo, Bekkorio, Gelgpvetsey, Didro, Golgpbox, Morelli va Furgpelar o'z ilmiy izlanishlaridan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarini topishga intildilar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z tahsirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki tahlilot, Dyurkgeymning "Anomiya" g'oyasi edi. Dyurkgeym fanga o'zi kiritgan "Anomiya" atamasi orqali qonunchilikni, qonunlarning tan olinmasligi va ularga amal qilinmaslikni tushunadi.

Deviant xulq atvor muammolarini tahlil qilishda Merton ishlab chiqqan tahlilot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. Dyurkgeymning "Anomiya" g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq atvorga quyidagicha tahrif beradi: "Deviant xulq atvor jamiyatda ehlon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq atvor standartlari bilan aholi xulq atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarni bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir".

Deviant xulq-atvor belgilari, ularning strukturasi. Deviant xulq-atvorni fanda turlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda ushbu jarayonlarni turlicha tasniflash mavjud bo'lib, shulardan biri ularning ham obyektiv ham subyektiv tomonlari bilan bo'liq bo'lgan tasniflashdir. Bunga ko'ra deviant xulq-atvor turlari 2 guruhga bo'linadi;

- a) tashqi muhitga yo'naltirilgan xulq-atvor (ekstravertiv (masalan, jinoyatchilik));

b) shaxsning o'ziga yo'naltirilgan xulq-atvor (intravertiv (masalan, ichkilikbozlik)).

Deviant xulq-atvorni turkumlash. Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan 3ta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlaridir.

a) Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular:

- irsiy omillar;
- psixofiziologik omillar;
- shaxsning bilim darajasi.

b) Muammoli vaziyat shunday holatki u subhektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsada, u yoki u sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, yahni turli shaxslar yoki guruhlarning mahnfatlari bir-birilariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda tahkidlab o'tish joizki o'z joniga qasd qilishlarning 40 foizi oilaviy mojarolardan paydo bo'ladigan ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi. Jamiyatda shaxs shakllanishiga tahsir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning 4ta asosiy holati ko'zga tashlanadi:

1. Hech qanaqa muammo yo'q holat, bunday holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi;

2. Muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsada, uning yechimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat;

3. Mavjud muammoni subyekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat;

4. Muammoni hech qanaqasiga hal qila olmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi. Jamiyat ahzolari shaxsiy nuqtai-nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq atvoriga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarini tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rni va roli kattadir. "Bahzilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas", "Hozir yaxshi ertaga yomon" va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fehl atvor shaklida, yahni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir shu boisdan har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qathiy qoralanadi.

Buzilgan xulq-atvor mexanizmi. Birorta hamjamiyatda me'yorlarga to'la amal qiladigan va me'yorlardan og'adigan odamlar o'rtasiga chiziq tortib ajratish mumkin emas. Xulq-atvorning umumiy qoidalarini ko'pchiligimiz buzganmiz. Ko'pchilik kichik o'g'riliklar, masalan, do'kondan biron narsaga haq to'lamay olish yoki ishxonadan pochta qog'ozi kabi mayda-chuyda narsalarni shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish uchun olib ketish hollariga yo'l qo'yganmiz. Bu buzilgan xulq-atvor mexanizmiga misol bo'ladi.

Deviant xulq-atvorning tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy tomonlari. Jinoyat va deviatsiyaning shakllarini izohlashga bo'lgan dastlabki urinishlar asosan biologik xarakterda edi. Fransiyalik antropolog Broka jinoyatchilarning bosh chanog'i va miyasining tuzilishida qonunga amal qiluvchi aholinikidan farq qiladigan xususiyatlar bor deb fikr bildirgan edi. XIX asrning 70-yillarida faoliyat yuritgan italiyalik kriminalshunos Chezari Lombrozo: "ba'zi odamlar jinoiy mayllar bilan tug'iladilar va ular ibtidoiy insonlar tipiga mansub bo'ladilar", degan xulosaga keldi. U ijtimoiy tajribaning kriminal xulq rivojiga ta'sirini inkor edi, uning asosiy g'oyasi – ko'pchilik jinoyatchilarning biologik jihatdan degenerativ va defektli ekanida edi. Keyinchalik bu g'oyalar to'la rad etildi, biroq individning biologik tuzilishi jinoiy mayllarga ta'sir ko'rsatishi haqidagi tezis turli kqrinishlarda yana ko'p marta paydo bo'ldi.

Jinoyatning psixologik nazariyalari ham, biologik nazariyalar kabi jinoiy mayllarning shaxsning muayyan tipi bilan bog'lar edi. Jinoyatni psixologik jihatdan talqin qilishga Freyd g'oyalari, garchi Freydning o'zi kriminologiyabo'yicha hech narsa yozmagan bo'lsa ham, muayyan ta'sir o'tkazdi. Keyingi mualliflar unchalik ko'p bo'lmagan odamlarda "ahloqsiz" yoki psixopatikshaxsrivojlanadi, degan fikr bilan uning g'oyalariga asoslanishdi. Freyd fikriga ko'ra, ilk bolalilikda o'rganiladigan o'zini cheklashlardan ko'pchilik ahloqiy sifatlar vujudga keladi. Ota-onalar bilano'ziga xos munosabatlar shakllanishi oqibatida, ba'zi bolalarda bundaycheklov shakllanmaydi va demak ahloqiylik tuyg'usi asosan mavjud bo'lmaydi. Psixopatlarni zo'rlikdan lazzat oladigan odamovi shaxslar sifatida tavsiflash mumkin.

Hozirgi zamonda deviant xulq-atvorning tarqalishi va o'zgarishi. Buugungi kunda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida administrativ boshqaruv tizimi tomonidan yuzaga keltirilgan va kutilgan natijalarni bermayotgan ilgarigi fe'l-atvor normalarining devalvatsiyasiga olib keluvchi sifatga xos o'zgarishlar ro'y berayotgan davrda deviatsiya muammosi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish, eski iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy munosabatlarining buzilishi, odamlarining moddiy ahvolidagi negativ aks etayotgan ishlab chiqarishning stabil bo'lmagan rivojlanishi bilan bog'liq muammolar, kutilgan natija va reallik o'rtasida qarama-qarshiliklarga, jamiyatda jiddiylarning va odamlarning o'z fe'l-atvori o'zgartirishga va mavjud normalar chegarsidan chiqishga moyilligiga olib keldi.

Deviant xulq atvor – bu muayyan jamiyatda qabul qilingan huquq va ahloq me'orlaridan chetga chiqishdir.

Delinkvent xulq atvor va kriminal hatti-harakatlar. **Delinkvent xulq atvor** – deviantlikning ko'rinishlaridan biri bo'lib, bunday hatti-harakat odatda sho'xlik va ko'ngil xushlik harakatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, o'smir ko'p qavatli uy balkonidan turib yo'lovchilarga og'ir predmetlarni uloqtirishi va bundan lazzatlanishi mumkin. Bunday hatti-harakatlar bora-bora deviantlikning og'irroq ko'rinishi kriminallikka o'tib ketishi mumkin.

Professional jinoyatchilik – jinoiy faoliyat bilan muntazam mashg'ul bo'lish, bu sohada o'ziga yarasha ko'nikmalarni va jinoiy aloqalarni shakllantirish. Bunda

jinoyat subyekt tomonidan noqonuniy daromadga ega bo'lishning yagona manbai sifatida qaraladi.

Uyushgan jinoyatchilik. Uyushgan jinoyatchilik oddiy biznesga o'xshagan faoliyat bilan bog'liq, biroq uning mazmuni qonunga xilof bo'ladi. Tashkiliy jinoyatchilik – qudratli biznes bo'lib, uni iqtisodiy faoliyatning har qanday yirik sohasi, masalan avtomobil sanoati bilan qiyoslash mumkin. Milliy va lokal jinoiy tashkilotlar ommaviy iste'molchilarga qonun tomonidan man etilgan tovarlar va xizmatlarni taklif etishadi. Ba'zi kriminal tuzilmalar esa transnatsional hisoblanishadi. Uyushgan jinoyatchilik o'z ichiga boshqalar bilan bir qatorda, qimor o'yinlari, fohishabozlik, yirik miqyosdagi o'g'irliklar, va reket kabilarni qamrab oladi.

Dunyoda jinoyatchilik holati. Jinoyatchilikni oshishi va jamiyatning kriminallasuvi sabablari va namoyon bo'lish shakllari. Jinoyatchilik franko-belgiyalik olim matematik statistik L.A.Ketle o'zining «Sotsial-fizika» (1835 yil) kitobida shunday xulosaga keladiki, har qanday sotsial tuzum o'zining tashkil topishiga ko'ra kelib chiquvchi jinoyatlarning ma'lum bir miqdori va tartibini belgilaydi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar jinoyatni bir qator obyektiv va subyektiv faktorlardan kelib chiqishidan ko'rsatdi: sotsial o'rin (mavqe), faoliyat turi, ma'lumot darajasi, qoniqtirmaydigan moddiy ahvol, individ va sotsial guruh o'rtasida munosabatlarni pasayishi, madaniy chegaralarning yo'qligi, sotsial nazoratni talabga javob bermasligi. Jahon amaliyoti ko'rsatganidek, bozor munosabatlariga o'tishda, ayniqsa, birinchi davrlarda jinoyatni kuchayishi kuzatiladi. Jinoyatchilikni ahvoliga nosog'lom konkurentsia, ishga joylashishga qiyinchiliklari, infilyatsiya katta ta'sir ko'rstaadi. Jinoyat bu insoniyatni barcha nuqsonlarini aks ettirishidir. Hech qaysi jamiyat uni yo'q qilishga erishgani yo'q. Shunday bo'lsada, jamiyatni majburiy bo'lgan vazifasi o'sish templarini pasayishiga erishish va jinoyatchilikni sotsial chidamkorlik darajasida nazorat ustida ushlab turishidir.

Qonun bor joyda jinoyat ham topiladi, chunki jinoyatni qonunni buzuvchi har qanday hulq deb ta'riflash mumkin. So'ngi ikki - uch asr davomida kriminal xulq-atvorning tabiati, turli jinoyatlarning jiddiylik darajasi va davlat xokimiyati tomonidan kriminal xatti-xarakatlarni bartaraf qilish usullari jiddiy o'zgardi. Buning sabablarini jamoa tamoyiliga asoslangan an'anaviy jamiyatning ko'pchilik an'anaviy tizimga qaraganda anonim (noma'lum, xufyona) sharoitda yashaydigan sanoat ijtimoiy tizimlarida almashtirilishidan topish mumkin.

O'smirlar va yoshlar jinoyatchiligi. Hozirgi kunda o'smirlar orasida deviant fe'l-atvorni o'sishi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. O'smirlar ko'pincha chetga og'uvchi hatti-harakatlarni ongsiz ravishda, behosdan qiladilar. Shuning uchun ularning ko'pchiligi qilgan ishlarini mohiyatini anglab etmaydi, o'z xatosini, aybini ko'rmaydi. So'rovlar natijasiga ko'ra, o'smirlarni ko'pchiligi o'z jinoiy ishlarini sababini tashqi shart-sharoitlardan qidiradilar, tashqi dunyoni ayblaydilar, so'ralganlarni to'rtidan bir qismi o'xshash vaziyatda har biri shunday hatti-harakat qilishini aytib o'tganlar. O'smirlarni hatti-harakatida chetga og'ish hollarini asosida sotsial-madaniy ehtiyojlarni rivojlanmaganligi, ma'naviy dunyoni etishmovchiligi yotadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, yoshlar deviyatsiyasi-

jamiyatdagi sotsial munosabatlarni aks ettirishdir. Chetga og'uvchi fe'l-atvor sabablarini topish, sotsial yordam tizimini tashkil qilish, tushuntirish tarbiya ishlarini olib borish bo'yicha yaxshi o'ylangan, maqsadli yo'naltirilgan ishlar qilish kerak. Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu – oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishdan sog'lom oila muhitini o'rni kattadir. Qolaversa, inson hatti-harakati va xulq-atvori, faoliyatini ta'lim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa qonunni himoya qilish organlari (sud, prokuratura, militsiya) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi.

Sotsial nazorat. Sotsial nazorat – jamiyatning sog'lom ijtimoiy tartibni ta'minlash maqsadida individ hatti-harakati va xulq-atvoriga maqsadli ta'siri, individ ijtimoiylashuvining omili. Ijtimoiy nazorat shakllari: oddiy (majburlovchi) sanksiyalar (tazyiqlar); jamoatchilik fikri; ijtimoiy institutlar. Ijtimoiy nazorat mexanizmi: 1) jismoniy tazyiqlar (individni guruh me'yorlarini buzganlik uchun jazolash); 2) iqtisodiy tazyiqlar ("qo'rqitish", "jarima"); 3) ma'muriy tazyiqlar.

Sotsial nazorat kishilar hatti-harakatini tartibga solish mexanizmi sifatida. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni jamiyatning va atrofdagi odamlarning qat'iy nazorati ostida amalga oshadi. Insonlar bolalarni faqat o'rgatibgina qolmasdan xulq atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi.

Agar nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi va agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi. hamda ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning Eng muhim vositasi bo'lib, diviant xulqatvorining oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu - oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitning o'rni beqiyosdir. Keyingi yillarda yurtimizda oila haqida sog'lom avlod haqida o'ylash, oilani mustahkamlash borasida bir qancha ishlar amalga oshiriladi. Xususan, yurtboshimiz tomonidan 1998 yilni "Oila yili" deb ehlon qilinishi fikrimizning isbotidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" asarida shunday fikrlar yuritadi. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos anhanalar, qadriyatlar, urf odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Inson hatti-harakati, xulq atvori va faoliyatini tahlim muassasalari, mahalla, mehnat jamoasi, umumdavlat miqyosida esa, huquqni muhofaza etuvchi organlar (sud, prokuratura, militsiya) ham nazorat qilib boradi va ushbu shaxsga nisbatan ijtimoiy nazorat institutlari vazifasini bajarishadi.

P.Bergerning sotsial nazorat to'g'risidagi ta'limoti. Sotsial nazorat elementlari: me'yorlar va sanksiyalar. Qonunlar – xukumatlar tomonidan tasdiqlanadigan va amalga kiritiladigan me'yorlar. Jinoyatlar – qonunlar ruxsat etmaydigan xatti-xarakatlar. Biz ijtimoiylashuv jarayonida o'rganib qolganimiz

sababli ijtimoiy qoidalar va me'yorlarga amal qilamiz. Barcha ijtimoiy me'yorlar nokonformlikdan himoya qiladigan sanksiyalar bilan birga mavjud bo'ladi.

Sotsial sanksiyalar turlari: pozitiv va negativ, rasmiy va norasmiy. Sanksiyalar boshqalar tomonidan individ yoki guruh xulqiga bildirilgan reaksiya bo'lib, uning maqsadi – mazkur ijtimoiy me'orning bajarilishini kafolatlash. Sanksiyalar pozitiv (konformlik uchun rag'batlantirish) yoki negativ (nokonform xulq uchun jazo) bo'lishi mumkin. Sanksiyalar formal yoki noformal bo'ladi. Formal sanksiya normalarga rioya qilishni kafolatlaydigan tashkilot yoki guruh bo'lgan joyda mavjud bo'ladi. Noformal sanksiyalar - nokonformlikka nisbatan kamroq uyushgan va ko'pincha o'z-o'zidan kelib chiqadigan reaksiya.

Rasmiy va norasmiy sanksiyalar jamiyat tomonidan ijtimoiy me'yorlarni quvvatlab turish uchun qo'llaniladi. Formal negativ sanksiyalarga jarimalar, qamoqxonaga qamash va qatl etish kiradi. Pozitiv formal sanksiyalar esa unchalik ko'p emas. Jangdagi jasurligi uchun medal bilan mukofotlash, akademik sohadagi yutuqlari uchun beriladigandaraja va diplomlar, sport musobaqasidagi ishtiroki uchun mukofotlar va boshqalar.

Pozitiv va negativ noformal sanksiyalar ijtimoiy g'ayotda barcha sog'alarning ajralmas qismi hisoblanadi. Pozitiv noformal sanksiyalar maqtov, maqullash mazmunidagi jilmayish, elkaga urib qo'yish kabi shakllarda ifodalanishi mumkin. Negativ noformal sanksiyalar esa odatda haqorat ohangi, so'kish yoki hayfsan, individni namoyishkorona nazarga ilmaslik ko'rinishlarida ifodalanadi. Formal sanksiyalar ancha samarali bo'lsa ham, noformal sanksiyalarkonformlik va me'yorlarni saqlashda fundamental ahamiyatga ega.

Sotsial me'yorlar tasnifi. Jamiyatda insonlar faoliyati hatti-harakatlari va xulq atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor- jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir.

Sotsial me'yor turlari: huquqiy, diniy, an'anaviy va ahloqiy. Ijtimoiy meh'ning xulqiy, ahloqiy, diniy hamda urf odatlariga oid turlari mavjud. Ijtimoiy meh'ning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan moslashtirib borilgan shaxslar ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi.

Ma'lumki, ijtimoiy me'yor va ulardan chekinishlar haqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun qoidalaridagi ahloqiy me'yorlar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Ushbu «Qonunlar»da barcha huquqlar insonga xudolar tomonidan beriladi va qonun buzuvchilarni xudolar jazolaydi, deb hisoblangan.

Ichki va tashqi nazorat. Ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy fe'l-atvor mexanizmlari:

- 1) Faoliyat turlari.
- 2) Ehtiyojlar:
 - tabiiy ehtiyojlar;
 - biologik ehtiyojlar;
 - ijtimoiy ehtiyojlar.

3) Ijtimoiy faoliyatni asoslovchi mexanizmlar:

- ehtiyojlar;
- qadriyatlar;
- manfaatlar va ularning o'zaro ta'siri;

4) Ijtimoiy nazorat.

5) Sanktsiyalar.

6) Ijtimoiy buyruq.

7) O'z-o'zini nazorat.

8) Tashqi nazorat.

9) Jamoatchilik fikri.

10) Deviant (jinoiy bo'lmagan) fe'l-atvor.

11) Delinkvent (jinoiy) fe'l-atvor.

12) Shaxsning muhim ijtimoiy-psixologik xislati - o'z-o'zini anglash kabilardir.

O'z-o'zini nazorat qilish muammosi. Jamoatchilik fikri sotsial nazoratning shakli sifatida. Jamoatchilik fikri tushunchasi ma'no mazmuni nuqtai nazardan "jamoat", "jamoatchilik", "fikir" so'zlarining mantiqiy maqsadli uyg'unlashuvi mahsulidir. Jamoatchilik fikrini teran va to'g'ri anglamoq uchun yuqoridagi tarkib yasovchi so'z terminlar mohiyatini avval boshdan anglab olmoq muhimdir. Hozir va o'tmishda, vatanimiz yohud Horijiy mamalakatlar tadqiqotlari bu terminlar mazmuniga turlicha talqin berishib, ularga maqsaddan kelib chiqadigan ma'no yuklatib kelingan. Xususan, aksariyat tadqiqotlarda jamoatchilik fikrining tarkibiy qismi bo'lgan "fikir" tushunchasi "tasavvur", "muhokama", "qarashlar", "mulohazalar", "ishonch", "e'tiqod", "lafz", "fikir bildirish", "plyuralizm" va hokazo terminlarga sinonim tushuncha sifatida ham talqin etiladi. Fikir tushunchasining bunday har yoqlama talqini jamoatchilik fikrini tushunishda muayyan murakkabliklar tug'dirishi tabiiydir.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi – ijtimoiy guruhlarning mavjud voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır.

Jamoatchilik fikri o'zi nima?

Jamoatchilik fikri – xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir (Gegel), jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy bo'lmagan narsalar chatishib ketsada, u har bir davrda katta kuchga ega bo'lib ketgan. Jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiq etish predmeti – bu jamoatchilik fikrining ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'siri, shakllanishi, ifodalanishi va amal mexanizmlari masalalaridir. Jamiyat hayotiga sotsiologiya fanining kirib kelishi jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahamiyatini keskin kuchaytirdi. Jamoatchilik fikri sotsiologiya fanining uzviy tadqiqot obyekti sifatida atroflicha o'rganila boshlandi. Ayni chog'da mazkur muammoni ilmiy ta'riflash hamda yondashishda qator plyuaralistik nuqtai nazaridan ilgari sura boshlandi. Shubhasiz, jamoatchilik fikri kishilarning u yoki bu hodisaga nisbatan bildirgan e'tiroziy yohud e'tirofiy munosabatlari taklif va istaklari jamul-jamidir. Jamoatchilik fikri mohiyatini umumiy tarzda va to'g'ri baholashda amerikalik

sotsiolog U.Lipmon nuqtai nazari e'tiborga loyiqdir. Jamoatchilik fikri deb ta'kidlaydi, u kishilarning umumiy, jamoaviy manfaatlari ifodasidir.

XIX asr fransuz jamiyatshunos olimi A.Sonining fikricha, jamoatchilik fikrlari o'z ijtimoiy –siyosiy g'oyalari va nuqtai nazarlarini targ'ib tashviq etish ommalashtirish imkoniga shakllantirilishi mumkindir. Angliyalik faylasuf Dj.Lokn jamoatchilik fikri ta'sir doirasini toraytirib tushuntirishga urinadi. Tabiiyki, bunday yondashuvlar jamoatchilik fikrining ahamiyati va ijtimoiy ta'siri ko'lamlarini etarli anglamaslikdan boshqa narsa emasdir. Jamoatchilik fikriga adabiyot va san'at va diniy muassasalar arboblari ham turlicha izoh va ta'rif berishga harakat qilganlar, zero, aksariyat hollarda adabiyot, san'at borasida iste'dodli asarlar, muqim ijtimoiy-siyosiy voqealar, diniy qoida va qarashlar tevaragida ham kuchli jamoatchilik fikri shakllanishi, jamiyatda muayyan ijtimoiy rezonans tug'rdirishi tabiiydir. Shunday qilib, jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning ahloq, siyosat, san'at, din singari shakllardagi ma'lum holati va ayni chog'da mazkur sohalarida uning nechog'li namoyon bo'lish mezoni hamdir. Gegel o'zining "Huquq falsafasi" asarida jamoatchilik fikri va mohiyati xususida mulohaza yuritib, ijtimoiy xayot sohalarining ba'zilarida, xususan, ilm-fan muammolariga yondoshishda jamoatchilik fikridan foydalanmaslik nuqtai-nazarini, ilgari suradi. U ilm-fan chuqur tekshirishi, atroflicha tadqiq etilgan ma'lumotlar negizidagina takomil topishini ta'kidlaydi. Aksariyat hollarda jamoatchilik fikri "maxsus tayyorgarlikdan o'qimagan kishilar fikr-mulohazalarining yig'indisi sifatida ko'pgina tasodifiy faktlar, tasdiqlanmagan xabarlar, fisq-fasod va g'iybatlar asosida ham shakllanishi mumkin" deb uqtiradi. Shunday qilib, Gegel jamoatchilik fikriga baho berishda ehtiyotkorlik va sovuqqonlik zarurligini ta'kidlab masalaga birmuncha konservativ boshqaruv jarayonlarida anglashni inkor etadi.

Jamoatchilik fikri bilan bevosita shug'unlanuvchi mutaxassislar bu ijtimoiy hodisaning murakkabligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, jamoatchilik fikrini tasvirlash, aniqlash mushkul, uni o'lchab bo'maydi. Lekin u hamma joyda mavjud, uning ta'sirini alohida shaxs hatti-harakatida ham, omma xulq-atvor foaliyatida ham ko'rsa bo'ladi.

6-MAVZU: JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKATSION JARAYONLAR. (2 soat).

Reja:

1. Sotsial struktura tushunchasi talqini.
2. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari. Stratifikatsion tizimlar.
3. O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik (xarakatchanlik) jarayoni.
4. Sotsial harakatchanlik belgilari va turlari.

Sotsial struktura tushunchasi

Jamiyatning sotsial strukturasi-aloqalar va munosabatlarning majmuasi, uning tarkibiga sotsial guruhlar va ularning hayot faoliyatiga ko'ra insonlar

jamoalari kiradi. . Ijtimoiy struktura - jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar 2 xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sotsietal munosabatlar
2. Ijtimoiy munosabatlar

1. Sotsietal munosabatlar sistemasiga: jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sotsietal sistemasida ierarxik qaramlik mavjud. Ya'ni bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak: Sotsietal munosabatlar sistemasi tuzilishi:

1) iqtisodiy: (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);

2) ijtimoiy: a) ijtimoiy munosabatlar asosiy elementi ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi kishilar (jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.

3) siyosiy:

4) mafkuraviy.

Jamiyatning sotsial strukturasi rivojlanishining asosida quyidagilar yotadi:

- mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi-jamiyatni sotsial guruhlariga (sinflar, kasbiy guruhlar, shahar va qishloq odamlari, aqliy va jismoniy mehnat vaqillari) bo'linishiga sabab bo'ladi;
- ishlab chiqarish vositalari mulkiga munosabat- jamiyatning tiklanib kelayotgan strukturasi iqtisodiy mustahkamlaydi.

Jamiyat strukturasi asosiy elementlari:

- mehnatni ijtimoiy tasdiqlash sistemasida o'zining har xil orniga ega bo'lgan sinflar, ishlab chiqarish vositalariga munosabat va ijtimoiy mahsulotning taqsimlanishi;
- shahar va qishloq odamlari;
- aqliy va jismoniy mehnat vaqillari;
- tabaqalar;
- sotsial-demografik guruhlar;
- milliy umumiyliklar.

Bu guruhlar tarkibiga ko'ra bir turli emaslar, ular shaxsiy manfaatlariga ega bo'lgan alohida qatlam va guruhlariga bo'linadilar.

Katta va kichik sotsial guruhlarining alohida ajralishi quyidagilarda sodir bo'ladi:

- obyektiv-insonlar xohishiga bog'liq bo'lmagan (sinflar, millatlar va x.k.);
- tarixiy jarayon qatnashchilarining ongli va tashkillovchi harakatlanishida (siyosiy partiyalar va b.k.).

Sotsial guruhlarining o'zaro bog'liqligi-dinamikdir. Bu holat insonlarning o'z ehtiyojlarini qondirishdagi o'zaro munosabatlarida, manfaatlarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Bu o'zaro ta'sir ikki asosiy faktorlar bilan xarakterlanadi:

- aniq bir xohish tomonidan yo'naltirilgan subyekt faoliyati bilan;

- subyektlar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy munosabatlarga kirishishlari bilan.

Kishilik jamiyati tarixida sotsial struktura muammosining talqini. Insoniyat jamiyatlarining barcha turlarida tengsizlik mavjuddir. Hatto insonlar o'rtasida iqtisodiy farqlanish deyarli yo'q bo'lgan ibtidoiy jamiyatlarda ham shaxslar o'rtasida erkak va ayollar, yoshlar va keksalar o'rtasida tengsizlik mavjud. Ijtimoiy tengsizlikni ta'riflar ekan, sotsiologlar ijtimoiy stratifikatsiya haqida gapiradilar. Stratifikatsiya guruhlar o'rtasidagi strukturaviy farqlar deya ta'riflanishi mumkin. Tushunarli bo'lishi uchun, stratifikatsiyani geologik qatlamlar ko'rinishida faraz qilish mumkin. Jamiyatlar ham ierarxik tartibda joylashgan qatlamlardan iborat bo'lib, imtiyozga ega bo'lganlar cho'qqiga yaqin. Ega bo'lmaganlar esa quyida joylashadi.

Sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari. Sokratning buyuk shogirdi **Platon** ijtimoiy taraqqiyot va inson mavqei xususida bebaho fikrlar bayon etgan. Uning fikricha, davlat tuzumini uch xil strata (ijtimoiy tabaqa) - hukmdorlar va ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnatkashlar donishmand boshqaruvchi guruh rahbarligida garmonik tuzumni tashkil etadilar.

Platon akademiyasining yetuk tolibi, jahon ijtimoiy tafakkur olamiga katta hissa qo'shgan mutafakkir **Aristotel** hisoblanadi.

Aristotel o'z davridagi mavjud stratifikatsion (ijtimoiy tabaqalashuv) tartiblarni qo'llab-quvvatlaydi. U komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarni ilmiy asoslashga intildi. Har qanday mamlakatdagi ijtimoiy tartibsizliklar, inqirozlar va davlat to'ntarishlari ijtimoiy tenglikning buzilishidan kelib chiqadi.

Arastu fikricha, har bir shaxs nafaqat mavjud davlat tuzulishiga, balki o'z ijtimoiy tabaqasiga ham sodiq qolishi hamda o'z kasb-kori, xizmat sohasi doirasida kamolotga intilishi lozim.

Xitoyda Konfutsiy ahloqiga binoan inson dunyo tartiboti tizimida favqulotda o'rin tutishi, umumiy dunyo taqdiri uchun mas'ullik hissining cheksizligi targ'ib etilsa, kosmologiya g'oyasida siyosat va kosmik ritm o'rtasida murosa o'rnatilishiga asoslanadi. Xitoy siyosati "inson o'zi nima" deb emas, "inson davlat uchun nima" degan savolga javob izlar edi.

Inson jamiyatda faqat o'z qobiliyatiga tayanib, qachon undan foydalanishlari muddatini kutib yashashga mahkum etilgan edi. Shu boisdan ham Xitoyda davlat jamiki jarayonlarni boshqaruvchi kuch sifatida jamiyatda har bir individning ijtimoiy mavqegini belgilab olish vazifasini o'tar edi.

Konfutsiy kishilarni jamiyatda egallab turgan o'rinlarini, ijtimoiy mavqelarini o'zgartirishlariga qarshi turgan. U insonlar o'z ijtimoiy mavqelarini o'zgashtirish yulida emas, balki shu mavqe mazmunini teran bilimlar bilan boyitishga chaqiradi.

Bilimlar kishiga nafaqat mahlumotli bo'lishi uchun, balki to'g'ri ish tutish uchun, oqil hatti-harakatlar qilish uchun ham kerakdir. Konfutsiy Sharq mutafakkirlariga xos xususiyatlarni namoyon etib, jamiyatda kishilar turli ijtimoiy tabaqalarda yashashlarini mahqullagan holda, bu tabaqalar o'rtasida doimo murosa, kelushuv bo'lishini, ziddiyatlarga aslo yo'l qo'ymaslik zarurligini uqtiradi.

Konfutsiy ijtimoiy taraqqiyot davlatlararo va tabaqalararo kontsessus, yakdillik, hamfikrlilik amalga oshgandagina yuz berishiga qat'iy ishonadi.

P. Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi nazariyasi.

Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy xolat, mavqe, ta'lim va hokimiyat. Stratifikatsiya sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy guruhlar va ularni tabaqalanishi belgilari tizimini o'zida aks ettiradi. Hozirgi zamon stratifikatsion yondashuvining nazariyotchilari ijtimoiy guruhlarining ishlab chiqarishdagi ishtiroki, jamiyatning asosan mulkka bo'lgan munosabat asosida tabaqalashuvi xususidagi marksistik yondashuvini inkor etib jamiyat, ma'lumot, ruhiyat, maishiy shart sharoitlar, bandlik darajasi, daromad ko'lamlari va boshqa belgilarga ko'ra tabaqalanishini asoslab beradilar. Ular yuqoridagi belgilarga ko'ra ajraluvchi ijtimoiy guruhlardan tashqari, yuqori tabaqa, o'rta tabaqa va quyi tabaqa doimiy amal etishini ta'kidlaydilar. Har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shaxs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega. Shaxs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, mutaxassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi³.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi – ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat.

Stratifikatsiya va sotsial differentsiya. Stratifikatsiya (lot stratum - qatlam va fatio – bajaraman) - jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir.

Sotsial stratifikatsiya - sotsiologik tushuncha bo'lib, jamiyat va uning ayrim qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi. yoki boshqacha aytganda: jamiyatning mulk, maqom va hokimiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan tizimi bo'lib, u ijtimoiy rollar va vazifalarni o'zida aks ettiradi. Sotsial stratifikatsiya jamiyatdagi mehnat taqsimotida turli guruhlarining ijtimoiy differentsiatsiyasidan (tabaqalanishuvi), shuningdek u yoki bu faoliyatning ahamiyatini va ijtimoiy tengsizlikni qonuniylashtiruvchi qadriyatlar va madaniy namunalar (standartlar) tizimining xususiyatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning asosiy vazifasi - turli faoliyat xillari uchun ragbatlantiruvchi tizim yordamida ijtimoiy rollarni mos ravishda idrok etish va bajarishni ta'minlashdir.

Sotsial stratifikatsiya: ma'lumot, maishiy sharoit, Mashgulot daromad, ruhiy, din va shu kabi belgilar asosida jamiyat «yuqori», «o'rta» va «quyi» sinflar hamda strat (qatlam)larga (2 dan 6 gacha) bo'linadi. Tengsizlik har qanday jamiyatda bor. Sotsial stratifikatsiya tizimida kishilarning o'z qobiliyatlari va kuch-gayratlariga muvofiq maqomlarni o'zgartirishlari (sotsial mobillik) esa

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2011. - B. 7.

jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi va sinfiy kurashni «ortiqcha» qilib qo'yadi (Marksistik tadqiqotlar ijtimoiy sinflar nazariyasiga asoslanib kelingan)

Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Stratifikatsiya kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, tugilishi bilan yuzaga keladi.

1. Kuldorlik - kishilarni qaram qilishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shaklidir. Tengsizlik darajasining ko'rinishidir.

2. Kastalar (lat. Partugal. guruh, toifa, tabaqa) – odam tugilganidan boshlab a'zo bo'lib qoladigan ijtimoiy guruhlar (stratlar) dir.

3. Tabaqalar - taomillar yoki huquq, qonunlari bilan mustahkamlangan nasldan-naslga o'tuvchi huquklar va burchlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar.

4. Sinflar - sinflar paydo bo'lishi XVIII-XIX asr bilan bog'liq AQSH - o'rta sinflar jamiyati. AQSHda 4 ta asosiy sinflar bor:

- oliy;

- o'rta;

- ishchi;

- quyi sinflar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tabaqalanishda sinflar: boylar, o'rta, kambagallar mavjud. Stratifikatsiyaning aralash tipi bor. Hozir bizda mulkdorlar sinfi shakllanmoqda.

Ochiq va yopiq tizimlar.

Bozor munosabatlari sharoitida sotsial strukturaning o'zgarishi. O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jarayoni.

Jamiyatning ijtimoiy, tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

1. Sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik tushunchalari⁴.

2. Iqtisodiy va taqsimot munosabatlari.

3. Ijtimoiy-sinfiy munosabatlar.

4. Ijtimoiy demografik munosabatlar.

Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy guruhlar harakteriga va o'zaro aloqadorligiga bogliq. Uning harakteriga: oila, maktab, davlat partiyalar, iqtisodiyot, fan, madaniyat, matbuot, sog'liqni saqlash kabi sohalarning rivojlanishi o'zaro mos ravishda bo'ladi. Ana shu guruh munosabatlarida qaysilari peshqadam rol o'ynaydi? Kaysilari asosiy rol, bo'ysunuvchi harakterga ega «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi», deb Konstitutsiyada ko'rsatilgan.

⁴ Yunusov K. Sotsiologiya. Andijon, 1997, 51-58-betlar.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1999, 7-bet.

Har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shaxs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega. Shaxs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, mutaxassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi⁵.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi - ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat. Oldingi zamonlarda ham jamiyat turli guruhlardan tashkil topgan. Masalan, Hindistonda jamiyat:

- a) yuqori tabaqa – braxmanlar;
- b) o'rta tabaqa - kshatriylar (jangchi toifasi)
- v) shudralar (qora xalq)dan iborat guruhlarga ajratilgan. kadimgi yunon faylasufi Aflotun (er.avval 4-asr) jamiyat a'zolarini 3 guruhga ajratgan:
 - a) faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchi sinf);
 - b) harbiy jangchilar;
 - v) qullar - quyi tabaqa;

Garb sotsiologiyasida jamiyat ijtimoiy tarkibi sotsial stratifikatsiya tushunchasi asosida o'rganiladi. Demak stratifikatsiya Garb sotsiologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy tarkibining ijtimoiy tabaqalarga, guruhlarga ajratilganini, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ifoda qiladi.

Sotsial stratifikatsiya nazariyasi marksizm sotsiologiyasining sinflar va sinfiy kurash nazariyasiga zid bo'lib, jamiyatning sinflarga bo'linishining asosiy sababi mulkiy munosabatlardagi holatni tabiiy-tarixiy qonuniyat sifatida qaraydi. Bu sinflarni ijtimoiy qatlamlar va guruhlarning ma'lumoti, psixologik jihatlari, turmush sharoiti, ijtimoiy bandlik, daromadi va boshqa xususiyatlar bilan farq qiladi.

AQSHlik sotsiolog T.Parsons: «Stratifikatsiya - ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatining asosiy yuzaga keltiruvchisi» deb, uni rivojlantirdi.

Garb mamlakatlari sotsiologlari jamiyatni «yuqori», «o'rta», «quyi» sinf va qatlamlardan iborat deb talqin qilishadi. Masalan, Garbiy Germaniyalik sotsiolog R.Darendorf jamiyatni boshqaruvchi va boshqariluvchilar toifasiga bo'ladi. O'z navbatida boshqaruvchilar toifasi 2 guruhdan: a) mulkdor boshqaruvchilar va b) mulkdor bo'lmagan boshqaruvchilar - ma'muriy byurokrat menedjerlardan iborat deydi. Boshqariluvchilar toifasi ham 2 ga: yuqori - «ishchi aristokratiyasi» va quyi - malakasi past darajada bo'lgan ishchilardan iborat bo'lib, boshqaruvchilar va ishchi aristokratiyasining qo'shilishidan shakllanmoqda, deb fikr bildiradi.

Jamiyat ijtimoiy tarkibi turli ijtimoiy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham ifodalaydi. Masalan:

- ijtimoiy-sinfiy, guruhlararo (sinflar, ijtimoiy tabaqalar, qatlamalar);
- ijtimoiy-demografik (yoshlar, o'rta yoshlar, xalqlar);
- ijtimoiy-professional (kasb-korga qarab o'qituvchilar, injener, tibbiyot xodimlari);
- ijtimoiy-hududiy (mintaqa, shahar, qishloq, rayon, mahalla, aholisi)

Jamiyat ijtimoiy tarkibining yana bir yo'nalishi – mamlakat xalq xo'jaligida band bo'lgan ijtimoiy guruhlar va tarkibini o'rganishdir. Aholining uy-joy bilan bandligi, maishiy xizmat va boshqa. Ta'lim darajasi, mansab darajasi, ijtimoiy-hududiy yo'nalish va boshqalar.

Iqtisodiy va taqsimot munosabatlari. Bunda asosiy e'tibor-mehnatning ijtimoiy muammolari, mehnat faoliyati va taqsimot munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Taqsimot munosabatlari - hayotiy ne'matlar yuzasidan itimoiy guruhlar va qatlamalar o'rtasidagi munosabatlardir. Bozor mutnosabatlariga o'tishning (O'zbekistonda) 5 ta tamoyili bor:

- 1) iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi;
- 2) davlat bosh islohotchiligi;
- 3) qonun ustuvorligi;
- 4) o'tkir ijtimoiy siyosat (shu masalaga taalluqlidir);
- 5) bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Kuchli ijtimoiy siyosat printsiplari esa quyidagilardan iborat:

- 1) Aholini ish bilan ta'min qilish va mehnat bozorini shaklan-tirish.
- 2) Daromad siyosatini yurgizish: pul daromadlari.
- 3) Ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy kafolatlar, kam ta'minlagan-larni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.
- 4) Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.
- 5) Xalqning moddiy turmush sharoitini yaxshilash.
- 6) Har kimning mehnatiga va har kimning qobiliyatiga yarasha printsiptiga rioya qilish.

«Adolat bu - kishilar o'rtasidagi tenglikni nazorat qilishdirkim, toki bir toifa boshqa toifa ustidan hukmron bo'lmasin, har qaysi tabaqa ushbu qoidaga rioya qilsin», degan edi Husayn Voiz Koshifiy «Allohi Muhsiniydan» (1440-1505) asarida.

Ijtimoiy-sinfy munosabatlar: (Sinflar o'rtasidagi munosabatlardir). Bunda:

1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bogliqlik; 2) turli ijtimoiy guruhlar, qatlam, toifalar o'rtasidagi hayotiy ehtiyojlarni qondirish bo'yicha o'zaro bogliqlik bilan yuzaga keladigan munosabatlar.

3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bogliqlik munosabatlari.

Mulk shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) Davlat mulki.
- 2) Davlatga qarashli bo'lmagan mulk: a) xususiy mulk; b) jamoa (shirkat) mulki.
- 3) Yuridik va jismoniy shaxslar, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar mulki.
- 4) Aralash mulk shakli.

Hozir O'zbekistonda umuman mulkdorlar sinfi shakllanishining 2 ta sharti manbai mavjud:

- 1) Kichik va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish;

2) kimmatbaho qogozlar bozorini rivojlantirish⁶.

4. Ijtimoiy-demografik munosabatlar (aholining yoshi, o'sishi, ish bilan ta'minlanganlik va boshqalar kiradi.

Umuman, stratifikatsiya yigindilari:

- daromad;
- boyluk;
- obro'.

Stratifikatsiyaning tarixiy tiplari:

- daromad;
- hokimiyat;
- obro'.

Barcha insonlar bilim olishda tenglik printsiptan foydalanadi.

5. Sinfsiz jamiyat... Bu «Marksizm-leninizm ta'limotida» aytilgan.

6. O'zbekiston Respublikasida jamiyat ijtimoiy tuzilishi: Bozor munosabatlari bilan bogliq bo'lgan mulkchilikning 4 ta turi va shunga muvofiq sinflar yuzaga keldi. Mulkdorlar sinfi shakllanib bormoqda⁷. (53-54-moddalar).

Jamiyatning moddiy-ishlab chiqarish jarayoni sotsiologiyada ijtimoiy tizim sifatida olib qarab o'rganiladi. Moddiy ishlab chiqarish tizimi-ijtimoiy hayot sohasi bo'lib, kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bogliq.

Har qanday ijtimoiy jarayonlar inson faoliyati bilan uygunlashadi. Muayyan ijtimoiy birlik sifatida uyushgan kishilarning katta-katta guruhlar, sinflar, millatlar milliy-etnik, ijtimoiy-demografik, nisbatan kichik tizimlar: o'quv-tarbiyaviy, oila-turmush va boshqa guruhlar, ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar, ittifoqlar-jamiyatning ijtimoiy tarkibini tashkil qiladi. Ular tarixiy rivojlanish bosqichlarida turli ijtimoiy asoslarda shakllanadilar. Yashash sharoitiga, rivojlanish xususiyatlariga, ijtimoiy ehtiyojga, mnfaatlarga va muayyan maqsadga ega bo'ladi. Ijtimoiy tizimlar zanjirida turli o'ziga xos halqaga ega bo'ladilar. Ichki tashkiliy tuzilishi, harakteri, funktsional va rivojlanish darajasi, turmush tarzi, faoliyat shakli va usullari bilan qadriyatlar tizimi, norma, goyalari, qarashlari va boshqa jihatlari bilan o'zaro farq qiladilar. Jamiyatning ijtimoiy tarkibini konkret tarixiy davr kesimida olib qarash talab qilinadi, chunki turli tarixiy davrlar ijtimoiy tarkib o'zaro sifat va xususiyatlari bilan farq qiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibini sotsiologiya jihatidan o'rganish uni uch ma'noda: umumiy, maxsus keng va xususiy tor ma'noda olib qarashni taqozo etadi. Umumiy ma'nodagi ijtimoiy tarkib-jamiyatning bir butun tarkibini tashkil qiladi. Bu ijtimoiy tarkibning elementi sifatida jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga mos tushuvchi iqtisodiy siyosati, ideologiyasi kabi sohalari kiradi. Ikkinchi, maxsus, keng ma'nodagi

⁶ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan 4-tom. T.: «O'zbekiston», 1996, 174-175-betlar.

⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: «O'zbekiston», 2004, 15-bet.

ijtimoiy tarkibga esa ijtimoiy-tarixiy birlik munosabatlari kiradi. Bu tarkib milliy-etnik, ijtimoiy-demografik, mutaxassislik va boshqa shu kabi kishilar guruhlarini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda ijtimoiy tarkib tushunchasiga mehnat jamoalari, hududiy birlik, nisbatan tez o'zgaruvchan guruhlar kiradi.

Bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlarni yuqorida ko'rsatilgan uch metodologik bosqich bo'yicha sotsiologik tadqiq qilish - asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Sotsial stratifikatsiya va sotsial harakatchanlik (mobillik) nazariyasi sinfiylik ta'limotiga qarshi g'oya sifatida.

Sotsial mobillik deb ayrim shaxs yoki guruhlarining jamiyat tarkibidagi o'z o'rnini, mavqeyini o'zgartirishiga aytiladi.

Sotsial mobillik ijtimoiy rivojlanish qonunlarining amal qilishi bilan bog'liq bo'lib, ayrim shaxs va guruhlarining ijtimoiy mavqeyining quyiga yoki yuqoriga o'zgarib borishini ifodalaydi.

Sotsial mobillik konsepsiyasiga ko'ra, demokratik tuzum sharoitida kishilar o'zlarining shaxsiy qiziqishlari, tirishqoqliklari bilan jamiyat ijtimoiy tarkibidagi mavqelarini yaxshilab borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyotida uning tarkibiy tuzilishi, funktsional aloqadorlik o'zining «tabiiy qonunlari», evolyutsion rivojlanishi, ijtimoiy sohalarining bir maromdagi mutanosibliigi asosidagina rivojlanib borishi zarurligini hayot ko'rsatadi. Endilikda sotsial revolyutsiyalar davri o'tdi. Insoniyat yuqori intellektual taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning bu bosqichi yangi, o'ziga xos qonuniyatlar asosida borishi turgan gap.

Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendentsiyalari. Bozor munosabatlari sharoitida sotsial strukturaning o'zgarishi.

O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jarayoni. Sotsial mobillikda ma'lumotning, o'z kasbini puxta egallash va tadbirkorlikning ahamiyati katta. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida, eski ma'muriy – buyruqbozlikka asoslangan tuzumning emirilib, yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanib kelayotganligi natijasida sotsial mobillik jamiyatimiz a'zolarining faolligining, ijtimoiy munosabatlarning kuchayuvda stimull bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, u shahar bilan qishloq, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytiradi.

Sotsial harakatchanlik (mobillik) to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E. Giddens, T. Parsons, P. Sorokin va boshqalarning qarashlari. Shu o'rinda g'arb sotsiologiyasida keng o'rganiladigan sotsial mobillik tushunchasi xusuida to'xtalib o'tish talab etiladi.

Sotsial stratifikatsiya nazariyasiga asos solgan va uni yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan, yuqorida nomlari keltirilgan g'arb sotsiologlari sotsial mobillik to'g'risida ham o'z fikrlarini bildirganlar.

P.Sorokin o'zining “Inson. Sivilizatsiya. Jamiyat” asarida alohida bobni sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillikka bag'ishlagan. “Sotsial mobillik” tushunchasi sotsiologiyaga birinchi bor 1927 yilda P.A.Sorokin tomonidan kiritilgan. Uning qarashicha, sotsial mobillik kishilarning ijtimoiy pog'onalardan

ikki yo'nalish bo'yicha harakat qilishidir. Birinchisi, vertikal yo'nalishda bo'lib, unda yuqori va past darajalarga qarab, ikkinchisi esa gorizontal yo'nalishda bo'lib, unda bir ijtimoiy darajadagi o'zgarishni anglatadi. Frantsuz sotsiologlari P.Bertu va R.Burdonlar ham sotsial mobillikning jamiyat hayotining rivojlanishidagi muhim ahamiyatini ko'rsatib berganlar. Keyingi yillarda rus sotsiologlaridan akademik T.I.Zaslavskaya va professor R.V.Rivkinalar ham sotsial mobillikning Rossiya ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini tadqiq qilmoqdalar.

Sotsial harakatchanlik belgilari. Ijtimoiy o'zgaruvchanlik tushunchasi: Ijtimoiy o'zgaruvchanlik sotsiologik tushuncha bo'lib, demografik va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llaniladi. Shaxsning bir sinfdan ikkinchi bir sinfga, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, jamiyat ijtimoiy tarkibida tutgan o'rnini, o'zgarishini bildiradi.

Shaxs misolida go'dak bola, o'smir, yoshlik, o'rta yoshlik, qarilik. Ma'lumot, olai, hunar o'rganadi, kasb egallaydi. Uning jamiyatda tutgan o'rnini o'zgarib boradi. O'quvchi edi, ishchi bo'ldi, yo student bo'ldi, nafaqaxo'r va boshqa.

Jamiyat misolida. Jamiyat asosini tashkil etgan insonlar hayotida ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayoni sodir bo'ladi. Sinflar paydo bo'lishida, sinflarning bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tishida, jamiyat sinfiy strukturasi, undagi ishlab chiqarish kuchlari joylashishida, taraqqiyotida, fan, texnika, madaniyat, sa'nat taraqqiyotida o'z aksini topadi. Masalan, qul, krestiyon, ishchi, sovxozchi, pomeshchik, kapitalist, fermer.

Sotsial harakatchanlik turlari: gorizontal va vertikal sotsial harakatchanlik. Ijtimoiy o'zgaruvchanlik turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi yoki sotsial mobillik tushunchasi bilan bog'liq. Kishilarning ijtimoiy pogonalardan 2 yo'nalishi bo'yicha harakat qilishidir:

1) Vertikal (yo'nalish) ijtimoiy o'zgaruvchanlik. Bu bir ijtimoiy tizimda tutgan o'rnini, o'zgarishidir. Masalan, shaxs misolida: o'quvchi, ishchi, xizmatchi, olim, kolxozchi, pensioner va hokazo (Yuqori va past darajaga qarab o'zgarib boradi).

2) Gorizontal (yo'nalish) ijtimoiy o'zgaruvchanlik. Bir ijtimoiy guruq doirasidagi o'zgarishlar yoki ijtimoiy darajadagi o'zgarishlar. Masalan, ishchi 1-5 razryad, aspirant, kandidat, fan doktori, akademik.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlikning turlari:

1. Reproduktiv. Ishlab chiqarish, tuzilishi, ekologik o'zgarishlar.
2. Statusli - xizmat pogonasiga ko'tarilish, hayot darajasi va boshqa.
3. Territorial - qishlokdan shaharga ko'chish, ishlab chiqarishni ko'chirish, bir davlatdan ikkinchisiga qo'shish va h.k.
4. Ma'naviy - manfaatlar, qadriyatlar, fikr, gushunchalar, his-tuygular.
5. Siyosiy (sinfiy struktura), hukmronlik shakli.
6. Ilmiy-texnikaviy va hokazo.

Sotsial mobillikda asosiy va asosiy bo'lmagan, ikkinchi darajali zaruriy va tasodifiy, ommaviy va xususiy kabi ko'rinishlar va yo'nalishlar mavjud.

Guruhiy va individual harakatchanlik.

Avlod ichidagi va avlodlar o'rtasidagi sotsial harakatchanlik. Bir avlod bo'yicha, ikki ota va bolalar, uch bobo, ota va bolalar, avlodidagi ijtimoiy

pozitsiyaning o'zgarishini ifodalaydigan sotsial mobillik ham amal qiladi. To'laqonli demokratiya sharoitdagina sotsial mobillik uchun imkoniyat yaratiladi. Siyosiy istibdodga asoslangan g'arb mamlakatlarida esa sotsial mobillik uchun sharoit bo'lmaydi. AQSH va demokratik tuzumga asoslangan g'arb mamlakatlarida jamiyatning tabaqalashtirilgan to'siqlari olib tashlanib, ijtimoiy erkinlik uchun keng imkoniyatlar yaratilib borishi bilan ijtimoiy guruh va ayrim shaxslarning sotsial mobillik darajasi ham ortmoqda.

Strukturaviy sotsial harakatchanlik. Sotsial stratifikatsiya - Sotsiologlar sotsial harakatchanlikni stratalarga (qatlamlarga) bo'lingan jamiyatning o'ziga xos xususiyati deb biladilar va uni gorizontal hamda vertikal harakatchanlikka ajratadilar. Kishilarning aynan bir tabaqa ichida harakati, masalan, ish joyini yoki turar joyini o'zgartirish gorizontal harakatchanlikni anglatadi. Vertikal harakatchanlik esa quyi tabaqalardan yuqori tabaqalar tomon va aksincha qilingan harakatni bildiradi. Amerikalik sotsiolog Seymur Lipsetning fikricha, jamiyatda stratifikatsiya tizim sotsial zinaning quyi pogonasida turganlarga norozilik manbai sifatida ta'sir qiladi, shuning uchun ham stratifikatsiya tizimi ajralishning manbaidir, ammo shu bilan birga u kishilarni turli lavozimlarga tayinlashning va ularni o'z vazifalarini ado etishga ragbatlantirishning asosiy mexanizmidir. Amerka sotsiologiyasida U.Uortner Amerika jamiyatining sotsial tabaqalanish modelini ishlab chiqdi. Bu modelga oltita sotsial sinfning tabaqalanish tartibi berilgan. Uortnerga ergashgan holda K. Deyvs, U. Mur, V. Koleman, L. Reyuter, E.Shoyx, T. Gayger, R. Darendorf kabi olimlar o'zlarining stratifikatsiya sxemalarini ishlab chiqdilar.

Jamiyatda sotsial harakatchanlik yo'llari. Sotsial harakatchanlikning demografik omillari. Sotsial mobillilik-bu insonlarning bir sotsial guruhidan va tabaqasidan (strat) boshqalariga o'tishi bo'lishi mumkin bo'lgan sotsial mobillik:

- gorizontal-sotsial stratifikatsiyaning osha darajada o'tishi;
- vertikal-ierarxik tartibda o'tishi.

Mobillilikka quyidagi holatlar ta'sir qiladi:

- hayot sharoitlarining o'zgarishi;
- inson tomonidan yangi kasbning buyurilishi;
- inson faoliyatining to'rini o'zgarishi (masalan, siyosatga o'tib ketishi);
- u yoki bu kasblar va faoliyat turlarining afzalliklari haqida ijtimoiy fikr.

4. Sotsial struktura va mobillilik muammolari grajdanlik jamiyati muammolari bilan bog'liqdir. gegelga ko'ra, grajdanlik jamiyati-xususiy mulkchilikka va huquqqa suyanadigan ijtimoiy munosabatlar sistemasidir.

Grajdanlik jamiyatda quyidagi manfaatlar amalga oshadi:

- shaxslarning;
- asosiy tabaqalarning.

5. Zamonaviy jamiyat sotsial strukturasining rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalar:

- jamiyatning yangi sotsial guruhlarini va tabaqalarini paydo bo'lishi;
- iqtisoddagi dunyo integratsiyasi jarayonlari jamiyat strukturasiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Sotsial siyosatda ikkala tendentsiyalar ham nazarda tutiladi, va ular bir-birlari bilan organik va dialektik bog'liqdir.

Bu sotsial struktura va dinamikaning rivojlanishi uchun zarur bo'lib, bu jarayonlarni ilmiy boshqaradi.

7-MAVZU: Sotsial munosabatlar. (2 soat).

Reja:

- 1.Sotsial munosabatlar tushunchasi va turlari.
- 2.Sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlash omillari.
- 3.Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlarini.

Sotsial munosabatlar tushunchasi. Sotsiologiyada ijtimoiy munosabatlar ham alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabatlar - kishilar, ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar va ularning ichki iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy va madaniy sohalaridagi faoliyatini tashkil qiladi. Alohida olingan inson-jamiyatning ijtimoiy munosabatlarining boshlangich unsuri hisoblanadi. o'z mohiyatiga kura ijtimoiy munosabatlar moddiy va ma'naviy, ustkurmaviy mazmunda bo'ladi. Moddiy ijtimoiy munosabatlarga iqtisodiy, ishlab chiqarish munosabatlari kiardi. Ma'naviy munosabatlarga ahloqiy, mafkuraviy, diniy va boshqa munosabatlar o'z aksini topadi. Ustkurmaviy munosabatlar siyosiy, huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Jamiyat rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar rivoji bilan belgilanadi.

Sotsiologiyada ijtimoiy munosabatlardagi obyektiv jihatlar bilan bir qatorda, subyektiv omillarni o'rganish ham alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy munosabatlarda moddiy ishlab chiqarish munosabatlari, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, madaniy, ahloqiy va boshqa munosabatlarga nisbatan belgilovchi xarakterga ega bo'lib, jamiyat hayotining umumsotsiologik qonuniyatini ifodalaydi. Unda ro'y beradigan o'zgarishlar asta-sekin, boshqa barcha munosabatlardagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin, shuningdek ma'naviyatdagi tub o'zgarishlarga ham sabab bo'ladi.

Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar 2 xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sotsietal munosabatlar
2. Ijtimoiy munosabatlar

1. Sotsietal munosabatlar sistemasiga: jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sotsietal sistemasida ierarxik qaramlik mavjud. Ya'ni bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak: Sotsietal munosabatlar sistemasi tuzilishi:

1) iqtisodiy: (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);

2) ijtimoiy: a) ijtimoiy munosabatlar asosiy elementi ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi kishilar (jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.

3) siyosiy:

4) mafkuraviy.

Sotsial munosabat turlari: hamfikrlik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, begonalashuv, befarqlik, krizis, kamsitish, notenglik. Ijtimoiy munosabatlar: («ijtimoiy» sistema elementi – kishilar).

Ijtimoiy munosabatlar - kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlar. Ular turli jamoalar ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kishilar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, ularni bir butun sotsial organizm qilib bog'laydi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyotida chorvachilik paydo bo'lishi, dehkanchilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfikrlilik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatlari bilan jamiyat tarakqiyotiga ijobiy ham salbiy ta'sir etadi.

Ijobiy munosabatlar ta'siri: hamfikrlilik, kooperatsiya, kurash.

Salbiy ta'sirli munosabatlar: befarqlik, kamsitish, konfliktlar, begonalashuv, krizis, tengsizlik.

Ijtimoiy munosabatlar 2 turga bo'linadi:

1. Moddiy munosabatlar.

2. Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar.

Moddiy munosabatlar - inson hayotining moddiy taraqqiyotidagi munosabatlar: inson yashashi, bor bo'lishi uchun, avvalo u moddiy ehtiyojini ta'minlashi kerak. U oziq-ovqat, kiyim, turarjoy bilan ta'minlanishi lozim. Ana shu ehtiyojini qondirish uchun u jamiyatda boshqa insonlar, guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Shuningdek, oila ham, guruhlar ham, xoli davlat ham nihoyat butun jamiyat hisoblanadi.

Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar - siyosiy, huquqiy, ahloqiy va diniy munosabatlar. Uning asosiy o'zagini moddiy munosabatlar tashkil etadi. Demak, moddiy munosabatlar bazis, ideologik munosabatlar ustqurma hisoblanadi.

Madaniy munosabatlar ham mavjud.

Ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik:

1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik;

2) turli ijtimoiy guruh, qatlam, toifalr o'rtasidagi hayotiy bog'liqlik;

3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bog'liqligi mavjud.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy institutlar;

2) siyosiy institutlar;

3) nikoh, oila va qon-qarindoshlik;

4) tarbiya institutlari;

5) madaniyat sohasi institutlari.

Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. Ijtimoiy munosabatlar sistemasida plyuralizm (lot. ko'plik katta ahamiyatga ega. Plyuralizm konseptsiyasiga ko'ra borliq asosini bir necha yoki juda ko'p bir-biri bilan bog'lanmagan substantsiyalar tashkil etadi. Plyuralizm atamasi nemis filosofi Volf tomonidan kiritilgan.

Substantsiya (lot. mohiyat) narsa va hodisalarning asosini tashkil etuvchi omil. Substantsiyaning ham materialistik ham idealistik qarashlari bor.

Sotsial munosabatlarning asoslari. Ijtimoiy munosabatlar 2 turga bo'linadi:

1. Moddiy munosabatlar.

2. Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar.

Moddiy munosabatlar - inson hayotini moddiy taraqqiyotidagi munosabatlar: inson yashashi, bor bo'lishi uchun, avvalo u moddiy ehtiyojini ta'minlashi kerak. U oziq-ovqat, kiyim, turar-joy bilan ta'minlanishi lozim. Ana shu ehtiyojini qondirish uchun u jamiyatda boshqa insonlar, guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Xuddi shuningdek oila ham, guruhlar ham, xoli davlat ham nihoyat butun jamiyat hisoblanadi.

Mafkuraviy (ideologik) munosabatlar - siyosiy, huquqiy, ahloqiy va diniy munosabatlar. Uning asosiy o'zagini moddiy munosabatlar tashkil etadi. Demak, moddiy munosabatlar bazis, ideologik munosabatlar ustqurma hisoblanadi.

Madaniy munosabatlar ham mavjud.

Ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bogliqlik:

- 1) insonlar o'rtasidagi o'zaro bogliqlik;
- 2) turli ijtimoiy guruh, qatlam, toifalr o'rtasidagi hayotiy bogliqlik;
- 3) insonlarning ijtimoiy-maishiy sohadagi o'zaro bogliqligi mavjud.

Ijtimoiy munosabatlarda sohalarga doir ijtimoiy institut turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) iqtisodiy institutlar;
- 2) siyosiy institutlar;
- 3) nikoh, oila va qon-qarindoshlik;
- 4) tarbiya institutlari;
- 5) madaniyat sohasi institutlari.

Ijtimoiy mavqe (status) tushunchasi biz oldin bayon etganimizdek, alohida olingan inson yoki ijtimoiy guruhlarining jamiyatda, mavjud ijtimoiy tizimda tutgan, egallab turgan mavqeini ifodalaydi. Bu tushuncha orqali kishilar ijtimoiy kelib chiqishi, irqi yoki o'zining harakati (ma'lumoti, ko'rsatgan xizmati) orqali erishgan darajasi o'rganiladi.

Ijtimoiy sanksiya (sanksiya - lot. qat'iy qaror ma'nosini bil.) - deb ijtimoiy guruh yoki tizimning individ xulqiga ijtimoiy normadan ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga nisbatan reaksiyasi tushuniladi. Ijtimoiy sanksiya jamiyat hayotini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning ijobiy xatti-harakati uchun ragbatlantirish yoki yomon salbiy xatti-harakati - uchun jazo belgilash bilan ijtimoiy nazorat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy sanksiya turlari:

1) Jismoniy sanksiya: kaltaklash, ozodlikdan mahrum etish, o'lim jazosi va boshqalar.

2) Iqtisodiy sanksiya: mukofotlash, moddiy ragbatlantirish, jarima solish va boshqalar.

3) Ramziy sanksiya: hurmat bildirish, izza qilish, xayfsan berish.

Ijtimoiy munosabatlar asosini yana ijtimoiy rol tashkil etadi. Ijtimoiy rol: jamiyat ijtimoiy tarkibida boglovchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy rol, oldingi masalada ta'kidlaganimizdek, jamiyat ijtimoiy tarkibida-psixologik jihatlarni o'zida mujassam etgan.

Hamfikirlik, barqarorlik va kooperatsiya - sotsial tizimlarning muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik — bu ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko'rinishidir. Avvalom bor shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki sotsiologiya faniga bu termin sotsial jipslashuvni bildiradigan tushuncha sifatida birinchi bo'lib O. Kont tomonidan kiritilgan edi. Bu muammoga ko'pgina mutafakkirlar o'zlarining keng e'tiborlarini qaratganlar. Ayniqsa E. Dyurkgeym, G. Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar, lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yo'nalishlarda olib bordilar. E. Dyurkgeymning fikricha sotsial birdamlikning bu ahloqiy prinsip va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir a'zosi tomonidan tan olinadi. O. Kont va G. Spenserlarning tadqiqotlarida sotsial birdamlikni asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil qilishi markaziy o'rin egallaydi. G. Spenser o'zining birdamlik ta'limotida majburiy va ko'ngilli birdamlikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha kishilik jamiyati o'zining rivojlanish yo'lida 2 ta harbiy va sanoat davrlari bo'linadi. Harbiy turdagi jamiyat ierarxik tartibli jamiyat va kuchli markazlashgan nazorat bilan xarakterlanadi. Butun hayot bu Erda intizomga asoslangan. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi.

Ko'pgina G'arb olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning sermahsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning iloji yo'qdir. Shuning uchun ularni ya'ni bu vositalarni gurular mulki qilib berishni taklif qiladilar. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo'lsa «ma'muriyat» xalqdan ajralib qoladi va shu sabab orqali byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. O'z-o'zidan tabiiyki bu jarayonlar tufayli ishchilar o'zlarining mehnatlaridan manfaatdorlikni his qilmaydilar.

Mazkur tahminlarning aksariyati o'z isbotlarini topdilar. Ayniqsa mustamlakachilik davrida bizning diyorda sohta birdamlik asosida kooperatsiyalashtirish ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperatsiya niqobi ostida bizning xudud hom-ashyo etishtiradigan respublikaga aylandi. Jamiyatimizda tub ma'noda birlashma jarayoni faoliyat ko'rsatmadi.

E. Dyurkgeym konsepsiyasida hamfikirlik tushunchasi. Muammoni 2 ta jihatga ajratib tahlil qilishni D. Dyurkgeymning ham ilmiy faoliyatida ko'rish

mumkin. U o'z ta'limotini mexanik va organik birdamlik ajratadi. Rivojlanmagan va eski jamiyatlarda hukmronlik qiladigan birdamlikni Dyurkgeym mexanik birdamlik deb ataydi.

Mexanik birdamlik — bu «jamoada turidagi» birdamlik bo'lib, u bu jamoadagi individlarning o'xshashliklari bilan belgilanadi va ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi» Jamiyatda ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi tufayli individlar maxsus vazifalarni bajaradilar va bu hislatlar sababli jamiyat jonli organizmni eslatadi. Shu jamiyatda vujudga kelgan yangi turdagi birdamlikni Dyurkgeym organik birdamlik deb ataydi. Mehnatning taqsimlanishi individlarda o'zlariga xos qobiliyatlarning rivojlanishiga omil bo'ladi. Endi har bir individlar bir-birlariga bog'liq bo'ladilar va ular sotsial munosabatlarning yagona tizimi orqali birdamlik tuyg'ulariga erishadilar.

Begonalashuv va tanazzul. Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birilariga bog'liq, hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib narhlar tez sur'atlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan deb fikr yuritishimiz mumkin.

Bu chuqur tanazzul insonlarning kuchli begonalashuv olamiga turtib kirgizishi aniq. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa tanazzul ham chuqurlashib boraveradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bu esa taraqqiyot uchun qo'yilgan ulkan qadamdir. Lekin shu bilan birgalikda ijtimoiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning shunday bir turi — ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib asta sekinlik bilan o'z mehnatning natijasidan begonalashib boradi. Endi bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yo'q. Marksizm ta'limoti bo'yicha xususiy mulk ijtimoiylashtirilgach ishlab chiqarish vositalariga endi bevosita ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyotda esa buning aksi bo'lib chiqdi.

E.Dyurkgeymning anomiya (qonunsizlik) konseptsiyasi, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel, ekszenstentsial va fenomenologik sotsiologiya asoschilari ta'limotlarida begonalashuv va jamiyatdagi inqiroz hodisalarining o'zaro aloqadorligi to'g'risidagi fikrlari. Ijtimoiy hayotning muayyan sohalari xulq-atvorning aniq andozalari bo'lmasa, anomiya kelib chiqadi. Anomiyani Dyurkgeym tomonidan asoslab berilgan o'z-o'zini o'ldirishning turlaridang biri bo'lib, bunda o'z-o'zini o'ldirish yirik ijtimoiy larzalar, iqtisodiy inqirozlar davrida sodir bo'ladi. Individ tushkunlikka tushadi, yangi ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslasha olmaydigan irodasi bo'sh, e'tiqodi past ikkilanuvchilar o'rtasida umuman, yo'lini yo'qotgan individlar orasida ko'proq uchraydi.

Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlari. Sotsiologiya fanining muhim masalalaridan hisoblanib, uni bir qator taniqli sotsiologlar o'z tadqiqotlarida o'rganganlar. Zamonaviy jamiyat hayotida quyidagi begonalashuv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Iqtisodiy

- 2.Siyosiy.
- 3.Madaniy.
- 4.Ijtimoiy.
5. psixologik.

Ushbu begonalashuv turlari o'zlarining mahlum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega:

1. Faoliyatdan begonalashuv.
2. Faoliyat boshqaruvidan begonalashuv.
- 3.Faoliyat natijalaridan begonalashuv.

Siyosiy begonalashuv siyosiy hokimiyatdan; madaniy begonalashuv-mahnaviyatdan va madaniyatdan; ijtimoiy begonalashuv muloqotdan, insonlarning bir-biridan; psixologik begonalashuv o'z-o'zidan begonalashuvdan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birilariga bog'lik hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish surhatlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketsa, narxlar tez surhatlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tanglik vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan, degan fikrga kelishimiz mumkin. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa, tanazzul ham chuqurlashib boraveradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bir qarashda bu taraqqiyot uchun qo'yilgan katta qadamdir.

Lekin bunda ijtimoiy mulkka asoslangan shunday ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarishvositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan o'z mehnatining natijasidan begonalashib boradi. Endi bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yo'q. Marksizm ta'limoti bo'yicha, xususiy mulk ijtimoiylashtirilgach, ishlab chiqarish vositalariga ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyotda esa buning aksi bo'lib chiqdi. Siyosiy hokimiyatni bosib olgan proletariat ishlab chiqarish vositalarini endi davlat mulkiga aylantiradi. 73 yillik tarix davomida bizga uqtirib kelingan ijtimoiy mulk mutloq davlat mulki edi, bu mulk esa mulkchilikning Eng jirkanch, adolatsiz turi bo'lib chiqdi. Mehnat kishisi xususiy mulkdan begona etilgan edi. Siyosiy jabhada ham jamiyatning ko'pgina a'zolari siyosiy hokimiyatdan begonalashtirildi. Ya'ni, siyosiy hokimiyat bu – xalq hokimiyati, umumxalq hokimiyati, deb ehlon qilingan bo'lsada, aslida u mahlum bir guruh – elitaning xususiy mulkiga aylandi. Buning asosida butun bir xalq davlat siyosiy hokimiyatidan begonalashdi va bu begonalashgan omma bilan nomenklaturaning orasida ulkan jarlik paydo bo'ldi. O'z navbatida bu jarayonlar chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tanazzulni keltirib chiqardi, totalitar davlat o'z-o'zidan parchalanib ketdi. Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda ma'naviyat va madaniyatning roli katta. Madaniy sohadagi begonalashuv ham anchagina chuqur salbiy oqibatlarga olib keladigan ma'naviy tanazzulni keltirib chiqaradi. Chunki u individlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishlariga salbiy tahsir ko'rsatadi. Agar jamiyat azolari o'z ma'naviyatlari, boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular o'zlarining kelib chiqishlaridan

tortib, to o'z millatlarining milliy urf-odatlarini, an'analarini inkor qila boshlaydilar. Agarda yaqin o'tmishimizga murojaat etsak, ushbu mulohazalarimizning yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy madaniy merosimizdan begonalashuvimiz, atoqli adib Chingiz Aytmatovning ta'biricha, bizlarni manqurtlarga aylantiray dedi, ya'ni biz o'z xalqimiz tarixi, milliy ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari jasoratlaridan, dinimiz va o'zligimizdan uzoqlashib qoldik.

Davlatimiz mustaqillikka erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik. Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan ijtimoiy begonalashuv insonlarni muloqotdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson O'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga egadir. O'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyojlar asosida insonlar doimo bir-birlari bilan munosabatlarda, muloqotlarda bo'ladi. Muloqotning ijtimoiy ma'nosi shundaki, u madaniyat shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ruhiy begonalashuv-bu insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishidir. Bu muammoni nemis mutafakkiri Erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqan. Zamonaviy jamiyatni E.Fromm inson mohiyatini "mashinalashtirish", "kompyuterlashtirish" va «robotlashtirish» jarayonlari tufayli begonalashuvning bir mahsuli deb ta'riflaydi.

Psixologik va ijtimoiy begonalashuvni bir-birlariga yaqinligi shundaki, insonlar o'zaro munosabatlarda va amaliy muloqotda begonalashsalar, o'z-o'zlaridan begonalashuv ham yuz beradi. Chunki insonlarning bir-birlaridan begonalashishlari oqibatida ularda ikkilanish, zerikish va hayotga qiziqishni so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida insonning o'z kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yo'qolib, u o'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi turli xil begonalashuv jarayonlari tezroq ilmiylik va uyg'unlik asosida bartaraf qilinsagina, jamiyat ijtimoiy sog'lom sharoitda taraqqiy etadi va salbiy hodisalarning tahsiri o'z vaqtida bartaraf etiladi. Masalan, mehnatdan begonalashishni bartaraf etish uchun birinchi navbatda insonlarning o'z mehnatlari natijalaridan manfaatdor bo'lishlari va uning oqibatida esa mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirib, ularni qiziqish va kuch g'ayrat bilan ishlashlarini tashkil etish kerak. Ishlab chiqarishni boshqarishdan begonalashuv muammosini bartaraf etish ham juda muhim ma'no kasb etadi. Buning uchun ishlab chiqarish munosabatlarini chuqur demokratiyalashtirish, korxonalar, tashkilot va muassasalardagi mavjud boshqaruv tizimlarini ijtimoiy adolat me'yorlari bilan takomillashtirish va ishchi xizmatchilarga xo'jalik egasining aniq vazifasi, huquqi hamda mas'uliyatlarini topshirish kerak.

Madaniyatdan begonalashuvni bartaraf etish uchun madaniy merosga munosabatni takomillashtirib borish, jamiyatning har bir ahzosi mahnaviy qadriyatlardan yaxshi xabardor bo'lishi va madaniy qurilishga yetarli mablag' ajratilishini tahminlash zarur. Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf qilish uchun insonlarni bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarini haqiqiy birdamlik va hamkorlik asosida qurish kerakki, shunda har bir inson boshqalar uchun kerakligini

chin yurakdan his qilsin. Ruhiy begonalashuvni bartaraf etish choralari ijtimoiy begonalashuvni bartaraf etishning uzviy davomidir. Inson o'zini kimgadir kerakligini ruhan seza olsagina u hech qachon tushkunlikka tushmaydi va yakkalanish, iztirobga tushish xavfidan halos bo'ladi. Oqibatda uni o'z-o'zidan, o'z mohiyatidan begonalashuviga deyarli hech qanday sabab qolmaydi.

Milliy g'oya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimidagi o'rni. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini chuqur qamrab olib, davlatimizni rivojlangan mamlakatlar safidan tezroq o'z munosib o'rnini egallashiga xizmat qilmoqda. Albatta, ushbu ijtimoiy jarayonning bir tekisda kechishi muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Mazkur qiyinchiliklar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi bo'lgan milliy mafkurani yaratish harakatlarida ko'proq namoyon bo'layotgani biz jamiyatshunoslarni ko'proq tashvishga solmoqda. Chunki, milliy mafkura mustaqil davlatning asosiy ma'naviy poydevorlaridan hisoblanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek – Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar¹. Milliy mafkuramiz esa biror bir siyosiy partiya yoki ijtimoiy harakatlarning emas, balki umumxalq manfaatlarini ifodalashi juda muhimdir. Ushbu mafkuraning mazmuni va mohiyati millatimizning o'ziga xos bo'lgan tafakkur tarziga mos kelishi uni real hayotdan ajralmasligini tahminlaydi. Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani jamiyat mafkurasi deb bilish mumkin. Respublika prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan fikrlardan ma'lumki, milliy mafkuraning shakllanishiga millatning o'ziga xos xususiyatlari: milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar va udumlar negizida shakllanadigan hamda rivojlanadigan tafakkur tarzi bevosita asos bo'ladi.

Shu jihatdan qaraganda, milliy g'oya va tafakkur o'zaro bog'liq tushunchalardir. Shuning uchun ularni bir-birlaridan sira ajratib olishi mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, qaysi bir jamiyatda ushbu masalaga to'g'ri munosaatda bo'lib, uning negizida milliy mafkura shakllansa, o'sha jamiyatda taraqqiyot, erkinlik va ozodlik qaror topadi. O'rta asrlarda yashab o'tgan avlod-ajdodlarimiz hayot yo'llarini tahlil qilib ko'rsak, shunga amin bo'lamizki, al Farobiy, al Beruniy, Ibn Sino, A.Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab yuksak tafakkur egalari bo'lgan bobokalonlarimiz yashagan ijtimoiy – madaniy muhitda shakllangan tafakkur tarzi va milliy g'oyalar naqadar teran va ilmiy asosga qurilganligini ko'ramiz. Demak, ajdodlarimiz yashagan o'sha davrlarda ushbu masalalarga katta e'tibor qaratilgan. Shuning oqibati o'laroq, Turon eli yuksak rivojlangan ilm-fan va madaniyat o'chog'i bo'lgan. Lekin baxtga qarshi, Yevropadagi mashhur Renesans davridan ancha ilgari yaratilgan bu taraqqiyot yo'lini biz asta-sekinlik bilan unuta boshladik. Milliy g'oya, milliy mafkuraning asoslaridan bo'lgan mahnaviy boyliklarimizga qanchalik e'tiborimizni kamroq

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalkni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T. 1998. 4-bet.

qaratsak, taraqqiyot yulidan shunchalik chetga chiqib keta berdik va milliy g'oya o'rini "mahalliychilik" g'oyasi egalladi. Buning natijasida markazlashgan ulkan davlatimiz parchalanib, millatimiz tarqoq va qoloqlik darajasiga tushib qoldi. Yagona milliy g'oyamizni mahalliychilik g'oyasiga aylantirishimiz, buning natijasida esa tarqoqlilik va kuchsizlik darajasiga tushishimiz sababli avval chorizm mustamlakasiga, keyinchalikesa sobiq Sho'ro imperiyasining arzon xom-ashyo yetishtirib beradigan "viloyati"ga aylandik.

Mana endi biz 130 yildan ortiq vaqt davom etgan mustamlakachilikdan qutulib, yana markazlashgan davlatchiligimizga erishdik. Shu o'rinda aytishimiz joizki, bizdan oldin o'tgan avlod ajdodlarimizyo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini aslo qaytarmasligimiz zarur. Buning uchun yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashimiz kerak. Jamiyat hayotini sotsiologik tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Vatandoshlarimiz ushbu milliy mafkura mohiyatini borgan sari chuqurroq tushunib borayotganliklarini qayd qilish mumkin.

8-MAVZU: Ijtimoiy taraqqiyot sotsiologiyasi. (2 soat).

Reja:

1. Sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot tushunchasi va shakllari.
2. Sotsial reformalar va ularning turlari.
3. Global ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar va ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga salbiy ta'siri.

Sotsiologiyada ijtimoiy taraqqiyot tushunchasi. Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeymda sotsial taraqqiyot haqidagi g'oya mehnat taqsimotiga bog'lab tushuntiriladi. Ijtimoiy rivojlanish, uning fikricha, mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda mehnat taqsimotiga asoslangan organik birdamlik – hamkorlik jamiyatiga o'tishdir. Dyurkgeym nazariyasida sotsial taraqqiyotni ta'minlovchi omil mehnat taqsimoti deb qaraladi. Mehnat taqsimoti segmentar jamiyatning barham topishiga va organik birdamlikka asoslangan jamiyatga o'tilishiga imkon beradi. Mexanik birdamlik - birdamlikning «jamoaviy» tipi bo'lib, uni tashkil etuvchi individlar bir-birlariga o'xshash, ular bajaradigan ijtimoiy vazifalar ham bir xil, ularning shaxsiy xususiyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Dyurkgeym fikricha, bu jamiyat individning ongi jamoa ongining oddiy mahsulidir, zotan, umumiy, jamoaviy ong bo'lishi mexanik birdamlik bo'lgan jamiyatning asosiy belgisidir. Jamiyat asta-sekin o'zgara boradi. Lokal (mahalliy) segmentlar chegarasi buzila boshlaydi, chunki, turli xil ijtimoiy aloqalar vujudga kela boshlaydi. Aloqa yo'llari va vositalari rivojlanadi, aholi tobora ko'payadi, shaharlar o'sa boshlaydi, aholi moddiy va ma'naviy zichligi oshadi va mehnat taqsimoti keng tarqala boshlaydi. Kishilarning ongi tobora tabaqalashayotgan mehnat taqsimotiga va murakkablashayotgan ijtimoiy tashkilotga mos kela boshlaydi. Dyurkgeym nazariyasida ushbu vujudga keladigan birdamlikning yangi ko'rinishi organik birdamlik deb talqin etilgan.

Ijtimoiy o'zgarish va taraqqiyot tushunchalarining nisbati. Ijtimoiy progress, regress, evolyutsiya va revolyutsiya ijtimoiy o'zgarishlarning shakli sifatida. P.Sorokin birinchilardan bo'lib sotsiomadaniy o'zgarishlar dinamikasi nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra ijtimoiy voqelik o'zgarishi qonunli jarayondir. Muayyan ijtimoiy - madaniy ulkan tizimlar (supersistemalar) bir birlari bilan dialektik ravishda almashinadi. Muayyan jamiyat hukmron bo'lib turgan dunyoqarashning «o'tmaslashib qolishi» uning boshqa dunyoqarashga o'rnini bo'shatib berishga olib keladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy muassasalar va normalarning o'zgarishiga, keyinchalik esa jamiyatning tubdan o'zgarishiga olib keladi.

«Sotsial evolyutsiya» va «sotsial revolyutsiya» sotsial rivojlanishning shakllari sifatida qaralishi mumkin. Albatta, bunda islohot (reforma) o'zgarishlarini inqilob (revolyutsiya) o'zgarishlari yo'lidagi, ularga bo'ysunadigan rivojlanish shakli deb qarash mumkin emas. Jamiyat rivojlanishining asosiy, normal yo'li - reforma, islohotdir.

Ijtimoiy progress muammolari. O.Kont sotsiologiyasida sotsial dinamika jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yondashuvni bildiradi. Aslida, dinamika mexanikaning jismlar harakatini va harakat bilan uni yuzaga keltiruvchi kuch o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limdir. Umumiy ma'noda dinamika harakat holatini, narsa-hodisalarning o'sish, o'zgarish, rivojlanish jarayonini anglatadi. Sotsiologiya fiziologiyaning bevosita davomi yoki «sotsial fizika» deb hisoblangan. Kont ijtimoiy voqelikning tabiiy qonunlarini topishga harakat qilgan edi. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun ijtimoiy voqelik ikki yo'nalishda - sotsial statika yo'nalishida va sotsial dinamika yo'nalishida ko'rilishi lozim. Sotsial statika ijtimoiy elementlarning muvozanatini, mavjudlik qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy elementlarning uzviy uyg'unligi, ularning o'zaro muvozanatlashgan tarzda mavjudligi jamiyatni yaxlit bir butunlik sifatida qarashga imkon beradi. Shuning uchun ham jamiyat alohida o'ziga xos tizim bo'lib, bunda eng muhimi, elementlarning o'zaro aloqasidir. Sotsial statika har qanday jamiyat barqarorlik, muvozanat holatini, asosiy tartibotni o'rgansa, sotsial dinamika jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanishning izchilligi, birin-ketinligini ochib beradi. Shunday qilib, sotsial dinamika jamiyatning o'zgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy o'zgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarini ifodalovchi sotsiologik kategoriya deb qaralishi mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyutsion, revolyutsion va reformistik taraqqiyotlar. Ijtimoiy taraqqiyot shakllaridan biri bo'lgan revolyutsiya tushunchasiga ta'rifberadigan bo'lsak, bu atama turlicha talqinlarga ega. Masalan, davlat tuntarilishi, bir guruh etakchilarning siyosiy institutlar va hokimiyat tizimini sezilarli o'zgarishlarsiz ikkinchi tizim bilan almashtirish aniq sotsiologik ma'noda revolyutsiya, deb atalishi mumkin emas. Revolyutsiya, deb faqat bir qator sharoitlarga javob beradigan hodisalarigagina atalishi mumkin.

1. Hodisalar paydar-payligi, agar unda ommaviy ijtimoiy harakat kuzatilmasa, revolyutsiya bo'la olmaydi.
2. Revolyutsiya keng ko'lamlı islohotlar va o'zgarishlarga olib keladi.

3. Revolyutsiya ommaviy harakat qatnashchilari tomonidan zo'rlik yoki zo'rlikni qo'llash tahdidini ko'zda tutadi.

Evolutsion rivojlanish va uning afzalliklari. Buyuk faylasuf Gegel iborasi bilan aytganla “xar bir davlat kurilishi ma'lum xalk milliy-ma'naviy maxsuli, uzligini namoyon etish va ma'naviy-onglilik tarakkiyotining pillapoyasidir. Bu tarakkiyot zinanm kadamba-kadam bosib, bir me'yordagi xarakatni vaktndan uzib ketmaslikni takozo etadi. Vakt xamma narsaga kodir. Unda tafakkur, falsafa-xamma narsa mujassam”.

Davlat kurilishi, uning uziga xos konuniyatlari, murakkabliklari va talablari xususida gapirar ekan, bu alloma yangilikni joriy etish xamma vakt vayronagarchilikka olib keladi, yangi shakllarni vujudga keltirish, o'z-o'zidan sekinlik bilan boradi, davlat kurilishi esa jonli xodisa bulgani uchun u doimo xarakatda, degan fikrni aytadi.

Darxakikat, milliy dunyokarashlarga, an'analar va extiyojlarga asoslanmagan xar qanday davlat tizimi uzoqqa boraolmaydi. Uni xalq tan olmaydi. Shu bilan birga u vaqt talab etadigan, asta-sekinlik bilan shakllanib boradigan, murakkab jarayon. O'zbek milliy davlatchiligi, uning shakllanishi jarayoni xususida gap borar ekan, Gegel falsafasi va konuniyatlari bilan Prezidenmiz davlat qurilishi siyosati va amaliyotining naqadar mos tushayotganini anglab olish kiyin emas.

Albatta, I.K. o'z navbatida tarakkiy etgan mamlakatlar siyosiy yulini, jaxon davlatchiligi ilgor tajribalarini chuqur o'rgandi. Biroq ularga ergashmadi. Bu tajribalar atrofida xar tomonlama muloxaza yuritdi. Lekin andoza olmadi. U takror-takror: jamiyatni yangilashning inqilobiy usullariga biz mutlaqo qarshimiz. Biz tadrijiy evolyutsion islohotlar yo'li tarafdorimiz va bunga qat'iy amal qilamiz. Mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, xalqimiz tabiatini-mentalitetini inobatga olsak, rivojlanishning mazkur yo'li biz uchun nihoyatda maqbuldir-deb aytgan edi.

Shu nuqtai nazardan, xayotning o'zi, iqtisodiyotni isloh etish va jamiyatni yangilashning “o'zbek modeli” tanlagan yo'limiz va tamoyillarimizning to'g'ri ekanini ko'rsatmoqda.

Islohotlarni aynan bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, demokratik bozor islohotlarini kuchli ijtimoiy siyosat, aholining nochor qatlamlarini muxofaza qilish bilan uyg'un olib borilishi ijobiy natijalar bermoqda. Bu xol siyosatimizning qo'llab-quvvatlanishi va e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.

Shunday qilib, falsafada ilgari surilgan jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishdagi revolyutsion va evolyutsion uslublardan evolyutsion uslubni tanlab, biz “yangisini qurmasdan eskisini buzmaslik”, jamiyat a'zolarini birdaniga ximoyasiz qilib qo'ymaslik, keskin qashshoqlashtirmaslik yo'li bilan yangi jamiyatni bunyod qilishga kirishdik.

Sotsial revolyutsiyalar va ularning salbiy oqibatlari. Sotsial revolyutsiyalarning oqibatlarini tadqiq etish murakkabligi ularning manbalarini tahlil etishdagidan kam emas. Revolyutsiyadan keyin nima yuz berishi, qisman revolyutsiyaga olib kelgan ko'pgina hodisalarga bog'liq bo'ladi. Revolyutsion kurash tugagandan keyin mamlakat holdan toygan va parchalangan bo'lishi

mumkin. Ag'darib tashlangan rejimning qoldiqlari yoki hokimiyatga da'vogar boshqa guruhlar o'zlarining kuchlarini qayta tashkil qilishi va hammasini boshdan boshlashi mumkin. Ko'p revolyutsiyalardan keyin fuqarolar urushi boshlanadi, unda yangi rejim muxolifat guruhlar qarshiligini sindirishi kerak. Odatda revolyutsiyalar eski hukumat hokimiyati kuchini yo'qotib, uning uchun bir paytda bir necha harakatlar kurash olib borayotganda yuz beradi. Ularning ba'zilar harbiy jihatdan shunchalik kuchli bo'lishi mumkinki, ular yangi hukumatga qarshi kurashni davom ettirishlari mumkin, yoki bo'lmasa ularning maqsadlarini qo'llab-quvvatlovchi chet davlatlar tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Revolyutsiyalar erk uchun amalga oshiriladi, biroq ulardan keyin ko'pincha qattiq repressiyalar davri boshlanadi.

Sotsial reformalar va ularning turlari. O'zbek rivojlanish modelida milliy mentalitetning o'rni. I.Karimov mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki davridan uni milliy davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol topishiga qaratilgan o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqdi. Nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlangan bu dastur yashab turgan fuqarolarning taqdirinigina emas, balki kelajak avlodlarining xam taqdirini o'ylab tuzilgan bo'lib, o'sha davrda xukmron bo'lgan yakka xokimlik tizimi illatlarini tezroq bartaraf etish, mamlakatimizni rivojlangan, madaniyatli mamlakatlar darajasiga chiqib olishiga erishish ko'zda tutilgan edi. Bu I.Karimov nomi bilan jaxonga tanilgan «o'zbek modeli» edi. Taraqqiyotning o'zbek modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1.Iqtisodiyotni mafkuradan to'la xoli qilish, iqtisodining siyosatdan ustunligi.

2.Bozor munosabatlariga o'tish davlatning boshqaruvi asosida amalga oshiriladi. Davlat bosh islohotchidir. Bozor munosabatlariga o'tish chuqurlasha borgani sari davlatning bu boradagi ta'siri kamayboradi.

3.Islohotlarning butun jarayoni mustaxkam huquqiy asoslarga quriladi. qonunlar barcha xo'jalik obyektlari tomonidan og'ishmay bajarilishi zarur.

4.Bozor munosabatlariga o'tish axolining muxtoj va kam ta'minlangan qismini moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni qabul qilish va kishilarni islohotlarga ruxan tayyorlashdan iborat kuchli ijtimoiy siyosat bilan qo'shib olib boriladi.

5.Bozor islohotlari bosqichma-bosqich va izchil ravishda, ya'ni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshiriladi.

Islohotlarning «o'zbek modeli» bundan oldin yaratilgan va manjud bo'lgan modellarning birortasini takrorlamagani xolda, o'z moxiyatn va mazmuni jixatidan butunlay yangi taraqqiyot modeli bo'lib, u quyidagilarga asoslanadi:

-bozor inqtisodiyoti va demokratiya tamoyillariga asoslanadigan jamiyatni barpo etishga;

-SSSR parchalangandan keyingi o'zbekiston iqtisodiyotining xaqiqiy xolatiga;

-xalqning mentaliteti va tarixiy an'alariga, islohotlarni amalga oshirishning u yoki bu sur'atlariga axolining tayyorgarlik darajasiga;

-«falaj qilib davolash»dan voz kechishga.

Islohotlar va iqtisodiy taraqqiyotning bosh mezoni I.Karimon ta'kidlaganidek, islohot-islohot uchun emas, balki islohot inson uchun, mamlakat axolisining farovonligi va turmush darajasini ko'tarishga qaratilganligidadir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida milliy tafakkur tarzining ahamiyati. O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratiyalashtirish jarayonlarining o'ziga xosligi. Mustaqil O'zbekistonda milliy davlatchilik poydevorini barpo etish sohasida jiddiy va puxta ish olib borilmoqda. Asosiy masala eski ma'muriy buyruqbozlik tizimini, mustaxkamlab qo'yish bo'ldi.

1992 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi ulkan siyosiy voqea bo'ldi, Konstitutsiyaga muvofiq avtoritarizm va totalitarizmdan yiroq bo'lgan xokimiyatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlariga bo'linuvchi printsiplariga asoslangan tizimi barpo etildi. Davlat xokimiyati mahalliy organlarining mahalliy xokimlar institutidan iborat yangi tizimi vujudga keldi. O'zini-o'zi boshkarishning ijtimoiy organi mahallalarga katta e'tibor berildi. Milliy armiya O'zbekiston qurolli kuchlari tashkil etildi. Prezident davlat boshligi va ayni chogda ijro etuvchi xokimiyat sifatidagi vakolatlarini uzida mujassamlashtirdi. Islom Karimov: "Borgan sari ochiqlik, demokratik tamoyillarga, umuminsoniy qadriyatlarga va me'yorlarga mansublik siyosati Respublika ijtimoiy xayotini demokratiyalashtirish jarayonlari o'z izini qoldirmoqda, shuningdek, bu o'zgarishlarning jaxon xamjamiyati ko'z o'ngida idrok qilinishiga xam ta'sir ko'rsatmoqda va bu bilan respublikaning xozirgi obru-e'tiborini shakllantirmokda", deb aloxida ta'kidlaydi.

Global ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar va ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga salbiy ta'siri. Jaxon moliyaviy inqroz xolati va oqibatlarini haqida quyidagi hulosalarga kelish mumkin:

- 1) Inqroz dunyoni qamrab olgani, retsessiya, iqtisodiy pasayish, investitsiyaviy faollikni kamayishi, talab va xalqaro savdo xajmining cheklanishi va ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.
- 2) Global moliyaviy inqroz jahon bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi, uni tubdan isloh etish zarurligini ko'rsatadi. Korporativ manfaatlar, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli nazorat yo'qligini tasdiqladi.
- 3) Moliyaviy inqrozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlarini quyidagi omillarga bog'liq: a) Davlatning moliya-valyuta tizimining nechog'liq mustahkam ekanligiga; b) Milliy kredit tizimining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi(to'lov imkoniyatiga), chet elga(banklariga) qanchalik qaram ekanligiga. v) oltin-valyuta hajmi, Horijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va avvalo iqtisodiyotning barqarorligi, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasiga bog'liq;
- 4) Undan tez chiqish, oqibatlarini engillashtirish – xar bir davlat va jahon miqyosida qo'llayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligi va o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

O'zbekiston ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishdagi ahamiyati.

Mustaqillik yillarida markazlashtirilgan ma'muriy buyrukbozlik tizimidan ijtimoiy yunaltilgan bozor iqtisodiyoti asoslariga o'tish bo'yicha tub chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xayotning o'zi, keyingi yillarda jamiyatimizning barcha sohalarida, eng avvalo, iqtisodiyotda ro'y bergan o'zgarishlar, O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirishga qaratilgan islohotlar umumiy yo'nalishini amalga oshirishga bo'lgan bosqichma-bosqich, izchil, puxta o'ylangan yondashuvning afzalligini ishonchli tarzda isbotlamoqda. O'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratildi. Qabul qilingan yangi qonunlar xozirgi kunda bozor iqtisodiyotining me'yori va tamoyillariga muvofiq keladigan, shart-sharoitlarni shakllantirmoqda, iqtisodiy erkinliklar va xususiy mulk huquqining mustaxkam yuridik ximoyasini ta'minlamoqda, iqtisodiyotning turli sohalariga bozor mexanizmlarining samarali ishlashi uchun keng xuquqiy maydonni yaratmoqda. 80-yillar oxiridagi chuqur iqtisodiy tanazzulni yengib o'tish, sobiq sho'rolar hududidagi birichi mamlakatlar qatorida makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratish vazifasi turardi. Islohotlarning dastlabki yillarida ishlab chiqarishning keskin, xalokatli pasayishini to'xtatishga, iqtisodiy va ishlab chikarish imkoniyatlarini saqlab kolishga, milliy iqtisodiyotni tiklashning mustahkam asoslarini yaratishga erishildi.

9-MAVZU: Empirik sotsiologik tadqiqot va uning metodlari.

Reja:

1. Sotsiologik tadqiqot dasturining tarkibi.
2. Sotsiologiyada ma'lumot to'plash metodlari.
3. Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish.

Sotsiologik tadqiqot dasturi. Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimiy yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot deganda, yangi dastur va uslubiyat bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlar to'grisida olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy fakt deganda, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihatlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jamiyatda ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur. Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida va unga rejali prognoz berish bilan uni ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Ushbu bo'limda amaliy sotsiologik tadqiqot ishlari olib borishning metodologiyasi, uslubiyati, asosiy usul va vositalari xususida to'xtalib o'tamiz.

Amaliy sotsiologik tadqiqot jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib qo'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlarga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bosqich. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:

1. Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash.
2. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha buyurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma to'zish.
3. Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendar reja, texnik vazifalarni va byudjet (sarf qilinadigan xarajatlar smetasini) tuzish.
4. Dastur ishlab chiqish.
5. Tadqiqot uslubiyati, texnikalarni va vositalarini ishlab chiqish.

2. Bosqich. Asosiy bosqich bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:

1. Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish.
2. Pilotaj.
3. Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yigish.
4. Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish.

3. Bosqich. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:

1. Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlariga ajratish.
2. Taqsimiy jadval tuzish.
3. Empirik ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va modellashtirish.

4. Bosqich. Yakunlovchi bosqich bo'lib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:

1. Tadqiqot ma'lumotlarning dastlabki tasnifi va nazariy jihatidan fahmlamoq.
2. Ilmiy-nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish.
3. Berilgan vazifa bo'yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.

Dasturning strukturasi: nazariy -metodologik va metodik bo'limlar. Har qanday tadqiqot biron-bir muammoning qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o'zining ilmiy echimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilishning asosiy shakllari: davlat buyurtmasi asosida, xo'jalik shartnomasi asosida, jamoatchilik va aralash tartibda bo'lishi mumkin.

Empirik sotsiologik tadqiqot obyekti bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tahlillar asosida mavjud muammoni tahlil qilish dasturi ishlab chiqiladi. Ilmiy dastur har qanday amaliy, nazariy sotsiologik tadqiqotning dastlabki zarur hujjati hisoblanadi. Dastur sotsiologik tadqiqot obyekti bo'yicha ishchi farazni

tekshirishga qaratilgan, shuningdek tadqiqot bo'yicha ilmiy faraz, bajariladigan asosiy vazifalari va sotsiologik tadqiqotning metodologik asosi bayonlaridan iborat. Dastur mazmuni haqida qisqacha ma'lumot berilishi annotatsiya deb ataladi.

Har qanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; ishchi farazni ishlab chiqish; dasturni ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jihatidan quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

1. Nazariy - metodologik qism.

1.1. Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.

1.2. Tadqiqot obyekti va predmetini belgilash.

1.3. Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.

1.4. Tadqiqot predmetining dastlabki taxminiy tahlili.

1.5. Ishchi farazni ishlab chiqish.

2. Amaliy sotsiologik tadqiqotni ish jarayoni qismi:

2.1. Tadqiqotning umumiy rejasi.

2.2. Asosiy amaliy ish jarayonlari.

2.3. Tanlov ishlari.

2.4. Dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi.

2.5. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish nazarda tutilgan yo'nalishlar.

3. Xulosa qismi.

3.1. Tadqiqot natijalarining mazmunan tasnifi.

3.2. Buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari (asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlardan iborat).

Dasturning asosiy elementlari: muammoni ta'riflash; tadqiqotning maqsad va vazifalarini, obyekti va predmetini aniqlash; obyektini tizimli tahlil qilish, tushunchalarni nazariy va empirik izohlash, gipotezalarni ifodalash; ma'lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish. Tadqiqotning maqsad va vazifasi.

Dasturning ushbu qismida sotsiologik tadqiqot buyurtmachi va bajaruvchilar o'rtasidagi munosabat o'zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan xarajatlar: moliyaviy mehnat resurslari hisoblab chiqiladi.

Sotsiologik tadqiqot maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korxonasida mehnat unumdorligini ko'tarish muammosini sotsiologik tadqiqot qilish zarur bo'lsa, bunda asosiy maqsad mehnat unumdorligi pastligining asosiy sabablarini aniqlash, mavjud yashirin iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va mavjud shart-sharoitni o'zgartirishdan iborat.

Tadqiqot predmeti mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot obyekti bo'yicha tadqiqot predmeti bo'ladigan bir necha yo'nalishlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti shakllanganda, mavjud muammoni echish yo'llari bo'yicha ilmiy faraz tuziladi, shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot o'tkazish usullari va shakllariga ta'rif beriladi.

Sotsiologik tadqiqot obyekti deganda, sotsiologik yo'naltirilgan ijtimoiy hodisa, jarayon va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot obyekti tizimli xususiyatiga, asosan vaqt, makoniy imkoniyat va miqdoriy o'lchov chegarasiga ega bo'ladi. Empirik sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy-uslubiy darajasida tadqiqot obyektni tanlash muhim ahamiyatga ega. Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo harakteri, uning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifasi tadqiqot obyektining qanday bo'lishligini belgilaydi. Agar tadqiqot obyektning unchalik katta bo'lmasa, sotsiologik jihatdan uni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lsa, bir butun holda tadqiqot obyekti qilib olinishi mumkin. Ba'zan esa murakkab sotsiologik tadqiqot olib borish yoki tadqiqot obyektni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun bunday vaziyatda tadqiqot obyektining nisbatan aniq chegarasi belgilab olinishi shart.

Ilmiy muammo obyektini sistemali tahlil etish tadqiqotchi uchun 3 faoliyat yo'nalishini ochib beradi. Ular:

- 1) Tadqiqot predmetini aniqlab olish.
- 2) Asosiy tushunchalarni ajratib olish va ularga izoh berish.
- 3) Tadqiqot uchun ish gepotezasini yaratishdir.

Dasturda aniq ko'rsatilishi zarur.

1) Empirik tadqiqot obyekti. 2) Sotsiologik tadqiqot obyektini to'laligicha qamraydimi yoki uning ayrim jihatlarini tanlab oladimi. 3) Tanlov asosida olib boriladigan sotsiologik tadqiqot asosi (ro'yxat tuzish, kartoteka, sotsiologik xarita kabilar).

Sotsiologik tadqiqot farazi: Mavjud muammo bo'yicha ilmiy faraz ishlab chiqish empirik sotsiologik tadqiqotni nazariy jihatdan tayyorlashning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tadqiqot farazi o'rganilayotgan ijtimoiy hodisa tarkibi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik harakteri to'grisidagi ilmiy asoslangan farazdan iborat bo'ladi. Ilmiy faraz tadqiq etilayotgan obyekt to'grisidagi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi.

Faraz, bu tadqiqot uchun boshlang'ich nuqta bo'lib, keyingi olib boriladigan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ilgari suriladigan farazga bogliq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, farazni ishlab chiqish-empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdagi mantiqiy asosni ishlab chiqish demakdir.

Agar tadqiqotchi tomonidan ilmiy faraz ishlab chiqilgan bo'lsa, empirik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari shu ishchi farazi to'g'ri ekanligini tekshirishga, uni tasdiqlashga yoki bekor qilishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqot farazi bo'lmasa, unda sotsiologik tadqiqotning ilmiy darajasi past bo'ladi.

Sotsiologiyada ma'lumotlar to'plash metodlarining umumiy tasnifi: so'rov, kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish metodlari, ularning o'ziga xosligi. Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullari.

Ilmiy bilishning metodlarini falsafa va sotsiologiyada 3 turga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilmiy bilishning eng umumiy-ilmiy metodi (ongli amaliy va nazariy faoliyat).

2. Ilmiy bilishning empirik darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.

3. Ilmiy bilishning nazariy darajasiga oid umumiy ilmiy metodlar.

Dastur tarkibi uslubiy qismining muhim jihati – empirik tadqiqot uslubiyati, texnika jarayoni va usullarini asoslashdan iborat.

Sotsiologik tadqiqot uslubiyati – xususiy sotsiologik usullar majmui bo'lib, undan empirik materiallarni to'plash va tizimlashtirish maqsadida foydalaniladi. Metod tushunchasi keng ma'noda bilimlar tizimini yuzaga keltirish va asoslash uchun vositachi demakdir. Sotsiologiyaning usul sifatidagi umumsotsiologik printsiplari: ijtimoiy voqealikdagi jarayonlar, hodisalarni bilishdagi xususiy printsiplar va konkret usullar – matematik-statistik usullar, sotsiologik axborotni yig'ish usullari: kuzatish, so'rov, eksperiment va boshqalardan iboratdir.

Sotsiologik tadqiqot texnikasi – maxsus usullarning birligini anglatib, u yoki bu usuldan unumli va o'z o'rnida foydalanishni ifoda qiladi. Sotsiologik tadqiqot jarayoni tadqiqotni tashkil etish usuli, vositasi, barcha bilish va tashkiliy faoliyatning batartib borish jarayonini anglatadi.

Amaliy sotsiologik tadqiqot olib borish jarayonida konkret tadqiqot usullarining ahamiyati ham katta. Ular yordamida dastlabki empirik ma'lumotlar yigib boriladi. kuyida shular xususida to'xtalib o'tamiz.

So'rov metodi. Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri so'rov usulidir. So'rov usuli yordamida boshqa hujjatli manbalarda uchramaydigan va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olish mumkin bo'lmagan ma'lumotlar, axborotlarni olish mumkin. Shuning uchun, kishilar, ijtimoiy hayot jarayonlariga bo'lgan munosabatini, fikrini sotsiologik jihatdan o'rganishda so'rov usulining ahamiyati beqiyos kattadir. Ayniqsa, hozirda, jamiyatimizning bozor munosabatlariga o'tib borish jarayonida, ijtimoiy kommunikatsiyaning roli ortib borishi bilan so'rov usulining sotsiologik tadqiqotlar olib borishdagi o'rnini va ahamiyat yanada ortmoqda. So'rov usulidan dastlabki sotsiologik axborotlarni olish uchun foydalaniladi.

So'rov turlari. So'rov o'z xarakteri bilan og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin. Tadqiqotchining respondent inglizcha – so'z bo'lib, javob bermoq ma'nosini anglatadi, ya'ni anketa savollariga va intervyuga javob beruvchi tushuniladi bilan muloqotda bo'lish shakli va sharoitiga qarab so'rov vozma – anketa orqali va og'zaki – intervyu olish, yashash joyi va uyushgan auditoriyada mehnat jamoasida, mahallada, o'quv yurtida, sirtidan ro'znoma orqali, pochta orqali anketa o'tkazish va yuzma-yuz, telefon orqali, guruhli yoki individual kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Formallashtirish darajasi bilan oldindan rejalashtirilgan va erkin, bir marotaba va takror bo'lishi mumkin. Ekspert so'rovi ham sotsiologik tadqiqotlarda muhim o'rin tutmoqda. Olingan mavjud sotsiologik ma'lumotlarni qayta tekshirishda, ularni qanchalik mos ekanligini aniqlashda ekspert so'rovi turidan foydalaniladi. Bugungi kunda sotsiologik tadqiqotlar amaliyotida so'rov usulining quyidagi turlaridan foydalanilmoqda:

1) Anketalashtirish-bu ezma shakldagi so'rov bo'lib, texnikasiga ko'ra, tarqatiladigan(anketa tadqiqotchi tomonidan tarqatiladi va yig'ib olinadi), matbuot orqali, telefon eki teleskop orqali, ya'ni texnik vositalar erdamida (televizor, telefonga oid qo'shimcha sifatida) amalga oshiriladigan so'rov turidir.

2) Suhbatlashish (interyu)-bu suxbat o'tkazuvchilarni (intervyuer) bir qanchaini talab qiluvchi, ogzaki so'rov turidir. Bu so'rov klinik (respondektning subyektiv dunyosining samimiyligi), bir nuqtaga qaratilgan (o'rganish uchun bir asosiy savolni ajratib olish) so'rovlariga bo'linadi.

3) Sotsiometrik so'rov - bu guruhdagi shaxslararo munosabatlar, ya'ni yaxshi ko'rish, yoqtirmaslik, dustlik, adovat, qismat va boshqa jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu so'rov turi amerikalik sotsial psixolog J. Moreko tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u guruh to'planishiga zarurat tugilganda, liderni aniqlashda, jamoada psixologik muhitni aniqlashga va boshqa hollarda qo'llaniladi.

4) Test o'tkazish so'rovi - bu maxsus kayta ishlangan vositalar sxema, rasmlar, takliflar, savollar yordamida shaxsiy sifat va qobiliyatlarni namoyon bo'lishini aniqlaydi.

Testlar o'z navbatida tematik, birikmali (assotsiativ), intellektual qobiliyatlarni aniqlaydigan, takliflarni yakunlaydigan turlarga bo'linadi.

5) Ekspert so'rov - bu olingan, mavjud sotsiologik ma'lumotlarni qayta tekshirish, ularni haqiqatga qanchalik mos ekanligini aniqlash usulidir.

6) Panel so'rovlar-bu kishilarning doimiy doirasiga mo'ljallangan so'rov bo'lib, u orqali muayyan ijtimoiy holat mazmunining ma'lum vaqt oraligida nechoglik uzgarganligini ilgari utkazilgan tadqiqot dasturi va uslubiyati bilan bevosita taqqoslash asosida kaytadan tekshirib kurishdir. Bunday so'rovlardan maqsad ma'lum muddat ichida ijtimoiy hodisalarning taraqqieti, tanazzuli eki turgunlik jaraenlari o'ziga xosliklarini aniqlashdir. Ko'pincha so'rovning bu turi eksperimental tadqiqotlarga kushimcha ravishda kiritiladi.

7) Yaxlit (valpi) so'rovlar - demografik jaraenlarni, jamoatchilik fikrini, aholini ruyxatga olishni o'rganishda qo'llaniladi. Yaxlit so'rovlar barcha aholini eki muammo bilan bog'liq bo'lgan bosh majmualarning so'rovini o'zida aks ettiradi.

So'rov usulidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin: 1. o'rganilayotgan muammo bo'yicha yetarli darajada ma'lumotlar kam yoki mutlaqo bo'lmaganda; 2. tadqiqot predmeti yoki uning ayrim jihatlarini kuzatish imkoniyati bo'lmaganda; 3. tadqiqot obyektini sifatida ehtiyoj, manfaatlar, qiziqishlar, kayfiyat, qadriyatlar, e'tiqod, ishonch, yoqlash kabi ijtimoiy yoki individual ong elementlarini o'rganish jarayonida; 4. so'rov usulining imkoniyat darajasini oshirish maqsadida qo'shimcha tarzda va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olingan empirik ma'lumotlarni qayta tekshirish uchun; 5. muayyan ijtimoiy muammo ustida olib borilayotgan sotsiologik tadqiqot jarayonini qanchalik to'g'ri ekanligini nazorat qilib borishda.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, sotsiologik tadqiqotlarda so'rov usulidan yozma ravishda – anketa orqali va og'zaki – intervyu olish orqali foydalaniladi.

Anketa (so'rov varaqasi) so'rov metodining markaziy elementi sifatida. Anketa orqali so'rov o'tkazish eng keng tarqalgan so'rov turi hisoblanadi. Chunki, anketa savollari orqali respondentlardan olinadigan javoblarni umumlashtirib, guruhlalashtirish bilan tadqiq etilayotgan ijtimoiy muammo to'g'risidagi jamoatchilik fikri oydinlashadi. Olingan ma'lumotlarning qanchalik to'g'ri, obyektiv va hayotiy ekanligi esa tadqiqotchilar tomonidan tuziladigan anketa savollarining qanchalik mohirona va savodli ekanligiga bog'liq bo'ladi. Anketaga kiritilgan savollar sodda, tushunarli va javob berishga qulay tuzilishi shart. Unda respondent xarakteri, yoshi, kasbi, ma'lumot darajasi va ruhiy jihatlari hisobga olinmog'i lozim. Aks holda, anketa so'rovi o'rganilayotgan muammo to'g'risida ishonchli, obyektiv ma'lumotlar bermasligi mumkin.

Anketaning umumiy tuzilishi. Anketa so'rovi orqali empirik ma'lumotlarning aniq, hayotiy bo'lishi – anketa o'tkazish jarayonini qanchalik to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq. Anketa o'tkazishning asosiy komponentlari – tadqiqotchi, so'roqlov varaqasi va respondent hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tadqiqot o'tkazilayotgan obyektning rasmiy va norasmiy vakillari, rahbarlari tomonidan respondentlarga anketani tarqatish va ularni to'ldirish vaqtida nazorat qilishga yo'l qo'yilmasligi, respondent tomonidan mustaqil, o'zgalarning maslahatisiz to'ldirilishi shart. Anketa to'ldirishda respondentning ismi-sharifi ko'rsatilmashligi kerak. Chunki, anketa varaqasiga ismi-sharifini ko'rsatish talab qilinsa, o'rganilayotgan muammo to'g'risida salbiy yoki e'tirozli fikr bildirishdan cho'chib, respondent o'z fikrini ochiq-oydin yozmasligi mumkin. Siyosiy, ma'muriy tazyiqlardan yuragini oldirib qo'ygan o'zbek fuqarosi buni juda yaxshi tushunadi. Boshqa jihatdan esa, ko'pchilik kishilarga xos, yuqori rahbariyatga yaxshi ko'rinish, boshlig'iga shaxsiy sodiqligini bildirib qo'yish maqsadida ham berilgan savollarga noreal, «o'ta ijobiy» javob berib, kimligini bildirib qo'yish maqsadida ismi-sharifini ataylab ko'rsatib qo'yadiganlar ham uchrab turadi. Shuningdek, anketa savollariga, tadqiqot ishiga qarshi shaxslar ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun, respondentlar bilan juda ehtiyot bo'lib, chiroyli, do'stona muomalada bo'lish zarur. Anketa o'tkazish davomida tadqiqotchidan yumshoqlik, shirinsuxanlik talab qilinadi.

Anketa tuzish texnikasi. Anketa o'zining tarkibiy tuzilishiga ega. Anketa so'rovi: 1. eng avvalo, anketa savollari tizimini ishlab chiqish jarayonini o'z ichiga oladi; 2. anketa so'rovini kim tomonidan, qanday maqsadda o'tkazilishini va respondentlarga anketa to'ldirib berishni o'z ichiga oladi; 3. anketa pasporti ham tarkibda muhim o'rin tutib, unda respondentning ijtimoiy-demografik xarakteristikasi tushuntiriladi. Bunda respondentning yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va holati, ma'lumot darajasi, kasbi, partiyaviyligi, oilaviy ahvoli kabi ma'lumotlar aniqlanadi. Ko'pincha pasport anketaning oxirida beriladi. Ko'pchilik sotsiologlarning fikricha, agar pasport anketaning boshida berilsa, respondentni cho'chitib empirik ma'lumotning aniq va to'g'ri, hayotiylik darajasini pasaytirib yuboradi.

Anketadagi savollarning turlari, asosiy talablar. Asosiy savollar anketa tarkibida markaziy o'rin egallaydi. Chunki, asosiy savollarga beriladigan javoblar sotsiologik tadqiqotlarning asosiy ma'lumotlari hisoblanadi. Anketa oxirida

yakunlovchi savollar kiritiladi. O'z mohiyatiga ko'ra, yakunlovchi savollar asosiy savollarning mantiqiy davomi bo'lib, unda o'rganilayotgan muammo yuzasidan respondentning individual, qo'shimcha fikr va mulohazalari olinadi. Anketa so'nggida tadqiqot uchun ko'rsatilgan beminnat yordam evaziga samimiy minnatdorchilik bildirishni unutmaslik kerak.

Anketa savollarining soni ko'payib ketmasligi kerak. Qiziqarli, respondentni zeriktirmaydigan va ixcham tuzilmog'i lozim. O'z shakliga ko'ra, anketa savollari ochiq, yopiq, yarim ochiq va yarim yopiq bo'ladi. Ochiq savollarda respondentga javoblar varianti taqdim etilmaydi, ya'ni u qanday hohlasa shunday, erkin javob berishi mumkin bo'ladi. Yopiq savollarda esa respondent faqat «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berishi, yoki oldindan yozib qo'yilgan javoblardan birini tanlashi lozim.

Yarim ochiq yoki yarim yopiq savollarda esa respondentga taqdim etilgan javoblar variantlaridan tashqari «boshqa» deb nomlangan variant ham beriladi, ya'ni respondent berilgan javoblardan birini tanlashi yoki o'zining javobini taqdim etishi lozim bo'ladi.

Anketa o'tkazishda uning vaqti 10-45 daqiqa davom etishi kerak. Qisqa muddatda o'tkaziladigan tezkor anketa o'tkazish muddati 10-45 daqiqadan oshmasligi lozim. Anketa o'tkazishning bunday usulida respondentning uzoq mulohaza qilishiga, ikkilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Savollar ham sodda, qisqa va aniq qilib tuziladi. Natijada qisqa muddatda empirik sotsiologik ma'lumotlar to'plashga erishiladi.

Og'zaki so'rov va uning xususiyatlari. Intervyu olish uslubi. Intervyu hozirgi kunda eng ko'p va keng tarqalgan so'rov usulidir. Intervyudan bu qadar keng ko'lamda foydalanishda radio, televidenie, kundalik matbuotning roli katta bo'lmoqda. Shuning uchun ham intervyu sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, statistika, etnografiya, pedagogika, boshqaruv singari fanlarda keng va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kundalik hayotimizda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar to'g'risidagi ommaning ijtimoiy fikrini aniqlashda intervyu olishning salmog'i ortmoqda. So'rov usulining bu turida intervyu ikki asosiy funktsiyani bajaradi: 1. muayyan voqea-hodisa, jarayon to'g'risida ma'lumot yig'iladi; 2. shu bilan birga, obyektga – respondentga intervyu orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda intervyu o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, shuni ko'rsatib o'tish lozimki, intervyu orqali empirik ma'lumotlarni yig'ish shaxsning individual jihatlari bilan ro'baro kelinadi. Shu orqali respondent to'g'risida, uning tadqiq etilayotgan muammo to'g'risidagi qarashlari, fikri to'g'risida axborot olinadi. Beriladigan savollarga nisbatan respondentning ruhiy reaksiyasi kuzatiladi va hisobga olinadi.

Intervyu olishda tadqiqotchi respondent bilan yaqin, samimiy, yuksak ahloqiy muomalada bo'lishi shart. Beriladigan savollar avvaldan puxta o'ylangan, respondentning shaxsiyatiga tegmaydigan, mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Bunday shartlar respondentning intervyu so'roviga jiddiy munosabatda bo'lib, beriladigan savollarga to'la va har tomonlama javob berishini ta'minlaydi.

Intervyu olishda o'ziga xos qiyinchiliklar ham mavjud. Bunday qiyinchiliklarga eng avvalo intervyu ko'p vaqt va moddiy sarf-harajatlar talab qilishini kiritish lozim. Har bir respondent bilan ruhiy munosabat o'rnatish zarur. Bunga esa doimo ham erishilavermaydi. O'ta injiq, alamzada, hatto tajovuzkor respondentlar ham uchrab turadi. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish madaniyati esa intervyu yakunining doimo muvaffaqiyatli va ijobiy tugallanishini talab qiladi.

Intervyu tayyorlash, uni o'tkazish va olingan natijalarni umumlashtirishning o'zi qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan muammoning mohiyatini, kelib chiqish sabablarini, umumiy tendentsiyalarini va uni bartaraf qilish yo'llarini o'rganish uchun yuzlab respondentlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri keladi. 1-2 intervyu olish bilan tadqiqot obyekti bo'yicha obyektiv asosga ega bo'lgan ilmiy tasavvur hosil qilib bo'lmaydi.

Sotsiologik adabiyoyotlarga intervyu bir necha turlarga ajratib ko'rsatilgan, quyidagilar shular jumlasidandir:

Erkin intervyu standartlashtirilmagan – bunda respondent bilan uzoq, erkin tarzda suhbat o'tkaziladi. Respondentga avvaldan belgilangan savollarga qo'shimcha ravishda savollar bilan ham murojaat qilish mumkin. Respondentga erkin va keng tarzda fikr yuritish imkoniyati yaratiladi. Intervyuning bunday turiga hozirda televidenie orqali muntazam ravishda olib borilayotgan «Yuzma-yuz», «Tema» kabi ko'rsatuvlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Standartlashtirilgan intervyu – oldindan rejalashtirilgan, muayyan mavzuning qat'iy belgilangan doirasidan chiqmaydigan turiga aytiladi. Intervyuning bu turi asosan davlat rahbarlari, siyosiy arboblar, siyosatchilar, mas'ul va ma'muriy shaxslar – respondentlar bilan o'tkaziladi.

Yarim standartlashtirilgan intervyu esa qat'iy belgilangan savollardan tashqari respondentning yoki tadqiqot obyektining norasmiy jihatlarini oydinlashtirish, ular to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida o'tkaziladi. Ayrim kasb egalari bilan, masalan, artistlar, mashhur shaxslar, tarbiyasi og'ir bolalar, jinoyatchi va boshqa shu kabi respondentlar bilan o'tkaziladigan intervyuni misol qilib olish mumkin.

O'tkazish jarayoniga ko'ra intervyu: a) ko'cha-ko'yda, b) guruhli, v) klinik, g) yo'naltirilgan kabi shakllarga ega. Muloqot vositasi sifatida esa chik, yuzma-yuz, telefon orqali yoki yopiq tarzda bo'lishi mumkin. Ayrim respondentlar bilan yopiq tarzda intervyu o'tkazishga ham to'g'ri keladi. Bunda respondentning shaxsi sir tutiladi. Chunki, respondent ochiq intervyu berishdan manfaatdor bo'lmaydi. Ko'pincha, yopiq intervyu davlat ichki ishlar maxsus bo'limlari vakillar bilan, ayrim jinoyatchilar bilan, or-nomusni yo'qotib pushaymon bo'lgan shaxslar – respondentlar bilan olib boriladi.

Intervyuning har qanday tipidan kamida 50 dan ortiq respondentdan olingan empirik ma'lumotlar mazmun jihatdan guruhlarga ajratilib, umumlashtiriladi. Bu esa sotsiologik tadqiqot jarayonining keyingi bosqichida amalga oshiriladi.

Kuzatish metodi va uning mohiyati. Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish –

dastlabki empirik ma'lumotlarni yig'ish usuli bo'lib, muayyan maqsadga qaratilgan, oldindan puxta o'ylab, muntazam olib boriladigan, hissiy qabulga asoslangan bo'ladi. Bu usuldan foydalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borilayotgan obyektidan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlar obyektiv, xolis va hayotiy bo'lishi bilan o'zining ilmiy qimmatiga egadir. Shu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ilmiy ma'lumotlarda subyektiv jihatlar ham bo'lishi mumkin. Chunki, sotsiologik tadqiqot tadqiqotchining ijtimoiy voqelikka, jarayoniga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi va qay yo'sinda tavsiflashi asosida boradi.

Kuzatish usulining yana bir muhim jihati uning muayyan darajada chegaralanganligi bo'lib, ko'pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmasligidadir. Bu usulning yana bir zaif jihati shundan iboratki, kuzatish orqali tadqiqotchini qiziqtirgan savolga kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish juda qiyin. Barcha hollarda kuzatish hozircha faqat so'z bilan ifodalanadi. Ammo, ba'zi xulqiy-ehtirosli munosabatlarni, holatlarni bir tarzda yozish va so'z orqali ifodalash qiyin bo'ladi.

Kuzatish turlari. Kuzatish jarayonining xarakteriga qarab uni quyidagi tiplarga ajratib ko'rsatish mumkin: nazoratli ochiq va nazoratsiz inkognito, to'la qamrovli standartlashtirilmagan va qamramaydigan standartlashtirilgan, dala sharoitida va laboratoriya sharoitida, ichkaridan va chetdan kuzatish.

Nazoratli, ya'ni ochiq kuzatishda kuzatilayotgan guruh oldindan ogohlantirib qo'yiladi, nazoratsiz, ya'ni inkognito kuzatishda esa, aksincha, guruh o'zini kuzatilayotganliklarini sezmaydi.

To'la qamrovli, standartlashtirilmagan kuzatishda u aniq bir harakat rejasiz amalga oshiriladi, standartlashtirilgan, ya'ni to'la qamramaydigan kuzatishda kuzatuvchi tadqiqot predmeti va jarayoniga nisbatan aniq chegaralangan programmaga asoslanadi.

Dala sharoitida kuzatish obyekti qilib sotsial voqelikning u yoki bu tomoni, jarayoni olinadi. Laboratoriya sharoitidagi kuzatishda esa obyekt qilib obyektiv voqelikki ma'lum bir darajada moslashtirilgan model olinadi.

Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi kuzatayotgan obyektga ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va unga bo'ysunadi, chetdan kuzatishda esa tadqiqotchi obyektga nisbatan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi.

Ichkaridan kuzatishga misol qilib Amerika sotsiologi Uilyam Uaytning «Ko'cha burchaklari jamiyati» kitobida yoritilgan 1937-yilgi tadqiqotini olish mumkin. Avtor, Italiya emigrantlari oilalaridan chiqqan yoshlar ichida reketning vujudga kelish jarayonini o'rganish niyatida, shu muhitda uch yarim yil yashagan, ular bilan bir xil hayot kechirgan.

Sotsiologik kuzatish obyekti insondir, shuning uchun tadqiqot jarayonida tadqiqotchining maqsadini intuitiv holda his qilib, o'z xulq-atvori yoki xarakatini o'zgartirishi mumkin. Natijada, olingan ma'lumot sotsiologning talabiga javob

bermaydi. Demak, sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan cheklanib qolmaslik kerak.

Kuzatishning aniqligi muammosi va uni ta'minlash usullari. Kuzatish usuli muayyan voqea va hodisalarning tashqi jihatlariga ko'proq e'tibor beradi. Ijtimoiy hodisalarning ichki harakatlantiruvchi kuchlarini, rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash uchun kuzatish usuli imkoniyatlari etarli emas. Chunki kuzatish usuli orqali olingan natijalar urganilaetgan obyekt to'g'risida tula ma'lumot bera olmaydi. Bu usuldan ko'pincha sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, obyekt to'g'risidagi dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun eki sotsiologik tadqiqotlarning boshqa usullari erdamida olingan ma'lumotlarni, statistik xujjatlarni kushimcha ravishda tekshirish maqsadida foydalaniladi. Shu bilan birga sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan kifoyalanib qolmaslik lozim.

Ammo kuzatish usulida o'ziga xos shunday jihat mavjudki, unga muayyan darajadagi cheklanganlikni, ko'pincha tadqiq etilaetgan voqealikni katta kuzatish imkoniyatining bo'lmasligidir. Shuningdek kuzatish usuli bilan olingan ilmiy ma'lumotlarda suyektiv jihatlar ham bo'lishi mumkin, ya'ni kuzatish kobiliyati esh farqiga, jins o'ziga xosliklariga, temperament tuzulishiga, bilimlar jamg'armasiga va boshqa xususiyatlarga ham bevosita aloqadordir. Yana bir zaif tomoni shundaki, kuzatish orqali tadqiqotchini qiziqtirgan savolga kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish qiyin.

Kuzatish davrlari va tartibi. Sotsiologik kuzatish olib borishning shart va talablari quyidagilar:

1. Kuzatish kerakli saviyada va darajada tashkil qilinishi kerak. Bu shart sotsiologik tadqiqotlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, natijalarning obyektivligini ta'minlashga qaratilgan.
2. Kuzatishning muntazamligi. Kuzatish muntazam olib borilmay, o'lda-jo'lda va ahyon-ahyonda olib borilsa, tadqiqot obyekt uchun xarakterli holatlar kuzatilmay qolishi va oqibatda kuzatish natijalari obyektiv bo'lmay qolishi mumkin.
3. Kuzatuvchining xolisligi. Bu shart ta'minlanmasa, kuzatuvchi o'zi o'rganayotgan jarayonlarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi va buning oqibatida voqealarni subyektiv talqin qilishi mumkin.
4. Kuzatilayotgan obyekt haqida mumkin qadar ko'proq ma'lumot to'plash. Obyekt qanchalik batafsil kuzatilsa, chiqarilgan xulosalarning haqiqatga shunchalik yaqin bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi.
5. Kuzatishning borishini va natijalarini batafsil qayd qilib borish. Agar shunday qilinmasa, xulosa chiqarish paytida kuzatishning muayyan natijalari e'tibordan chetda qolishi mumkin. Bu esa xulosaning chala yoki noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Kuzatish asboblari, kuzatish natijalarini qayd etish usullari. Hujjatlar ma'lumotlarni to'plash usuliga ko'ra qo'lyozma, bosma, kinoplyonka, magnit lenta, avtorlik tipiga ko'ra shaxsiy va ijtimoiy, ularni yig'ish usuliga ko'ra jamiyatda amal qiluvchi, tashkilot, kollektiv, korxonada faoliyati jarayoniga tashkiliy

qism bo'lib kiruvchi hujjatlar, yig'ilayotgan empirik materialga yaqinlik darajasiga ko'ra mavjud holatni bevosita aks ettiruvchi birlamchi va mavjud hujjatlarga asoslanib ko'rilgan ikkilamchi hujjatlar klassifikatsiyalanadi.

Hujjatlarni o'rganish metodi. Hujjatlarni o'rganish ham sotsiologik ma'lumotlar yig'ishda o'ziga xos o'ringa ega. Hujjatlarni o'rganish metodlarini ikki katta guruhga ajratish mumkin: an'anaviy va formallashtirilgan. O'z navbatida, an'anaviy metodlar ham ikki guruhga bo'linadi: umumiy (tushunish, intuitsiya, anglab etish) va maxsus (manbalarga asoslanish, psixologik, yuridik metodlar). Formallashtirilgan metodlarga kontent-analizni kiritish mumkin. Kontent-analiz (tarkibiy analiz) metodi hujjatda ma'lum bir asosiy tushunchalarning qanchalik ko'p ishlatilishiga asoslanib xulosa chiqarishdan tashkil topadi.

Sotsiologiyada hujjat tushunchasi, uning turlari. Sotsiologik ma'lumotlarni yigish usullaridan biri-xujjatlarni o'rganish usulidir. Xujjat o'z semantik ma'nosiga kura isbot etish mazmunini ifodalovchi suzdir. Xujjat moddiy material manba hisoblanib, vokea va faktlar xususidagi ma'lumotlarni o'ziga ifodalaydi. Sotsiologiyada xujjatlar deganda tekslardagi bosma va kul yozma shaklida yozilgan informatsiyalarni, magnit lentasiga foto va kinoplenkalarga yozilgan informatsiyalarni tushunamiz. Xujjat sifatida turli formulalar, chizmalar, grafiklar, ramziy belgilar ham bo'lishi mumkin.

Xujjatlar bir necha asoslarga bo'linadi: informatsiyaning kulyozma, bosma, kino, foto, magnitofon lentalarina yozish shakllari kayd etiladi; gavdalantirish, ya'ni jonlashtirish darajasiga ko'ra shaxsiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmagan bo'ladi; mavqe darajasiga ko'ra rasmiy va norasmiy bo'lib, o'ziga xos guruhlarni ommaviy axborot vositalarining (ro'znoma, jurnal, radio, televideniya) ko'p sonli materiallari tashkil etadi.

Xujjatli manbalarning ko'rinishlari, belgilari, maqsadlari, tadqiqot tekstar, informatsialar, ma'lumotlarni tahlil(analiz)qilish usullarini aniqlaydi. Statistik xujjatlar, guvoxonmalar, bayonnomalar hisobga olish ma'lumotlari, statistik tendentsiya va aloqalarni anglashning umumlashgan ko'rsatmalarini olish maqsadida urganiladi. Shaxsiy xujjatlar: avtobiografiya, xotiranomalar, xat, protseslarning (jarayonlar) subyektiv tomonini tadqiq qilish uchun shaxsiy ishlar, fikrlar, qadriyatlar, shaxsiy sifatlar kiradi. Ijtimoiy informatsiyani tashkil qiluvchi ommaviy axborot vositalarining tekslari(matnlari)kontent-analizini keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqib, xujjatlarni o'rganish usuli quyidagilarga bo'lish mumkin.

- 1) Statistik.
- 2) Avtobiografik.
- 3) Kontent-analiz.

Bu usullarning birinchi va ikkinchi xujjatlarni an'anaviy va mazmuniy tahlil kilsa, ya'ni muayyan tadqiqot obyektinitashqi ko'rinishi, nima haqidagiligi, muallifi, ishonchlilik me'yor, foydalilik darajasi, kimga mo'ljallanganligi, qaysi tildagi va xokazolar atroflicha urganilib xulosa qilinadi. Kontent tahlilda esa, tadqiq etilayotgan ob'ktni o'rganish kulami jiddiy

teranlashadi va tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan manbaning mohiyat asoslariga nazar sola boshlaydi.

Kontent-tahlil hujjatlarni o'rganish metodining bir turi sifatida. Kontent-analizning mohiyati shundaki, u o'rganilayotgan belgilarni maxsus kodlar yordamida tekst ma'lumotlarni (yoki uning tarkibidagi informatsiyani) ilmiy kategoriyaga utkazadi shu asosda mikdoriy analiz vujudga keladi. Bu usul formalashgan usul deyiladi, chunki kontent-analizda asosiy diqqat tekstar mazmunini, ifoda tarzini formasiga kura, kategoriyasiga kura, informatsiyaning hajmiga kura klassifikatsiya va qodirovka qilishga karatiladi. Hujjatlarni o'rganish va tahlil etishda yuqoridagi usullardan samarali foydalanish natijasida tadqiq obyektni o'rganish birmuncha kulaylashadi, ijtimoiy axborot manbalariga chuqurroq kirib borish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Hujjatlarning informatsiya manbai sifatidagi ishonchlilik muammosi. Hujjatli tadqiqot - sotsiologik ma'lumot yig'ishning eng keng tarqalgan usullaridan biridir. Sotsiologik tadqiqotda eng ko'p qo'llaniladigan hujjat turlariga ommaviy va shaxsiy yozuvlar (arxiv manbalar), davlat hujjatlari, xatlar va sud bayonnomalari kirishi mumkin. Tadqiqotda foydalanilayotgan hujjatlar qatoriga mazkur mavzu bo'yicha avvalgi tadqiqotlarda yig'ilgan ma'lumotlarni ham kiritish mumkin. Bunday ma'lumotlar esa tadqiqotning ishonchliligini oshiradi. Biroq, masalan, jinoyatchilikning rasmiy statistikasiga murojaat qilsak, kamroq ma'lumotga ega bo'lgan bo'lamiz. Chunki, politsiyaga xabar berilgan jinoyatlarga ro'yxatga olinadi. Bu esa jinoyatning hammasi emas.

Hujjatlarni tahlil qilish turlari. Hujjatlarni tahlil qilish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim. Tashkilot, muassasa va mansabdor shaxs tomonidan beriladigan hujjatlar umumiy qabul qilingan muayyan guvohlik mazmunini ifodalovchi rasmiy rekvizitlarga ega bo'ladi.

- a. Hujjatlarda muhr, shtamp, bosmaxona blanki belgilari bo'lib, ular muayyan muassasa, tashkilotga tegishli ekanligidan dalolat berib turadi.
- b. Hujjat ma'lum mansabdor shaxs tomonidan imzolangan bo'lib, uning ismi-sharifi va unvoni aks etadi.
- c. Hujjatda u tuzilgan joy, vaqt, qabul etish va muayyan adresga jo'natish belgilari qayd etilgan bo'ladi.

Albatta, sotsiologiya fani uchun hujjatda aks ettirilgan mazmun birinchi darajali ahamiyatga ega, ammo mazkur hujjatning nechog'lik haqqoniyligi va realligi uning tuzilish shakliga ham bog'liqdir.

Test usuli. Keyingi yillarda sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonlarida test usuli yordamida ma'lumotlar to'plash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Test inglizcha suz bo'lib, tajriba, sinov, o'rganish ma'nolarini ifodalaydi. Test sotsiologiya fanida chuqur ildiz otayotgan ilmiy tadqiqot usuli bo'lib, oddiy kuzatish yoki surash usullarida kulga kiritish mushkul vokeya va holatlar, shaxslarning murakkab ichki ruhiy jarayonlari, xislat va fazilatlar, iroda kuchi xususida atroflicha ma'lumot olish imkonini beradi.

Testning bosh vazifalaridan biri tafakkur, xotira, diqqat-e'tibor va qiziqish jarayonlaridagi va umuman akliy-intelektual faoliyatning turli jihatlaridagi o'zgarishlarni o'rganishdan iboratdir. Testlar kumagida hayotni tajribalar,

tasavvurlar, fikr-qarashlar, ahloqiy-estetik nuqtai nazarlar, muayyan xatti-harakatlarning kelib chiqish sabablari xususida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Uz navbatida test usuli orqali sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishda respondentga bir xil talablar kuyilishi muhim ahamiyatga ega. Agar bir xil talab kuyilmasa, unda olingan javoblar tadqiqot maqsadini tulaligicha ro'yobga chiqara olmaydi.

Sungi yillarda keng tarqalayotgan testlar o'zining asosan empirik xarakterga ega ekanligi, u eki bu amaliy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan ajratib turadi. Masalan, o'quv yurtlariga qabul qilish eki bitirish testlari. Shu narsani alohida kayd etish lozimki, test bu- avvalo ko'rsatkichdir. Mikdoriy ko'rsatkichlardan u farq qilib, test qiyin anglanuvchi ong, ma'naviyat va ruhiyatga ko'rsatkichlarga erishish yo'llarini oydinlashtiroadi. Test usuli bugungi kunda tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash, jamoatchilik fikri holatini real belgilash, ijtimoiy ongning ayrim jihatlarini to'g'ri tushunishda ahamiyat kasb etib bormoqda.

Sotsiologiya fanida empirik tadqiqotlar jaraenida qo'llanilaetgan usullardan yana biri - bu statistik usuldir. Statistika - lotincha suz bo'lib, "status"- holat atamasidan kelib chiqqan. Dastlab bu suz Italiyada "Davlatshunoslik" ma'nosida qo'llanilib, "siesiy holat", muayyan shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy urni mazmunini anglatib kelgan. Statistik usullar amaliy matematikaga suyanuvchi tadqiqot usullari sifatida sotsiologik ma'lumotlarni yigish, kayta ishlash, tahlil etish, modellashtirish va turli xil tadqiqotlar natijalarini taqqoslash maqsadlarda keng qo'llaniladi.

Statistik usullar odatda tanlama va tadrijiy o'zgarishlarni o'rganuvchi usullarga ajratiladi. Birinchi, tanlama usul voqea, hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik va bog'liqliklar tahlilini, statistik xulosalar, baholar va ulchamlar nazariyasini, eksperimental ishlarni rejalashtirish usullarini o'z ichiga olsa, ikkinchisi esa vokelikdagi tadrijiy o'zgarishlarni muayyan uzluksiz usish ko'rsatkichlari, shkala asosida o'rganish, muayyan voqea va hodisalarning sabablarini tahlil etish, turli xil voqealarning ikki belgisi - mikdor va sifat o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish va boshqalarni kamrab oladi.

Statistik tadqiqotlar asosida guruhlashtirish usuli alohida o'rin tutadi. Guruhlashtirish usuli urganilaetgan birlikni muayyan guruhlarga ajratish asosida atroflicha tadqiq etishni nazarda tutadi. Bunda asosiy mezon ajratilgan guruhlar sonini va ulardagi muhitni belgilovchi jihatlarini to'g'ri aniqlab tadqiq etishdan iboratdir. Shuningdek o'zaro bog'langan jadvallarni tuzish asosida ham obyekt sotsiologik tahlil etiladi. Bu usul ilmiy farazni tekshirishda muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda sotsiologiyada matematik usullar keng kulamlarda qo'llanilib kelinmoqda.

Eksperiment metodi. Ijtimoiy hayotning murakkabligi, ong va ruhiy jarayonlarni o'lchash qiyinchiligi, katta moliyaviy harajatlar, kishilar guruhlarini unga jalb etish qiyinligi va shu kabi sabablarga ko'ra sotsial eksperiment o'tkazish va undan foydalanish darajasi pastdir. Sotsial eksperiment usulining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: obyektiv reallik tizimiga ta'sir ko'rsatish; nisbatan ajratib olingan eksperimental omilni tadqiq qilinayotgan obyektga

nisbatan rejali asosda qo'llash; uning oqibatlarini rejali nazorat qilib borish; o'zgarish samaradorligini, ijobiy va salbiy jihatlarini o'lchash.

Eksperiment turlari. Sotsiologiyada eksperiment asosan 3 tipida olib boriladi:

1. Ekspost-fakto eksperiment. Bunda eksperiment o'tmishdan hozirgacha bo'lgan ijtimoiy tadqiqot obyekti qilib olinganda o'tkaziladi.

2. Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment. Bu tipda hozirgi davr ijtimoiy jarayonlari tadqiqot obyekti qilib olingan bo'ladi.

3. Proektli eksperiment. U hozirdan kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi.

Bulardan tashqari, sotsial eksperimentlar: tadqiqot xususiyatiga qarab fan sohasidagi, ijtimoiy jarayonlarini boshqarishdagi eksperimentlar; sotsial eksperimentning tarkibining xarakteriga ko'ra; dala va laboratoriya sharoitidagi; mantiqiy tarkibiga ko'ra parallel va davomiy tarzda tiplarga bo'linadi.

Ijtimoiy eksperiment strukturasi, uning bilish imkoniyatlari. Sotsial eksperiment o'tkazish muayyan bosqichlaridan iboratdir:

Birinchi bosqich – nazariy bosqich bo'lib, unda o'tkaziladigan eksperiment tipi belgilanadi va nazariy jihatdan asoslanadi. Mavjud imkoniyatlar eksperiment omillar va tadqiqot obyektining o'ziga xos jihatlarini hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqich – eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar va metodikasi ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich – eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar aniq vositalar orqali obyektga tadbiiq qilinadi.

To'rtinchi bosqich – so'nggi bosqich bo'lib, unda eksperimentdan olingan natijalar ilmiy tahlil qilinadi va baholanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat hayotining umumsotsiologik muammolari ustida olib boriladigan sotsial eksperimentlar kutilgan natijalarni bermaydi. Bunda faqat ijtimoiy munosabatalarning funktsional va rivojlanish qonuniyatlariga putur etkaziladi, xolos. Kishilar boshiga og'ir kulfatlar solib, bartaraf qilinishi qiyin oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jamiyat hayotining maxsus sohalari doirasida, mikrosotsiologik obyektlar ustida sotsial eksperimentlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, nisbatan kichik doirada, sotsial obyektida o'tkazilgan eksperiment natijalari aniq muddat ichida o'z natijalarini ko'rsatishi mumkin va uning oqibatlari agar salbiy jihatlarga ega bo'lsa ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga yoyilib ketmaydi. Bu natijalar eksperiment o'tkazilgan tadqiqot obyektigagina tegishli bo'ladi. O'tkazilgan eksperimentning ijobiy natijalarini esa hayotning boshqa sohalariga yoyish, tadbiiq qilish mumkin bo'ladi.

Obyektini tanlash, eksperimental va nazorat guruhlarini shakllantirish, eksperimental vaziyat, natijalarni tahlil qilish. Sotsiologik va sotsial-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eksperiment usulidan foydalanish ikki asosiy omilga bog'liq bo'ladi: tadqiqot obyektining o'ziga xosligiga va tadqiqot qilayotgan ijtimoiy guruh javob reaksiyasining xarakteriga. Bu usul har qanday sotsial

obyektga ham qo'llanilavermaydi. Bu usuldan foydalanishda eng avvalo, tadqiq etilayotgan obyektning eksperiment o'tkazish mumkin deb topilsa, uni o'tkazish chegarasi aniq belgilanmog'i lozim. Eksperiment sotsial obyekt (tizim) funktsional munosabatlarini buzmasligi, izdan chiqarmasligi kerak. Sotsial eksperimentlar o'z vazifasi mazmuni, yakuniy natijasi bilan o'zaro farq qilsada, barchasiga xos ichki tuzilishga ega. Uning ichki unsurlariga eksperiment o'tkazuvchi (tadqiqotchi, olimlar guruhi, ilmiy laboratoriya), yaratiladigan shart-sharoit tizimi – eksperimental omil, eksperimental holat va eksperiment natijalari kiradi.

Xulosalarni tahlil qilish usullari. Empirik sotsiologik tadqiqotning yakuniy bosqichida sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, izohlash, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar bajariladi. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash sotsiologik tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va kodlashtirish. Bunda asosiy vazifa empirik ma'lumotlar, hujjatlar bir xil shaklga keltiriladi. Rasmiy tarzda ishlab chiqiladi va belgilangan shartlar asosida tartibga keltiriladi.

2. Olingan ma'lumotlarni tadqiqot vazifasiga mos holga keltirish, ya'ni olingan empirik ma'lumotlardan tadqiqot maqsadiga qanchalik erishilganligi va oldinga qo'yilgan vazifa qay darajada hal qilinganligi aniqlanadi.

3. Statistik tahlil. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik tahlil muhim ahamiyatga ega. Statistik tahlil orqali ba'zi ijtimoiy statistik qonuniyatlar va funktsional munosabatlar oydinlashadi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish va ulardan ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Empirik tadqiqot usullari yordamida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda tartiblashtirish, shkallalashtirish, munosabatdorlik kabi usullardan ham keng foydalanish mumkin. Tartiblashtirish – bu tadqiq qilinayotgan obyektlarning o'zaro nisbiy ahamiyatini tartibli asosda aniqlashni bildiradi. Darajalash – o'rganilayotgan obyektning boshqa obyektlarga nisbatan xususiy jihatlariga qarab sifat va miqdoriy darajasini aniqlash demakdir. Darajalash ekspert baholashning boshqa usullari bilan yanada to'ldirilishi mumkin.

Empirik ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonida asosiy e'tibor tadqiqot obyektining faqat ijobiy tomonlarigagina emas, ko'proq echimini kutayotgan muammolarga qaratilmog'i lozim. Bu bosqichda tadqiqot farazi olingan miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi. Ma'lumki, ishchi faraz – muayyan ijtimoiy obyekt to'g'risidagi taxminiy faraz, xolos. Sotsiologik tadqiqot natijalarining tahlili esa, shu ishchi farazning to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlaydi. Ishchi farazning qanchalik haqqoniyligini tekshirishning samarali vositasi – ijtimoiy amaliyot, kishilarning amaliy, xayotiy faoliyati hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlarni nazariy jihatdan umumlashtirish, muayyan xulosalar ishlab chiqish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Sotsiologik tadqiqot natijalarining ilmiy tahlili va ularni umumlashtirish ilmiy hisobot tarzida tuziladi. Ilmiy hisobot guruhlashtirilgan va

tizimlashtirilgan holda tuzilib, kelgusida o'tkaziladigan tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy hisobot tarkibi asosan ikki qismdan iborat bo'lib, nazariy va amaliy bo'limlarni tashkil qiladi.

Sotsiologik tadqiqotning ilmiy hisobotida quyidagi asosiy talablarga e'tibor berilmog'i lozim.

1. Ilmiy hisobotda tadqiqot predmetiga muvofiq muammoning barcha o'zaro bog'liq jihatlari chuqur aks etishi zarur. Bunda, sotsiologik muammoning asosiy mohiyatli jihati aniq ko'rsatilmog'i kerak. Bajarilgan ishlar esa mantiqiy tartib asosida yozilib chiqiladi.
2. Ilmiy hisobotning har bir bobi ikki qismdan iborat qilib tuzilmog'i maqsadga muvofiq. Birinchi qism muammo va tadqiqot natijalarini o'z ichiga olmog'i, ikkinchi qism esa – ilmiy xulosalarni, amaliy taklif va tavsiyalarni tashkil etmog'i kerak.
3. Ilmiy hisobotda anketa savollari umumlashtirilgan holda ixcham qilib ifodalanadi. Hisobot aniq, hayotiy, hujjatli va statistik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan bo'lishi talab etiladi.
4. Ilmiy hisobot ixcham va to'g'ri yozilishi zarur. Ko'pi bilan 30-40 betdan oshmasligi zarur, jadvallar, diagrammalar ilova tarzida ham berilishi mumkin.

Biz yuqorida empirik tadqiqot usullari haqida ancha mufassal ma'lumotlar berib utdik. Sotsiologik tadqiqotlarda ularni qo'llash va shu asosda empirik ma'lumotlarni to'plash, kayta ishlash hamda tahlil qilishning o'ziga xos tomonlari tahlil qilindi. Shuningdek sotsiologik tadqiqot natijalari ilmiy tahlili va ularni umumlashtirish ilmiy hisobot tarzida tuzilishi baen etilgan edi.

Ilmiy hisobot kelgusida utkaziladigan tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishini hisobga olib, hisobotni tayerlash bilan bog'liq bo'lgan bir necha uslubiy talablarni baen etishni lozim deb topdik.

Ilmiy hisobot tuzishga kuyilgan bu va boshqa talablar tadqiqot natijalaridan ham nazariy, ham amaliy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, tadqiqotlarning samarasiga extiejlarni yanada oshiradi, fan bilan amaliet o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlaydi. Bular esa yangidan-yangi sotsiologik tadqiqotlarga zamin yaratadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2014
2. Karimov I.A. Asarlar. 1-21 jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1996-2013.
3. Karimov I. A. “ Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” T.: O`zbekiston 2015 yil
4. Karimov I.A Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -Toshkent: O'zbekiston, 2009.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qoshma majlisidagi ma`ruza (2010 yil 27 yanvar).
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - Toshkent: O'zbekiston, 2010.
9. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevordir. -T. 2009.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. –T. 2010 yil.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T. 2010 yil.
12. Karimov I.A. Asarlar to`plami. 1-18 jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2010.
13. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. - O'zbekiston. 2011.
14. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2013 yil 9dekabr.
15. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuq va marralarimizning asosidir. 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan jurnalistlarga bergan intervyusi. //www.press-servis.uz. 2013 yil, 10 may.
16. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug'kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. //// Xalq so'zi, 2013 yil dekabr.
17. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini

izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisiida so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 2014 yil, 18 yanvar.

18. Karimov I.A. «O'zbek xalqiga tinchlik va ovonlik kerak». «Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan OAV uchun bergan intervyusi. //Xalq so'zi, 2014 yil 10 may.
19. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati mavzusidagi xalqaro konferentsiya ochilish marosimidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2014 yil 15 may.

Darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Aliyev B., Rafiqov G', Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). -Toshkent: TDYUI nashriyoti. 2006.
2. Sotsiologiya . O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzayev O.B. va boshq. -Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
3. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzayev O.B., va boshq. - Toshkent, 2001
4. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriyev N.S va Ubaydullayeva R.T tahriri ostida) - Toshkent: 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.
2. Вебер М. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 1990.
3. Ганиева М.Х. Этносоциология. Учебное пособие для студ. высших учебных заведений. - Ташкент: Университет, 2006.
4. Ганиева М.Х. Введение в социальную работу. -Ташкент., 2011.
5. Гараджа. В.И. Социология религии. - М., 2005.
6. Giddings E. Sotsiologiya. - Toshkent, 2002
7. Кравченко А.И. Социология. - М., 2006.
8. Латипова Н.М. Политическая социология. Методическое пособие. - Ташкент., 2010.
9. Современная западная социология. Словар. – М.: Прогресс, 1990.
10. Социология религии. В.И.Гараджа. – М., 2005.
11. Социология //Учебное пособие. Под редак. д.ф.н. Мухамедовой З.М., – Ташкент: Санат, 2010
12. Qodirov A.Q. Sotsiologiya. –Toshkent, 2006.

13. Saitxodjayev H.B. Sotsiologiya. Ma`ruzalar kursi. –Toshkent: Akademiya, 2008.
14. Holbekov A.J., Idivov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug`at-ma`lumotnoma. – Toshkent: Ibn-Sino nomidagi nashriyot, 1999.
15. Xolbekov. A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o`quv qo`llanma). –Toshkent: Akademiya, 2007.
16. Ubaydullayeva R.A., Ota-Mirzayev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O`quv-uslubiy qo`llanma). –Toshkent.: «Ijtimoiy fikr», 2001.
17. Farfiyev B.A., Nurullayeva U.N. Sotsiologiya tarixi. (Uslubiy qo`llanma). Toshkent: Universitet, 2009.
18. Kalonov K.K. O`zbekiston o`zini o`zi boshqaruv tizimi dinamikasi tahlil qilishda avtoritetning tutgan o`rni: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent, 2000.
19. Yunusov A.B. O`smir yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari: Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent: O`zMU, 2004.
20. Norbekov A.SH. O`zbekistonda ijtimoiy kafolat tizimini yaratish muammolari: siyosiy-sotsiologik tahlil. Dis....sotsiol. fan.nom. – Toshkent, 2004.
21. Латипова Н.М. Рол молодых специалистов в трансформации социальной структуры узбекистанского общества: Дис....канд.социол.наук. – Ташкент, 2009.
22. Ганиева М.Х. Общественное мнение как фактор развития межнациональных отношений: Дис....док.социол.наук. – Ташкент. – Ташкент. 2009

XORIJIY ADABIYOTLAR

1. Итов Н.А. «Социология труда». Алма-Ата, 1996.
2. Алексеев Н.И. «Экономический этинг: социальные аспекты». М.: «Наука», 1987.
3. Американская социологическая мысли. М., 1991.
4. Андреев Ю.М., Коржевская Н.М. и др. «Социальные институты, содержание, функции, контрол». Свердловск, 1989.
5. Антонов А.И., Медков В.М. «Социология семи». М., 1996.
6. Афонин А.С. «Трудовое поведение: социолого-экономический анализ». Киев, 1991.
7. Батугин Г.С. «Лекции по методологии социологических исследований: Учебник». М., 1995.
8. Волков Ю.Г., Мостовая И.В. Социология. Уч. Пособие. М. 1995.
9. Вебер М. «Избранные произведения». М., 1990.
10. Волков Ю.Г. «Личност и гуманизм». (Социологический аспект). М., 1995.
11. Гидденс Э. Социология. Т.: «Шарк». 2002.
12. Данило Маркович. «Социология труда». М., «Прогресс», 1998.
13. Дворецкая Г.В., Махнарилов В.П. «Социология труда»: Уч. пособие. М., 1998.

14. Дюркгейм Э. «Метод социологии». Спб., 1898.
15. Дюркгейм Э.О. «Развитие общественного труда. Метод социологии». М., 1990.
16. Дикарёва А.А., Мирская М.И. «Социология труда». Уч. пособие. М., 1995.
17. Зборовский Г.И. «Социология образования». Екатеринбург, 1993.
18. Зборовский Г.И., Орлов Г.П. «Введение в социологию». Екатеринбург, 1995.
19. Инсон тараккиёти тугрисида хисобот. Т., 1998.
20. Капитонов Э.А. Социология XX века. «История и технология». Ростов на Дону, 1996.
21. «Краткий очерк истории социологии». М., 1990.
22. Лавриненко В.И., Нартов Н.А. «Основы социологических знаний». Уч. пособие. М., 1995.
23. Мацковский М.С. «Социология семи». Проблемы теории, методологии и методики. М., 1989.
24. Радаев В.В., Шкаратан О.И. «Социальная стратификация». М., 1995.
25. Радугин А.А., Радугин Н.А. Социология. Курс лекций. М., 1996.
26. Резник Й.М. «Социальное измерение жизненного мира». Введение в социологию жизни. М., 1995.
27. Сафо Очил. «Мустакиллик маънавияти ва тарбия асослари». Т.: «Уқитувчи», 1997.
28. «Современная западная социология: классические традиции и поиски новой парадигмы». М., 1990.
29. Соколова Н.Г. «Экономическая социология». М., 1994.
30. Социология. М., 1990.
31. Социология. Уч. пос. М., 1997.
32. Убайдуллаева Р.Т., Хайдаров А. «Социология тарихи». Т., 1993.
33. Фролов А.Н. Социология. М., «Логос», 1996.
34. Харчева В. «Основы социологии». М., 1994.

Elektron ta'lim resurslari:

1. [http: www.lib.socio.msu.ru](http://www.lib.socio.msu.ru)
2. [http: www.socioline.ru](http://www.socioline.ru)
3. [http: www.socio.rin.ru](http://www.socio.rin.ru)
4. [http: www.sociologos.narod.ru](http://www.sociologos.narod.ru)
5. [http: www.socionet.narod.ru](http://www.socionet.narod.ru)
6. [http: www.sociograd.ru](http://www.sociograd.ru)
7. www.ziyonet.uz
8. www.gov.uz
9. www.lex.uz